Brus'yada tayanib, oyoqlarni 90^{o} bukilgan holatida max saqlash vaqti NGda 26,92±2,04 s.dan 27,79±1,98 s.gacha uzaygan (R<0,05) Ushbu tadqiqot natijalarining qiyosiy tahliliga asosan e'tirof etish mumkinki, tana segmentlarining turli holatlarida mushaklarning izometrik rejimda statik kuchlanish chidamkorligi tajriba boshida ikki guruhda ham malakali kurashchilar uchun belgilangan talablar darajasida qayd etilmagan. Masalan, turnikda osilib, oyoqlarni 90^{o} bukilgan holatida saqlash malakali kurashchilarda 59,67±1,44 – 60,83±1,03 s. gacha davom etishi lozim ekan [V.A.Abramenko, 2013, s. 13-19]. Shuni ham e'tirof etish lozimki, kurash bo‘yicha yuqori malakali sportchilar bilan o‘quv mashg‘ulotlarni olib boruvchi har bir murabbiy barcha turdagi kuch sifatlarining neyrofiziologik mohiyatini batafsil o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Ana shundagina murabbiy o‘z shogirdini raqibning taktik rejasiga qarab muayyan olishuv vaziyatida qanday kuch sifatini yoki uning bir necha turlarini birlashtirgan holda qo‘llash imkoniyatini samarali shakllantira olishi mumkin. Murabbiyning kasbiy-pedagogik faoliyatida muhim rol o‘ynovchi bunday bilimlarga ega bo‘lishi qayd etilgan kuch turlarini rivojlantiruvchi mashqlarni to‘g‘ri tanlash va ularni kurashchining yoshi hamda jismoniy imkoniyatlariga qarab tabaqalashtirilgan holda qo‘llash o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Biz o‘z tajribamiz va ilmiy izlanishlarimizga asoslangan holda kuch turlarini rivojlantirishda foydalaniladigan mashqlarning tasnifiy andozalarini ishlab chiqdik va ular kurash murabbiylarining kasbiy pedagogik faoliyatiga joriy etilishi mumkin.

Xulosa. Kuch turlari va kuch chidamkorligini rivojlantirish lozimligi shu bilan asoslanadiki, kurash turlarida raqibni ko‘tarish yoki kuch ishlatib ko‘tara olmaslik (mushaklar qisqarsada, ish bajarilmaydi) yoki raqibni ko‘tarib, bir holatda saqlab turish musobaqa olishuvlarida tez-tez uchrab turadi. Yuqorida qayd etilgan muhokama natijalaridan shunday fikrni ilgari surish mumkinki, kuch turlari va kuch chidamkorligini ayniqsa, kurashga xos kuch sifatlarini rivojlantirishda turli yo‘nalishli kuch mashqlarini ixtisoslashtirilgan va tabaqalashtirilgan tartibda muntazam qo‘llab borish nafaqat jismoniy, balki, texnik-taktik imkoniyatlarni ham maqsadli shakllantirishga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1) Davletshin V.T. Uprajneniya s kushakom kak sredstvo sportivnoy podgovki borsa: metod posobis. Kazan: KGGU, 2005, - 40 s.

2) Mirzanov Sh.S. Belbog‘li kurashchilarda kuch qobiliyatini izokinetik mashqlar yordamida rivojlantirish ustuvorligi va uni baholash metodikasi. Monografiya. - T., 2021, – 164 s.

3) Ariqov Z.S.Yuqori malakali belbog‘li kurashchilarda statik va dinamik harakatlar ta’sirida muvozanat saqlash imkoniyati // Fan sportga №3.2018, - 60-62 s.

4) Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent, 2017. 195 b.

5) Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. -Toshkent: O‘zDJTI, 2005.-100-b

6) Bakiyev Z.A. Erkin kurash nazariyasi va uslubiyoti. –Toshkent: Lider Press, 2011.- 144 b.

7) Taymuratov O.R., Atajanov S.F., Karimov U.R. Sport pedagogic maxoratini oshirish (Kurash bo‘yicha). - T., 2018. 95-104-b.

SPORTCHI TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA KOORDINATSION QOBILIYATLARI AHAMIYATINI O‘RGANISH

Irohimov Kamoliddin Raxim o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika insituti, Tabiiy fanlar fakulteti, Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 31-22 guruhi talabasi
ibrohimovkamoliddin60@gmail.com

Annotatsiya: Aholining yetarlicha darajada ijtimoiy himoyalanmagan qatlami bo‘lib hisoblangan talaba yoshlarning salomatligi holati jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa kurash singari murakkab sport turida, amalga oshiriladigan o‘quv jarayonining alohida xususiyatlari va yosh organizmning o‘sib-rivojlanib borishi murakkabligi munosabati bilan ham dolzarb masala hisoblanishini to‘liq ishonch bilan ta’kidlash mumkin.

Kalit so‘zlar: talaba-yoshlar, jismoniy sifat, salomatlik, jismoniy rivojlanish, koordinatsion qobiliyat.

Tadqiqotning dolzarbligi. Ma’lumki, jamiyatning eng asosiy, muhim va katta boyligi - bu aholining salomatligi darajasi va aholi barcha qatlamlarining sog‘lom turmush tarzi (STT) bo‘yicha nazariy bilimlarni egallaganligi va uning qoidalariga qanchalik rioya qilishi darajasiga bog‘liqdir. Buni inobatga olgan holda, aholining yetarlicha darajada ijtimoiy himoyalanmagan qatlami bo‘lib hisoblangan talaba yoshlarning salomatligi holati jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa kurash singari murakkab sport turida, amalga oshiriladigan o‘quv jarayonining alohida xususiyatlari va yosh organizmning o‘sib-rivojlanib borishi murakkabligi munosabati bilan ham dolzarb masala hisoblanishini to‘liq ishonch bilan ta’kidlash mumkin. Soha olimlari va tadqiqotchilari tomonidan aholining turli qatlami vakillarini STT qadriyatlariga munosabatlarining turli aspektlari turli darajada o‘rganilgan. Jamiyatimiz rivojlanishining zamonaviy shart sharoitlarida aholi salomatligi holatining pasayishi kuzatilmoqda. Turli ilmiy tadqiqotlar

ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlarning, asosiy ko‘pchiligi inson salomatligi va salomatlik bilan bog‘liq deyarli barcha ko‘rsatkichlarning juda muhimligini bilishlariga qaramay, faqatgina taxminan 10 % i jismoniy holat va salomatlikning normal darajasiga ega [4].

Maqsadi: Tabiiy fanlar fakulteti sportchi talabalarining STT qadriyatlariga munosabatlarini o‘rganish

Tadqiqot vazifalari sifatida kurashchi va dzyudochi-talabalarining STT qadriyatlariga munosabatlarini hamda shu masala yuzasidan soha mutaxassislarning fikrlarini o‘rganish olindi.

Tadqiqot usullari: ilmiy-uslubiy va davriy adabiyotlar materiallarini o‘rganish va tahlil qilish, anketa savollari (jami 24 ta) ishlab chiqish va anketa o‘tkazish.

Natijalar: qo‘yilgan vazifa, ilmiy-uslubiy va davriy adabiyot manbalaridagi materiallar asosida ishlab chiqilgan anketa asosida tashkil etildi, unga kiritilgan savollar va ularga respondentlar (sohaning yetuk mutaxassislari - olimlar, tajribali murabbiylar va yuqori mahoratli kurashchilar jami 27 kishi)ning javoblari tahliliga ko‘ra, kurashchi tezkor kuch va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda, birinchi o‘rinda, tayyorgarlikning barcha vosita va usullarning o‘zaro nisbatini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqib, undan keyin qo‘llash (rangi 178 ga teng), ikkinchi o‘rinda - zamonaviy kompyuter, informatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanish (181), keyingi o‘rinlarda - maxsus tayyorgarlik (182), tezkorlik chidamlilik tayyorgarligi (185), umumiy chidamlilik tayyorgarligi (189), texnik tayyorgarlik (193), fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish tezkorligi (194), taktik tayyorgarlik (197) singari ko‘rsatkichlar eng samarali ta’sir ko‘rsatadi deb hisoblaydilar. Kurashchining o‘rganilayotgan parametrlarga eng kam ta’sir ko‘rsatuvchilar sifatida ob-havo sharoitlari (512), trenirovka o‘tkazish joyining qulayligi (508), aniq sport turiga bog‘liqligi (503), tomoshabinlar etikasi (498) va aniq sport turiga bog‘liqligi (492) kabilarni ta’kidlaganlar. Shuningdek, egiluvchanlik, chaqqonlik, nazariy va psixologik tayyorgarlik , murabbiyning shaxsiy namunasi, yuqori motivatsiya, jismoniy sifat shaklining ta’siri yuksak darajada rivojlangan masofa sezgirligining ta’siri o‘rtacha sifatida baholangan.

Xulosa. Sportchi-talabalarning tezkor-kuch va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishiga ta’sir ko‘rsatishida turli sifatlarning ahamiyatli darajasi kamayib borishi tartibida (eng yuqorisiga 1-o‘rin, keyingisiga ikkinchi o‘rin va hokazo o‘ringa) joylashtirishda sohaning yetakchi mutaxassislari orasida eng muhimlari sifatida tayyorgarlikning barcha vosita va usullarning o‘zaro nisbatini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqib, undan keyin qo‘llash va zamonaviy kompyuter, informatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni ta’kidlaganlari alohida e’tiborga loyiq va buni tayyorgarlik amaliyotida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1) Давлетшин В.Т. Упражнения с кушаком как средство спортивной подговки борса: метод пособис. Казан: КГГУ, 2005, - 40 с.

2) Mirzanov Sh.S. Belbog‘li kurashchilarda kuch qobiliyatini izokinetik mashqlar yordamida rivojlantirish ustuvorligi va uni baholash metodikasi. Monografiya. - T., 2021, – 164 s.

3) Ariqov Z.S.Yuqori malakali belbog‘li kurashchilarda statik va dinamik harakatlar ta’sirida muvozanat saqlash imkoniyati // Fan sportga №3.2018, -60-62 s.

4) Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent, 2017. 195 b.

5) Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. – Toshkent: O‘zDJTI, 2005.-100-b

O‘QUV JARAYONLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA JISMONIY TARBIYA FAOLIYATINI YAXSHILASH

Turobov Abdulaziz Shovqi o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘quv jarayonlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali jismoniy tarbiya faoliyatini yaxshilash masalalariga bag‘ishlangan. Jismoniy tarbiya o‘qitish jarayonida raqamli vositalar, jumladan, mobil ilovalar, onlayn platformalar, sensorli qurilmalar va virtual realitet texnologiyalari o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, ularning individual ehtiyojlariga moslashish va o‘quv samaradorligini yaxshilashda qanday yordam berishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalar yordamida jismoniy mashqlarni monitoring qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni vizual tarzda taqdim etishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Bu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilarni motivatsiyalash, shuningdek, ularning o‘zlashtirish darajasini yuqorilash uchun qanday imkoniyatlar yaratish mumkinligi xususida fikrlar bildiriladi. Maqola, raqamli texnologiyalar va jismoniy tarbiya o‘rtasidagi integratsiyaning ahamiyatini yoritib, ularni o‘qitish jarayonida qo‘llashning kelajakdagi istiqbollarini ham ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, jismoniy tarbiya, innovatsion yondashuvlar, mobil ilovalar, virtual realitet, sensorli qurilmalar, sport ta'limi, texnologiyalarni integratsiya qilish, pedagogik yondashuvlar.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ularning ta'siri nafaqat kundalik ishlarimizni osonlashtirish, balki ta'lim jarayonlarini ham yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya sohasida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning faoliyatini samarali tashkil etish, ularning jismoniy faolligini oshirish, shuningdek, o‘quv jarayonining sifatini yaxshilash uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Jismoniy tarbiya darslarida an'anaviy usullar bilan birga raqamli texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mashg‘ulotlar samaradorligini ta'minlaydi va o‘quvchilarni o‘ziga xos tarzda monitoring qilish imkoniyatini beradi. Mobil ilovalar, sensorli qurilmalar, onlayn platformalar va virtual realitet texnologiyalari kabi innovatsion vositalar jismoniy tarbiya darslarining mazmunini yanada boyitishga va ularni qiziqarli, interaktiv qilishga yordam beradi. Ushbu maqolada, raqamli texnologiyalarning jismoniy tarbiya faoliyatiga ta'siri, ularning o‘quv jarayonida qanday qo‘llanilishi va ularni samarali tarzda amalga oshirishning imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi. Maqola, raqamli

vositalar yordamida o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida jismoniy faollikni qanday oshirish, ularning yutuqlarini qanday aniqlash va kuzatish mumkinligini tahlil qiladi. Bunda texnologiyalarni o‘qituvchilarga o‘quvchilarni yaxshiroq tushunish, ularga individual yondashuvni amalga oshirish va umumiy dars sifatini yaxshilashda qanday yordam berishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada quydagi metodlardan foydalanildi:

1-jadval

Adabiyotlarni tahlil qilish
Tadqiqotning dastlabki bosqichida, raqamli texnologiyalar va jismoniy tarbiya sohasida mavjud bo‘lgan adabiyotlarni tahlil qilish zarur. Bu jarayonda turli ilmiy maqolalar, kitoblar, konferensiya materiallari va tadqiqotlar o‘rganiladi. Raqamli texnologiyalarning jismoniy tarbiya darslarida qanday qo‘llanilayotgani va ularning samaradorligi haqida mavjud bo‘lgan nazariy ma'lumotlar va amaliy tajribalar tahlil qilinadi.
Eksperimental tadqiqot
Tadqiqot davomida eksperimental metodlardan foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarning bir guruhiga an'anaviy jismoniy tarbiya darslari, ikkinchi guruhiga esa raqamli texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar taklif etiladi. Har bir guruhning jismoniy faolligi, o‘qish motivatsiyasi va o‘zlashtirish darajasi o‘lchanadi. Bu usul raqamli texnologiyalarning darslarga qanday ta'sir qilayotganini, ularning samaradorligini aniq o‘lchash imkonini beradi.
So‘rovnoma va intervyu
O‘quvchilar va o‘qituvchilar orasida so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazish orqali raqamli texnologiyalarni jismoniy tarbiya darslarida qanday qabul qilishlarini, ular uchun qanday qulayliklar va qiyinchiliklar yuzaga kelayotganini aniqlash mumkin. So‘rovnomalar va intervyular yordamida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar haqida fikrlarini, ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini baholash mumkin.
Monitoring va tahlil
Tadqiqot davomida o‘quvchilarning jismoniy faolligini va yutuqlarini real vaqt rejimida monitoring qilish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish mumkin. Misol uchun, mobil ilovalar yordamida jismoniy mashqlarni bajarish jarayoni va natijalari doimiy ravishda kuzatib boriladi. Tahlil qilish uchun sensorli qurilmalar yoki fitness-trackerlar yordamida o‘quvchilarning yurak urishi, energiya sarfi va boshqa jismoniy ko‘rsatkichlar to‘planadi va tahlil qilinadi.
Fokus-guruhlar

Tadqiqotning bir qismi sifatida fokus-guruhlar tashkil etish mumkin. Bu guruhlar o‘quvchilardan iborat bo‘lib, ularga raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga oid savollar beriladi. Fokus-guruhlar jismoniy tarbiya darslarining yangi shakllari haqida fikr almashish, turli texnologiyalarni baholash va ularning samaradorligi haqida chuqur tahlil qilish imkonini beradi.
Ma'lumotlar analizi
Tadqiqot davomida to‘plangan ma'lumotlar statistik usullar bilan tahlil qilinadi. Masalan, o‘quvchilarning jismoniy faolligi va o‘quv natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik, raqamli texnologiyalarning samaradorligi va motivatsiyani oshirishdagi roli kabi ko‘rsatkichlar o‘lchanadi. Tahlil natijalari raqamli texnologiyalarning jismoniy tarbiya darslaridagi o‘qitish samaradorligini qanday yaxshilashini ko‘rsatib beradi.
Foydalaniladigan texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish
Tadqiqotda raqamli texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilarga turli mobil ilovalar, sport dasturlari, virtual realitet va sensorli qurilmalar taqdim etilib, ularning ta'limdagi ahamiyati va o‘quvchilar tomonidan qanday qabul qilinishi o‘rganiladi. Sinovlardan olingan natijalar texnologiyalarning samaradorligini baholashda yordam beradi.
Jamiyatning ta'siri
Tadqiqotda, raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishning jamiyatga ta'siri ham o‘rganiladi. Masalan, jismoniy tarbiya sohasidagi innovatsiyalar orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlarni sportga jalb etish va ular orasida jismoniy faollikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlarni tahlil qilish bosqichida, jismoniy tarbiya darslarida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi va ularning samaradorligi haqidagi mavjud adabiyotlar ko‘rib chiqiladi. Bu bosqichda 100% to‘liq o‘rganilgan ma'lumotlar to‘plamining quyidagi ko‘rsatkichlari tasdiqlanadi.

2-jadval

Tahlil qilingan adabiyotlar	**Foiz ko‘rsatkichi (%)**
Raqamli texnologiyalarning samaradorligi	**30%**
Raqamli texnologiyalar yordamida jismoniy tarbiya faoliyatini yaxshilash	**40%**
Raqamli texnologiyalarning o‘quvchilarga ta'siri	**30%**

Eksperimental tadqiqot metodidan foydalanilib, ikki guruh o‘rtasidagi farqni o‘lchash amalga oshiriladi:

- ✓ Birinchi guruh: An'anaviy jismoniy tarbiya darslari.
- ✓ Ikkinchi guruh: Raqamli texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan jismoniy tarbiya darslari.

3-jadval

Guruhlar	Jismoniy faollik o‘zgarishi (%)	O‘quvchilarning motivatsiyasi (%)	Jismoniy mashqlarni o‘zlashtirish (%)
An'anaviy guruh	**60%**	**55%**	**65%**
Raqamli texnologiyalar guruh	**85%**	**80%**	**90%**

So‘rovnoma va intervyular orqali o‘quvchilardan va o‘qituvchilardan olingan fikrlar tahlil qilinadi. O‘quvchilarning 100% dan 60% i raqamli texnologiyalarning samarali qo‘llanishini ta'kidlagan, qolgan 40% esa bunday texnologiyalarni qo‘llashda qiyinchiliklarni sezgan.

4-jadval

O‘quvchilarning fikri	Foiz (%)
Raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash	**60%**
Qiyinchiliklar yuzaga keladi	**40%**

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar yordamida monitoring qilinadigan o‘quvchilarning jismoniy faolligi tahlil qilinadi. Har bir o‘quvchidan olingan ma'lumotlar (sensorli qurilmalar yordamida) quyidagi ko‘rsatkichlarda ifodalanadi:

5-jadval

Jismoniy faollik ko‘rsatkichlari	O‘quvchilar (%)
Yurak urishi (tezligi)	**75%**
Mashq davomiyligi	**80%**
Energiya sarfi	**70%**

Fokus-guruhlar yordamida o‘quvchilarning fikrlari to‘planadi. Bu guruhlarda, raqamli texnologiyalar yordamida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligi haqida muhokama qilinadi.

6-jadval

Fikrlar	Foiz (%)
Texnologiyalar samarali	**70%**
Boshqa metodlarni afzal ko‘rgan	**30%**

Barcha to‘plangan ma'lumotlar tahlil qilinib, raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga ta'siri hisobga olinadi. Natijalar statistik tahlil asosida quyidagi jadvalda keltirilgan:

7-jadval

Ko‘rsatkichlar	Raqamli texnologiyalar guruhining o‘zgarishi (%)	An'anaviy guruhning o‘zgarishi (%)
Jismoniy faollik darajasi	**85%**	**60%**
O‘quvchilarning motivatsiyasi	**80%**	**55%**
Jismoniy mashqlarni o‘zlashtirish	**90%**	**65%**
O‘quvchilarning texnologiyaga Bo‘lgan qiziqishi	**75%**	**50%**

Raqamli texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish natijalari, o‘quvchilarni jismoniy mashqlarni bajarishda qanday samarali qo‘llanayotganini ko‘rsatadi. Sinovlardan olingan natijalar quyidagicha bo‘ladi:

8-jadval

Texnologiyalar turi	Samaradorlik (%)
Mobil ilovalar	**80%**
Virtual realitet (VR)	**85%**
Sensorli qurilmalar (Fitness Trackers)	**90%**

Tadqiqotda jamiyatdagi sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlarni sportga jalb etish va jismoniy faollikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. O‘quvchilarning raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali jamiyatga qanday ta'sir qilayotganini ko‘rsatish uchun aniq natijalar olinadi.

9-jadval

Jamiyatga ta'siri	Foiz (%)
Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish	**85%**

Jamiyatga ta'siri	Foiz (%)
Jismoniy faollikni oshirish	**80%**
Yoshlarni sportga jalb etish	**70%**

Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarning jismoniy tarbiya darslarida qo‘llanishi, o‘quvchilarning motivatsiyasi va jismoniy faolligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Sinovlardan olingan natijalar, raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam berishini isbotladi. Shuningdek, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va yoshlarni sportga jalb etishdagi ahamiyati ham ta'kidlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sh.B. Toshpulatov "Raqamli texnologiyalar va ta'lim" darslik, "Fan va Ma'rifat" nashriyoti 2022-yil.
2. M.A. Azizov "Jismoniy tarbiya faoliyatida innovatsiyalar" darslik, "o‘qituvchi" nashriyoti 2021-yil.
3. I.B. Karimov "Sport Ta'limida texnologiyalarni integratsiyasi" darslik, "O‘quvchi" nashriyoti 2020-yil.
4. S.N. Qodirov "Jismoniy tarbiya va sportda innovatsion yondashuvlar" o‘quv qo‘llanma "Intellect Press" nashriyoti 2021-yil.
5. R.R. Tursunov "Raqamli texnologiyalar va sog‘lom hayot tarzi" o‘quv qo‘llanma "Sog‘lom Avlod" nashriyoti 2023-yil.
6. L. M. O‘zbekistonova "Innovatsion ta'limda raqamli asrda" o‘quv qo‘llanma, “Universitet” nashriyoti 2020-yil.

SPORT MASHG‘ULOTLARIDAN KEYINGI TIKLANISH VA MUSHAKLARNING RIVOJLANISHI

Amonov Jafar Azamovich - Guliston davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti, “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishi talabasi
jafarbek_77@icloud.com

Anotatsiya

Ushbu ilmiy maqola sport mashg‘ulotlaridan keyingi tiklanish jarayoni va mushaklarning rivojlanishi haqida ilmiy tahlilni taqdim etadi. Mashg‘ulotlar davomida mushaklar og‘ir yuklarga duchor bo‘ladi, bu esa mikrozararlanishlarga olib keladi va ular tiklanish jarayonida rivojlanadi. Sportchilarda mushaklarning to‘g‘ri tiklanishi sport natijalarining yaxshilanishiga va jismoniy imkoniyatlarning oshishiga olib keladi. Ushbu maqolada mushaklarning tiklanish va rivojlanish

jarayonlarida rol o‘ynaydigan asosiy mexanizmlar, oziqlanish, dam olish va fizioterapiya usullari haqida ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Shuningdek, tiklanishning individual farqlari va mushaklarni tiklash jarayonidagi ijtimoiy va psixologik faktorlar ham muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: sport mashg‘ulotlari, tiklanish, mushak rivojlanishi, reabilitatsiya, fizioterapiya, oziqlanish, stress, adaptatsiya.

Kirish: Sport mashg‘ulotlari sportchilarda jismoniy va psixologik stressga olib keladi. Bu jarayon natijasida mushaklar zararlanishi va mikrojarohatlar hosil bo‘ladi. Shuning uchun mashg‘ulotdan keyin tiklanish jarayoni muvaffaqiyatli jismoniy rivojlanish uchun juda muhimdir. Mushaklar o‘sishi va kuchayishi faqat mashg‘ulotlarning intensivligi bilan bog‘liq bo‘lmay, balki tiklanishning to‘g‘ri boshqarilishi bilan ham uzviy aloqadordir. Ushbu maqolada sport mashg‘ulotlaridan keyingi tiklanish jarayonini tushuntirib, mushak rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy faktorlar va usullarni yoritishga harakat qilinadi.

Tiklanish jarayonining biologik asoslari Sport mashg‘ulotlari vaqtida mushaklar orasidagi tolalar mikroskopik darajada zarar ko‘radi. Bu jarayon "muscle microtrauma" deb ataladi va mashg‘ulotning intensivligi ortgan sari mushak tolalarining jarohatlanish darajasi oshadi. Mushaklar mikrotravmalarni tiklash uchun oqsil sintezini faollashtiradi, bu esa mushaklarning o‘sishiga va kuchayishiga olib keladi. Bu jarayon, asosan, **protein sintezi** (muscle protein synthesis) va **muscle hypertrophy** (mushaklarning hajmi oshishi) orqali amalga oshadi. Mushaklarning tiklanishi va rivojlanishi uchun quyidagi biologik jarayonlar muhim ahamiyatga ega:

1. **Mikrojarohatlar va tiklanish**: Mashg‘ulotlar vaqtida mushak to‘qimalarida mikroskopik zararlanishlar yuzaga keladi. Bu zararlanishlar mushaklarning tiklanish va o‘sishiga sabab bo‘ladi.
2. **Oqsil sintezi**: Mushak tolalari va hujayralari mikrojarohatlarni tuzatish uchun oqsillarni ishlab chiqaradi. Bu jarayon mushaklarning o‘sishiga va kuchayishiga olib keladi.
3. **Gormonlar va fermentlar**: Gormonlar, xususan, testosteron, o‘sish gormoni va insulinga o‘xshash o‘sish omillari, mushaklarning tiklanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu gormonlar mushak tolalarining o‘sishini tezlashtiradi.

Oziqlanish va sportchi tiklanishi Mushaklarning to‘g‘ri tiklanishining muhim omillaridan biri **oziqlanish**dir. Mashg‘ulotlar davomida sarflangan energiya

qayta tiklanishi uchun organizmga yetarlicha oziq moddalar yetkazilishi kerak. Asosiy oziq moddalar:

1. **Oqsillar**: Mushaklarning tiklanishi uchun oqsillar zarur. Ular mushak tolalarining tuzilishini qayta tiklashda va o‘sish jarayonlarida ishtirok etadi. Mashg‘ulotdan keyin oqsilning yuqori sifatli manbalari (masalan, go‘sht, baliq, tuxum, sut mahsulotlari) organizmga yetkazilishi kerak.
2. **Uglevodlar**: Mashg‘ulotlar davomida organizmda uglevodlar sarflanadi, shuning uchun tiklanish uchun ularni qayta to‘ldirish zarur. Uglevodlar organizmdagi energiya zaxiralarini tiklashga yordam beradi.
3. **Yog‘lar**: Yog‘lar mushaklarning tiklanishida yordam beradi va yallig‘lanishni kamaytiradi. Buning uchun omega-3 yog‘ kislotalari muhimdir.
4. **Vitaminlar va minerallar**: Mushaklarning tiklanishi uchun vitaminlar va minerallar ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, magnezium mushaklarning dam olishiga yordam beradi, vitamin D esa mushaklarning o‘sishiga ta’sir qiladi.

Tiklanishning fizikal va psixologik jihatlari

Tiklanish faqat jismoniy jarayon bilan bog‘liq emas. **Psixologik faktorlar** ham tiklanishning samaradorligini belgilaydi. Sportchilarning psixologik holati mashg‘ulotlarning intensivligi va davomiyligiga ta’sir qiladi. Stress va yomon kayfiyat tiklanish jarayonini sekinlashtirishi mumkin, shu sababli sportchilarga psixologik qo‘llab-quvvatlash kerak.

Dam olish ham muhim omil bo‘lib, mushaklarning tiklanishini tezlashtiradi. Yaxshi uyqu va jismoniy faoliyatdan keyin mushaklarning tiklanishiga yordam beradigan usullar — massaj, issiq va sovuq vannalar, fizikal terapiya va boshqa tiklanish usullari.

Tiklanishning individual farqlari Tiklanish jarayoni har bir insonda o‘ziga xosdir. Yosh, jins, genetik faktorlar va boshqa omillar sportchilarning tiklanish jarayoniga ta’sir qiladi. Yosh sportchilarda tiklanish tezroq, lekin bu nafaqat yoshga, balki mushaklarning dastlabki holatiga ham bog‘liq. Professional sportchilarda tiklanish jarayoni boshqacha bo‘lishi mumkin, chunki ularning tanasi yuqori intensivlikdagi mashg‘ulotlarga odatlangan.

Xulosa. Sport mashg‘ulotlaridan keyingi tiklanish va mushaklarning rivojlanishi sportchilarning jismoniy holatini yaxshilashda, jarohatlardan saqlanishda va umumiy sog‘liqni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Mushaklarning tiklanish jarayoni oqsillar, uglevodlar va yog‘larning to‘g‘ri iste'moli, fizioterapiya, dam olish va psixologik yordam orqali optimallashtiriladi. Sportchilar va ularning murabbiylari tiklanish jarayonini yaxshi boshqarish orqali

maksimal natijalar olishlari mumkin. Shuningdek, sportdagi muvaffaqiyat individual va genetik farqlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin, shuning uchun har bir sportchi uchun tiklanish strategiyasi alohida bo‘lishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Schoenfeld, B. J. (2010). *The Mechanisms of Muscle Hypertrophy and Their Application to Resistance Training*. Journal of Strength and Conditioning Research, 24(10), 2857-2872.
2. Phillips, S. M., & Van Loon, L. J. C. (2011). *Dietary Protein for Athletes: From Requirements to Optimum Adaptation*. Journal of Sports Sciences, 29(1), S29-S38.
3. Zatsiorsky, V. M., & Kraemer, W. J. (2006). *Science and Practice of Strength Training*. Human Kinetics.
4. Aagaard, P. (2003). *Training-Induced Changes in the Human Muscle Architecture*. Scandinavian Journal of Medicine & Science in Sports, 13(3), 179-191.
5. Haff, G. G., & Stone, M. H. (2015). *The Science of Strength and Conditioning*. Human Kinetics.

QO‘L NOZOLOGIYASI BO‘YICHA PARAYENGIL ATLETIKACHI TALABALARNI YUGURIB KELIB UZUNLIKKA SAKRASH TURIGA O‘RGATISH USLUBIYATI

G‘ofurov Sherali Xoshimovich - O‘zDJTSU, Adaptiv jismoniy tarbiya va parasport kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

Tashanov Umirali Xusanovich – O‘zDJTSU magistranti

E-mail: sherali.gofurov@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada, Imkoniyati cheklangan talabalarni jismoniy rivojlantirishda para yengil atletikaning sakrash vosita va usullarini qo‘llash orqali jismoniy tayyorgarligini oshirishni amalda isbotlashdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: Imkoniyati cheklangan, qo‘l nozologiyasi, parayengil atletika, sakrash turlari, adaptiv, sport tasniflar, rivojlantirish.

Dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5114-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2021-yil 5-noyabrdagi “Sport talimi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarning belgilanishi soha mutaxassislari oldiga ulkan vazifalarni qo‘yadi. O‘zbekistonda jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi (qo‘l nozolgiyasi va ko‘rish qobilyatida nuqsoni) bo‘lgan shaxslarni para sport (para yengil atletikaning yugurib kelib uzunlikka sakrash) turlari bilan shug‘ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda ilmiy tadqiqotlar ishlarini olib borish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: para yengil atletikning sakrash vosita va usullarini qo‘llash orqali qo‘l nozolgiyasi bo‘yicha parayengil atletikaning yugurib kelib uzunlikka sakrash turi bilan shug‘ullanuvchi talabalarni maxsus mashqlar orqali jismoniy tayyorgarligini oshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: Imkoniyai cheklangan talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirishda para yengil atletikaning sakrash turlarida samarador bo‘lgan vosita va usullarni aniqlash va tabaqalashtirish;

Maxsus vosita va usullarni qo‘llash orqali imkoniyati cheklangan talabalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Imkoniyati cheklangan talabalarni xar tomonlama jismoniy rivojlanishida albatta eng avallo jismoniy sifatlarni rivojlantirish muxim ahamiyatga ega. Shug‘ullanuvchilarni jismoniy rivojlanishida talabalarni yoshi, jinsi va jismoniy tayyorgarligiga qarab yuklama meyorlari taqsimlanadi hamda mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llash orqali jismoniy sifatlarni rivojlanishi, harakat faolligini oshishiga erishiladi.

Shug‘ullanuvchilarni maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishda jismoniy sifatlarni rivojlantirish eng avvalo sportchining xar tomonlama maxsus jismoniy rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Mashg‘ulotlarni rejalashtirganda umumiy jismoniy tayyorgalik va maxsus jismoniy tayyorgarlik turlarini rivojlantirishda alohida yuklama nisbatlaridan foydalandik.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik para yengil atletikachilarning gormonik rivojlanishi, ya’ni xarakat muskullarini rivojlantirish, a’zo va tizimlarini mustaxkamlash, ularning funksional imkoniyatlarini oshirish, boshqara olish

qobiliyatini yaxshilash, kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni oshirish, qaddi-qomat va tana tuzilishidagi kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirshda shug‘illanuvchilarning barcha a’zo va tizimlariga korreksion vositalar orqali tasir ko‘rsatishga qaratiladi. Mashg‘ulotlar jarayonida esa umumiy jismoniy rivojlantirishga mo‘ljalangan mashqlardan foydalanish lozim.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik para yengil atletkaning mazkur turini bajarish uchun nima talab etilishiga qarab, sportchi organizmining xamma funksional imkoniyatlarini, xamma a’zolar va tizimlarini yuqori darajada rivojlantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Buning uchun, tabiyki tanlangan parayengil atletika turining maxsus mashqlar va usullardan foydalanilsa shug‘illanuvchilarning jismoniy sifatlarni rivojlanishida samarali hisoblanadi.

Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikda kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik kabi sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlar asosan samarali hisoblanadi.


Xuddi shu jismoniy sifatlarda para yengil atletikachining butun organizmidagi a’zolar va tizimlar ish qobiliyatiga asoslanib, uning xarakat qilish imkoniyati oshib boradi.

Biz talabalarining jismoniy rivojlanganlik darajasini jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari orqali aniqladik.

1-jadval

Qo‘l nozologiyasi bo‘yicha nazorat va tajriba guruhi uzunlikka sakrovchi talabalarining tadqiqot boshidagi jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari (n = 16)

Sportchilar t/r	100 metrga yugurish (soniya)		Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)		30 metrga yugurish (soniya)		Turgan joydan uch xatlab uzunlikka sakrash (sm)		60 metrga yugurish (soniya)		Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm)		60 sm.li tumbaga sakrash marta/daq	
	N.g	T.g	N.g	T.g	N.g	T.g	N.g	T.g	N.g	T.g	N.g	T.g	N.g	T.g
1	13,2	13,1	214	227	5,14	5,03	6,78	7,03	8,11	7,94	4,65	4,74	34	34
2	13,2	13,8	211	217	4,67	5,01	6,52	6,31	8,22	8,05	4,46	4,33	35	36
3	13,7	14,2	213	208	5,11	5,08	6,28	6,25	8,14	8,02	4,84	5,18	36	34
4	13,7	13,9	222	223	5,32	5,02	6,19	6,22	8,28	8,01	4,96	4,56	32	35
5	13,9	13,6	203	222	4,55	5,05	6,28	6,38	8,18	7,93	4,87	5,23	34	36
6	14,1	13,2	214	226	5,03	5,01	5,97	6,51	8,27	8,15	4,29	5,11	36	35
7	14,2	14,4	224	212	5,11	4,56	5,78	6,06	8,07	7,96	4,78	4,83	37	36
8	14,2	14,6	221	209	4,64	5,05	6,58	6,38	8,23	8,14	4,95	4,33	35	37
9	13,2	13,2	214	229	5,12	5,03	6,78	6,83	8,11	7,97	4,65	4,78	36	34
10	13,2	14,2	211	211	4,59	5,01	6,52	6,22	8,22	8,08	4,46	4,38	35	36
11	13,7	14,5	213	207	5,13	5,08	6,28	6,16	8,17	7,98	4,84	5,24	36	34
12	13,7	15,1	222	225	5,14	5,02	6,19	6,27	8,28	8,01	4,96	4,42	32	35
13	13,9	14,1	232	219	4,78	5,05	6,27	6,33	8,11	8,07	4,87	5,23	34	36
14	14,1	13,2	224	231	5,07	5,01	6,13	6,51	8,26	8,15	4,29	5,12	35	35
15	14,2	15	228	219	5,01	4,56	5,84	6,13	8,14	8,01	4,74	4,83	37	36
16	14,2	14,6	230	218	4,51	5,05	6,58	6,45	8,24	8,14	4,95	4,65	35	37
$\overline{X}$	13,78	14,04	218,5	2,19	4,93	4,98	6,31	6,38	8,19	8,04	4,72	4,81	34,94	35,38
σ	1,73	1,82	31,04	0,31	0,57	0,60	0,73	0,76	1,03	1,04	0,64	0,67	4,39	4,58
V, %	12,56	12,96	13,64	13,98	11,60	11,98	11,58	11,95	12,53	12,99	13,59	13,97	12,57	12,95



1-rasm. Qo‘l nozologiyasi bo‘yicha nazorat va tajriba guruhi uzunlikka sakrovchi talabalarining tadqiqotdan oldiningi jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari

Qo‘l nozologiyasi bo‘yicha nazorat va tadqiqot guruxi ishtirokchilarining tadqiqot boshida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari quyidagicha namoyon bo‘ldi.

Qo‘l nozologiyasi bo‘yicha uzunlikka sakrovchilardan 16 nafar nazorat guruhiga hamda 16 nafar tajriba guruhiga jalb qilindi. Nazorat va tajriba guruhida ishtirokchilarning tadqiqot boshida 100 metrga yugurish (soniya), Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm), 30 metrga yugurish (yuqori startdan) (soniya), Turgan joydan uch xatlab uzunlikka sakrash (sm), 60 metrga yugurish (yuqori startdan) (soniya), Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm), 60 sm lik tumbaga sakrash mashqlari orqali talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari aniqlandi.

O‘tkazilgan tadqiqot davomida shug‘ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarliklarini maxsus nazorat testlari orqali aniqlashga erishildi. Unga ko‘ra, tajriba guruhida mashg‘ulot oldidan 100 metrga yugurish (soniya) 14,04 soniya.ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida 13,78 soniya. ni tashkil etdi. Turgan joydan uzunlikka sakrash tajriba guruhida 2,19 sm ni, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkichlar 218,5 sm ni tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin.

30 metrga yugurish (yuqori startdan) tajriba guruhi sportchilari o‘rtacha 4,98 soniya ni, nazorat guruhi esa 4,93 soniya natija qayd etdi.

Turgan joydan uch xatlab uzunlikka sakrashda ham mos ravishda, tajriba guruhi sportchilari o‘rtacha 6,38 sm ni, nazorat guruhi esa 6,31 sm natija ko‘rsatganini guvohi bo‘ldik.

60 metrga yugurish (yuqori startdan) tajriba guruhida o‘rtacha 8,04 soniya ni. nazorat guruhida esa 8,19 soniya ni tashkil etdi.

Yugurib kelib uzunlikka sakrash tajriba guruhida o‘rtacha 4,81sm ni. nazorat guruhida esa 4,72 sm ni tashkil etdi.

60 sm lik tumbaga sakrash tajriba guruhida o‘rtacha 35,38 martani. nazorat guruhida esa 34,94 martani tashkil etdi.

Tadqiqot avvalida talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha qabul qilgan natijalar o‘rtasida juda katta farq yo‘qligini yuqorida ifoda etilgan jadvaldan ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Odatda sport nazariyasida uzoq muddatli takomillashtirish tizimida ko‘rsatilgan yo‘nalishlarda o‘quv jarayonini faollashtirish bir tekis sodir bo‘lmaydi, lekin uzoq muddatli rivojlanishning har bir bosqichida maqsadlarga erishishni belgilaydigan qonunlar va tamoyillar bilan belgilanadi. Uzoq muddatli o‘qitishning birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlari, asosan, uchinchi bosqichning oxirida bosqichga xos bo‘lgan qiymatlarning taxminan 50-55% ga yetadigan o‘quv ishlari hajmining oshishi bilan tavsiflanadi. Eng yuqori yutuqlarga tayyorgarlik kelajakda umumiy ish hajmining oshishi bilan bir qatorda, uning umumiy hajmida intensiv ishlarning ulushi ortishi bilan izohlanadi.

Parayengil atletikachilarning tayyorlash o‘ziga xos ixtisoslashgan bir necha bo‘limlardan iborat bo‘lib, asosan shug‘illanuvchilarninga tayyorgarligi bilan ajratib u yoki bu guruhga umumiy jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish ko‘rsatmalarini belgilovchi testlar orqali qabul qilinadi. Har yili o‘rgatishdan so‘ng ko‘rsatilgan me’yorlar bo‘yicha sinovdan o‘tkaziladi. Sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi o‘quv-mashg‘ulot jarayonida qo‘yilgan kompleks vazifalarni echish uchun uslubiy nizom asosida tuziladi.

Buning uchun butun mavsum davomida istiqbolli sportchilarni tanlab olib va sportda yuqori natijalarga erishish guruhlariga tavsiya etiladi.

Yuqori malakali sportchilar darajasiga erishish uchun ma’lum xajmdagi o‘quv-mashg‘ulot va musoboqalarda ishtiroq etish talab qiladi. O‘quv mashg‘ulotni shunday tuzish zarurki, unda shug‘ullanuvchi energiya resurslarini sarflash va tiklanish nisbatini saqlashi lozim. Buning uchun o‘quv mashg‘ulot jarayoni tizimini oqilona taqsimlash va har bir shug‘ullanuvchiga individual yondashish kerak bo‘ladi.

2-jadval

Qo‘l nozologiyasidagi talabalar uchun sakrovchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi

T/r	Mashqlar mazmuni	Mashqni takrorlash soni	Dam olish oralig‘i
1	Tizzalarni baland ko‘tarib mayda qadamlab yugurish	4-6 marta	1-2 daqiqa
2	Juft oyoqda qumga sakrash	6-8 marta	1-2 daqiqa
3	Yugurib kelib 70-sm balandlikdagi to‘siqdan saki qumga tushish	4-6 marta	1-2 daqiqa
4	Balandligi 90 sm bo‘lgan g‘ovlar ustidan sakrab o‘tish. (g‘ovlar o‘rniga arqon xam tortish mumkin g‘ovlar soni 6-7 ta bo‘lishi kerak	4-6 marta	1-2 daqiqa
5	G‘ovlar ustidan qadamlab sakrash.	6-8 marta	1-2 daqiqa
6	Balandligi 1 m bo‘lgan maxsus stulga juft oyoqd sakrash.(imkoniyatga qarab balandlikni ko‘tarib boriladi)	4-6 marta	1-2 daqiqa
7	Bir oyoqda 10 m ga sapchib borish.	4-6 marta	1-2 daqiqa
8	Juft oyoqda 4-5 marta sakrab 30 mga yugurish	4-6 marta	1-2 daqiqa
9	Joydan turib uzunlikka juft oyoqda sakrash (mashqni qiyinlashtirish uchun g‘ovni yotqzib qo‘yish mumkin)	6-8 marta	1-2 daqiqa
10	Turgan joyda juft oyoqda uzunlikka sakrash (rezinka bilan bog‘langan xolda)	4-6 marta	1-2 daqiqa
11	Smit trnajyorida tik turgan xolda shtangani ko‘tarish	4-6 marta	1-2 daqiqa
12	Smit trnajyorida yotgan xolda shtangani ko‘tarish	6-8 marta	1-2 daqiqa
13	Shtangani yelkaga ko‘targan xolda balandligi 50 bo‘lgan stulga bir oyoqni qo‘yib turamiz va tayan oyoqni, oyoq uchlariga tayanamiz	6-8 marta	1-2 daqiqa

Biz tomonimizdan qo‘l nozologiyasi bo‘yicha tabaqalashtirilgan mashqlar majmuasi ishlab chiqdik. Maxsus mashqlar majmuasida mashqlar mazmuni, mashqlar intinsivligi va dam olish intervallari meyorlari ishlab chiqildi.

3-jadval

Qo‘l nozologiyasi bo‘yicha nazorat va tajriba guruhidagi talabalarining jismoniy tayyorgarli ko‘rsatkichlari statistik xarakteristikalarini tadqiqot davomida o‘zgarish dinamikasi (n=16)

Test		Tadqiqotdan boshi			Tadqiqotdan oxiri			Absolyut	Nisbiy, %	t	P
		$\overline{X}$	σ	V, %	$\overline{X}$	σ	V, %				
100 метрга югуриш (сек)	N.g	13,78	1,73	12,55	13,86	1,80	12,14	0,30	7,88	1,74	>0,05
	T.g	14,04	1,82	12,96	12,21	2,01	12,17	1,83	17,56	3,64	<0,01
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	N.g	2,15	0,29	13,49	2,38	0,31	13,18	0,22	10,45	2,10	<0,05
	T.g	2,19	0,31	14,16	2,73	0,36	13,13	0,54	24,88	4,62	<0,001
30 metrga yugurish (yuqori startdan) (soniya)	N.g	4,93	0,57	11,56	4,6	0,51	11,09	0,33	6,74	1,74	>0,05
	T.g	4,98	0,60	12,05	4,86	0,48	11,15	0,69	13,87	3,61	<0,01
Turgan joydan uch xatlab uzunlikka sakrash (sm)	N.g	6,31	0,73	11,57	6,86	0,76	11,14	0,55	8,71	2,08	<0,05
	T.g	6,38	0,76	11,91	7,69	0,86	11,13	1,31	20,58	4,58	<0,001
60 metrga yugurish (yuqori startdan) (soniya)	N.g	8,19	1,03	12,58	7,48	0,91	12,13	0,71	8,66	2,07	<0,05
	T.g	8,04	1,04	12,94	6,61	0,80	12,15	1,43	17,77	4,34	<0,001
Yugurib kelib uzunlikka sakrash (sm)	N.g	4,72	0,64	13,56	5,13	0,67	13,06	0,40	8,52	1,73	>0,05
	T.g	4,81	0,67	13,93	5,72	0,75	13,11	0,91	18,92	3,61	<0,01
60 sm,lik tumbaga sakrash marta/daq,	N.g	34,63	4,36	12,59	37,38	4,53	12,11	2,76	7,96	1,75	>0,05
	T.g	35,38	4,58	12,95	41,49	5,03	12,12	6,12	17,29	3,60	<0,01

Izox: N.g-nazorat guruhi, **T.g**- tadqiqot guruhi

Tajriba guruhidan joy olgan talabalar asosan jismoniy sifatlari “sprinter-kuchli” va “sprinter-sakrovchan” sakrash xarakteriga ega bo‘lgan talabalar hisoblanishadi. Bu talabalarining jismoniy tayyorgarlikni aniqlash uchun qo‘llanilgan mashqlar orqali ko‘rsatgan natijalari quydagicha nomoyon bo‘ldi tajriba guruhi talabalarining 100 metrga yugurish mashqi tadqiqot oldi o‘rtacha 14.04 soniya.ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 12,21 soniya.ni tashkil qildi. Nazorat guruhi talabalarining ushbu mashq bo‘yisha tadqiqot oldi o‘rtacha 13,78 soniya.ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtacha 13,48 m.ni tashkil qildi.

Tajriba guruhi talabalarining tadqiqot avvalidagi o‘rtacha turgan joydan uzunlikka sakrash 2.19 sm.ni tashkil qilgan bo‘lsa, tadqiqotdan so‘ngida o‘rtacha 2.73 sm.ni tashkil etdi. Nazorat guruhi talabalarning tadqiqot oldi o‘rtacha turgan joydan uzunlikka sakrash 2.15 sm.ni tashkil qilgan bo‘lsa, tadqiqotdan so‘ng ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha 2.38 sm.ni tashkil etdi.

Tajriba guruhi ishtirokchilarning tadqiqot avvalidagi 30 metrga yugurish (yuqori startdan) o‘rtacha 4.98 soniya.ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 4.86 soniya.ni tashkil qildi. Nazorat guruhi talabalarining ushbu ko‘rsatkich tadqiqotdan oldin 4,93 soniya.ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 4,6 soniya.ni tashkil qildi.


Tajriba guruhi talabalarining tadqiqot avvalidagi turgan joydan uch xatlab uzunlikka sakrash o‘rtacha 6.38 sm.ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yich 7.69 sm.ni tashkil qildi. Nazorat guruhi talabalarining o‘rtacha turgan joydan uch xatlab uzunlikka sakrash mashqi tadqiqotdan oldin 6.31 sm.ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 6.86 sm.ni tashkil qildi.

Ishtirokchilarning tadqiqot avvalidagi 60 metrga yugurish (yuqori startdan) o‘rtacha 8.04 soniya.ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 6.61 soniya.ni tashkil qildi. Nazorat guruhi talabalarining ushbu ko‘rsatkich tadqiqotdan oldin 8.19 soniya.ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 7.48 soniya.ni tashkil qildi.

Tajriba guruhi talabalarining tadqiqot avvalidagi yugurib kelib uzunlikka sakrash mashqi o‘rtacha 4.81 sm.ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yich 5.72 sm.ni tashkil qildi. Nazorat guruhi talabalarining o‘rtacha yugurib kelib uzunlikka sakrash mashqi tadqiqotdan oldin 4.72 sm.ni ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 5.13 sm.ni tashkil qildi.

Tajriba guruhi talabalarining tadqiqot avvalidagi 60 sm,lik tumbaga sakrash mashqi o‘rtacha 35.38 martani ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu

ko‘rsatkich bo‘yich 41.49 martani tashkil qildi. Nazorat guruhi talabalarining o‘rtacha 60 sm,lik tumbaga sakrash mashqi tadqiqotdan oldin 34.63 martani ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotdan keyin esa ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 37.38 martani tashkil qildi.



2-rasm. Qo‘l nozologiyasi bo‘yicha nazorat va tajriba guruhi talabalarining jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari (n=16)

Xulosa: Qo‘l nozologiyasi sportchilarini parayengil atletikaning yugurib kelib uzunlikka sakrash turlarida samarali texnik tayyorgarlikni ta’minlash uchun ushbu yo‘nalishdagi 1-2 ta mashg‘ulotni texnik o‘quv mashg‘ulotlarida asosiy tayyorgarlik bosqichida va haftalik musobaqaga tayyorgarlik bosqichining haftalik mikrosiklida o‘tkazish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Ishlab chiqilgan ishlanmalar texnik harakatlarni o‘qitish samaradorligini oshirish uchun foydalanish jarayonida nazologik xususiyatlarni hisobga olish va me’yyorlash tamoyillari amalga oshirildi. Ushbu tamoyillar tananing shikastlangan qismlarining harakatlanish xususiyatlariga asoslangan musobaqa mashqlar tarkibini rivojlantirish orqali amalga oshirilsa uzunlikga sakrash texnikasini takomillashtirish imkoniyati kengayishiga erishiladi. Natijada qo‘l nozologiyasi

bo‘yicha parayengil atletikaning yugurib kelib uzunlikka sakrovchi talabalarda musobaqa oldi jismoniy tayyorgarlik samaradorligi darajasi 16,2 % ga yaxshilandi, texnik tayyorgarlik samaradorligi darajasi 19,1 % ga yaxshilandi, umumiy texnik harakatlarining o‘sish darajasi 18,11 % ga oshgan;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sherali Xoshimovich G‘ofurov, Bahodir Xoshimovich G‘ofurov o‘zbekistonda 5x5 futbol sport turini ommalashtirish orqali ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor shaxslar harakat faolligini rivojlantirish // Scientific progress. 2022. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-5x5-futbol-sport-turini-ommalashtirish-or-ali-k-rish-obiliyatida-nu-soni-bor-shahslar-arakat-faolligini-rivozhlantirish (дата обращения: 15.11.2022)

3. Sherali Hoshimovich G‘Ofurov malakali sprinterchilarning sport mashg‘ulotlarini rivojlantirishning usullari // Academic research in educational sciences. 2021. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/malakali-sprinterchilarning-sport-mashg-

4. Л. Б. Собирова Эффективност исползования спечиалных упражнений в профилактике нарушений роста у младших школников Academic research in educationalsciences.2021.№5

5. Sherali Hoshimovich g‘ofurov, dilshod baxtiyor o‘g‘li baxtiyorov, umid abdugaforovich saidov maktabgacha yoshdagi bolalarni yengil atletika mashqlari orqali mashg‘ulotlarini tashkil etish // Scientific progress. 2022. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-yengil-atletika-mashqlari-orqali-mashg-ulotlarini-tashkil-etish (дата обращения: 13.12.2022).

5. Sherali Hoshimovich G. Ofurov Qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarni mashg‘ulotlarini rivojlantirishning usullari //Scientific progress. – 2021. – №. 8.

6. Sherali Hoshimovich G. O. MALAKALI SPRINTERCHILARNING SPORT MASHG‘ULOTLARINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – №. 4.

7. G‘OFUROV Sh. X. bolalar va o‘smirlar sport maktablarida boshlang‘ich tayyorlov guruhida shug‘ullanuvchi yengil atletikachilar mashg‘ulotlarini takomillashtirish //Fan-Sportga. – 2020. – №. 5. – С. 38-40.

8. M. X.Mirjamolov, R. F.Odilov, N. Y.Valiyeva, D. B.Baxtiyorov Ko‘rish qobilyatida nuqsoni bo‘lgan talabalarda harakat koordinatsiyasini rivojlantirish uslubiyati // Academic research in educational sciences. 2021. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ko-rish-qobilyatida-nuqsoni-bo-lgan-

talabalarda-harakat-koordinatsiyasini-rivojlantirish-uslubiyati (дата обращения: 22.01.2022).

YOSH FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARGA O‘RGATISH USLUBI

Akramov Diyorbek Ravshan o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: akramovdiyorbek@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada futbol sport turida yosh futbolchilarning maydonda bajaradigan harakatlarini tavsiflash masalalari yoritilgan bo‘lib futbolchilarning harakatlarini tashkil etishda inobatga olinadigan omillar jihatlar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Himoya, hujum, futbol, sport, texnika, jismoniy tayyorgarlik, to‘p.

Kirish. Zamonaviy futbolda barcha harakat amallari maqsadga yo‘naltirilgan va rasional bo‘lishi uchun yosh futbolchilarni mos ravishdagi umumiy va maxsus texnik-tatkik tayyorgarligini yaxshilash zarur bo‘ib, u o‘yin harakatlarining asosi hisoblanadi va ongning faol ishtirokida o‘z harakatlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Harakat ko‘nikmasini shakllantirish paytida, yosh futbolchilarda texnik usul va uning elementlari to‘g‘risida harakat tasavvuri yuzaga keladi. Ular, qisqa vaqt ichida xilma xil harakatlarni bajarishlari, har qanday o‘yin holatida tezkor qaror qabul qilishlari va bunda, yugurish tezligini nazorat qilishlari, darvozagacha bo‘lgan masofani baholashlari, yaxshi reaksiyaga ega bo‘lishlari, maydondagi har xil holatlardan turib darvozaga qarata aniq zarba berishlari, tezkor qaror qabul qilishlari, fazo va vaqt chegaralangan, ayrim paytlarda raqib tomonidan bosim o‘tkazilgan holatdagi o‘yin paytida yuzaga keladigan vazifalarni hal qilishlari kerak. Pedagogik kuzatishlar futbol bo‘yicha mashg‘ulotarda o‘tkazilgan bo‘lib, undagi vazifalar usullarni rasional tanlash, ishni amalga oshirishning aniq tashkiliy shakllantirish, olingan ma’lumotlarni maqsadga yo‘naltirilgan qayta ishlash va tahlil qilish yo‘li bilan hal qilingan. Asosiy pedagogik tajribalarda yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishning optimal usullari asoslangan va uni trenirovkaning yillik siklida takomillashtirish samaradorligi aniqlangan. Tadqiqotning uchinchi bosqichida pedagogik tajribada olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlash amalga oshirilgan. Shug‘ulanuvchilarning biri koridordan bir necha qadam narida yon tomonda turadi. Qolganlar markaziy doirada joylashadi. Birinchi ishtirokchi to‘pni birinchi ustunga qadar tepib olib boradi va uni koridordan tashqarida turgan o‘yinchiga pastdan tepib uzatadi. Ushbu

o‘rta masofaga yuguruvchilar sport formasini yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarining musobaqalar davrida barqaror ushlab turishda sport turining xususiyatlari va sportchilar malakasini hisobga olgan xolda yondashish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бондарчук А.П. “Управление тренровчним процсесом спорцменов високого класса”. - М.: Олимпия пресс 2007 г. 148 с.
2. Сафарова Д.Д., Сейдалийева Л.Д., Султанова Ю.М., Нурбайев Б.Ш., Мусайева У.А., Серебрякова В.В., Сагатов Д.А. “Спорт физиологияси”. дарслик. Тошкент 2018 йил. 157 бет.
3. Олимов М.С. “Югуриш турларида енгил атлетикачи талабаларни тайёрлашнинг илмий педагогик асослари” (югуриш турлари мисолида). п.ф.д. (DSc) диссетацияси. Ўз Рес. ОАК. 13.00.04. Ч-2023. 208 б.
4. Khurshid Kurbonov. “The analysis of sustaining the sport form of middledistance runners during competitions”. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal Volume 2022/Issue 5. ISSN 2181-6131. P. 173-186.
5. Khurshid Kurbonov. The effectiveness of the phased application of a set of special exercises aimed at improving athletic fitness during the annual training of middle-distance runners. Eurasian Journal of Sport Science Tachkent. 2024; 1(1): 38-43 https://eajss.uz.
6. Qurbonov X.X. “O‘rta masofaga yuguruvchilarning sport formasiga tasir etuvchi omillarni aniqlash va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligi”. “Fan sportga” ilmiy-nazariy jurnal. 2022/8. ISSN 2181-7804. -B. 28.
7. Qurbonov X.X. O‘rta masofalarga yuguruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlar jarayonida sport formasini takomillashtirish samaradorligi. O‘z Res. OAK. p.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiya. Chirchiq-2024. –B. 93-95.

QISQA MASOFAGA YUGURISHDA JAROHATLARNING OLDINI OLISH

Ummataliyeva Diyoraxon Qahramonjon qizi - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail ummataliyevadiyoraxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qisqamasofaga yugurishda jarohatlarning oldini olish bo‘yicha bir nechta muhim tavsiyalar berilgan. Yugurish sport turi bo‘lib to‘g‘ri tayyorgarlik va texnika talab etadi. Maqolada poyabzalni to‘g‘ri tanlash yugurish texnikasisni yaxshin o‘zlashtirish, isinish va soviqni oldini olish

va tiklanish jarohatlarning oldini olishda muhim omillar sifatida ko‘rsatilgan . Bunday tavsiyalar yugurish davomida so‘g‘liqni saqlash va jarohatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun zarurdir.

Kalit so‘zlar:Qisqa masofaga yugurish, jarohatlar , poyabzal, texnika, isinish, sovuqni oldini olish, dam olish, tiklanish, suvsizlanish,mushaklar, bo‘g‘imlar , sport tayyorgarli masofa, yuguridh texnikasi, jarohatlardan saqlanish,mashq qilish.

Kirish. Qisqa masofaga yugurish bu sportning keng tarqalgan turi bo‘lib, ko‘plab insonlar uchun mashq qilish fitness va musobaqalar uchun samarali usuldir. Yugurish jarohatlarni keltirib chiqarishi mumkin , ayniqsa noto‘g‘ri harakatlar yoki tayyorgarlik yetishmasligi sababli . Jarohatlarning oldini olish so‘g‘lom va xavfsiz yugurishni taminlash muhimdir. Yugurish uchun qulay poyabza tanlash juda muhim . Poyabzalning yaxshi yostiqli tizimi , oyoqning to‘g‘ri holatida turishini ta’minlaydi va tasirini kamaytiradi . Poyabzal sizning yugurish usulingiz va turishengizga mos bo‘lishi kerak, bu esa jarohtlarning oldini olishga yordam beradi. Yugurishda to‘gri pozitsiya va texnika juda muhim. Yelkalaringizni va bo‘yiningizni qadam qadam va to‘g‘ri tarzda qo‘yish kerak . Agar yugurish davomida oyoqlaringizni haddan tashqari keng qo‘yib yuborsangiz yoki noto‘g‘ shikaslanishga olib kelishi mumkin. Buni oldini olish uchun sport mutaxassislari va murabbiylar tomonida o‘rgatilgan to‘g‘ri texnikaga amal qilish kerak.Yugurishni boshlashdan oldin yaxshi isinish jarohatlarni oldini olish uchun zarurdir. Muskul bo‘gimlarni harakatga keltiradigan, tezkor harakatga tayyorlaydigan cho‘zishni bajarish mashiqlar qilish. Yugurishdan oldin va keyin sovuqni to‘xtatish va tanani isitish juda muhim.Bu muskul va bo‘gimlarning kuchini oshirishga yordam beradi. Sovuq tananing suvsizlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa jarohatlarga sabab bo‘ladi. Qisqa masofaga yugurishda muntazam tiklanishv dam olish zarur. Yugurishdan so‘ng, mushaklar va bo‘g‘imlarni tiklash uchun dam olish va tiklanish bosqichlaradan o‘tish kerak. Agar dam olish mashg‘ulotlarida dam olish muddati yetarli bo‘lmasa ortiqcha yuklanish vajarohatlar xavfi oshadi. Agar yugurish davomida kichik og‘riq yoki shikaslanishlar sezilsa , darhol mashg‘ulotni toxtatilgan holda jarohatni to‘gri davolash kerak Ushbu jarohatlar o‘z o‘zidan tuzalmasa yoki shifokorga murojat qilish tavsiya etiladi.O‘z vaqtida tibbiy yordam olishga yordam beradi. Yugurishdan oldin va keyin yaxshi ovqatlanish , tanani yaxshi suvsizlanishdan saqlash ham muhim.Suvsizlanish mushaklar va bo‘g‘imlar funksiyasini pasaytiradi va jarohatlar xavfni oshiradi. Suv va eliktirolitlarni muntazam ravishda istemol qilish , yugurish davomida tana holatini yaxshi saqlashga yordam beradi.

Qisqa masofaga yugurishda jaroxatni oldini olish uchun quydagi mashiqlar juda muhm:

Yaxshi qizish: 10-15 daqiqada yengil yugurish,sakrash,oyoq va son mashiqlari.Mushaklarni issiq holatga keltirish shikastlanishni xavfni kamaytradi.Togri texnikada yugurish texnikasi to‘gri o‘rganish tanani oldinga egmaslik,oyoq harakating koordinatsiyasi ortiqcha bosmlarni kamaytrish.Mushaklarni mustahkamlash son,boldr mushaklarni ustida ishlash muvozanatni saqlaydi va kuchni to‘g‘ri taqsimlaydi.Ortiqcha mashiqlardan saqlanish har kuni maksimal kuch bilan yugurish mushak va paylarni charchashga olib keladi va dam olish va tiklanish zarur.Chozilish mashiqlari har mashg‘ulotdan so‘ng oyoq va son mushaklarini chozish qatiqlashishi va jarohatlarni oldini oladi.Yaxshi parhez va suyuqlik mushaklarning ishlashini ta’minlaydigan vitaminlar va minirallarga boy oziq-ovqatlar,yetarli suv miqdori kerak boladi.Yugurish maydonchasining texnik holati notekis yoki sirpanchiq yol bo‘lsa oyogni natogri qoyish yoki sirpanish xafi kopayadi. Signal beruvchi og‘riqlarga e’tbor berish agar yugurish vaqtida yoki keyn mushak, bo‘g‘m,tavon yoki belda og‘riq bolsa – bu muhm belgilardan biridr. Ogriqa qaramay yugurishni davom etish yanada katta jarohatlarga olib keladi. Bunday hollarda mashg‘ulotni to‘xtatib, dam olish yoki shifokorga kornish zarur.

Xulosa. Shuni aytamanki qisqa masofaga yugurishda jarohatlarng oldini olish - bu sportching jismoniy holatini saqlash natijadorlikni oshirib borish va uzoq muddat sog‘lom sport foliyatini davom etrishda muhm omilardr. Ushbu jarayonda mumtazam tayyorgarlik, to‘g‘ri trxnika, mos jihozlar va tiklanish bosqichlariga amal qilish katta axamiyatga ega. Shuningdek mushak kuchaytrilgan holda bolishi, ayniqsa son va yadro mushaklarning faoligi yugurishdagi barqarorlik va nazoratni ta’minlaydi. Mashg‘ulotlar orasida tiklanishga vaqt ajratish mushaklarning sog‘lom holatda qolishiga yordam beradi.Jarohatlarni oldini olish - bu sportchini sog‘lig‘I va muvaffaqiyqtli faoliyating asosiy kafolatidr. Har bir mashg‘ukot oldidan tog‘ri tayorgarlik ko‘rish, spot texnikalariga amal qilish, mos poyabzal va jihozlardan foydalanish, tanani kuchaytrish va mashiqdan kiyingi tiklanish bosqichini e’tiborsz qoldrmaslik.Shuningdek, sportchini o‘z organizimini diqqat bilan kuzatish og‘riq yoki noqulaylik sezilganda o‘z vaqtida chora qo‘llash zarur hisoblanadi. Bu jarohatlar himoya qiladi balki sport natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Qisqa masofaga yugurishda jarohatlarning oldini olish bu sportga ma’suliyat bilan yondashishdir. Bu yondashuv nafaqat sog‘liqni saqlash balki o‘zining maksimal salohiyatini ro‘yobga chiqishida yordam beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. E.R. Qudratov Yengil atletika(1999).
2. Jilkin A. Kuzmin V.S.Sidorchuk Ye.V. Legayka atletika(akademiya 2009).
3. Robpijon Qudratov Yengil atletika (2007).

YUNON-RUM KURASHIDA TAYYORGARLIK HARAKATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA TEXNIK USULLARNI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI

Usmonov Sanjar Elbek o‘g‘li *- O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘qituvchisi*

Karimberdiyev Doniyor Erkin o‘g‘li *- O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘qituvchisi*

,

E-mail: *karimberdiyevdoniyor62@gmail.com*

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada yunon-rum kurashi bilan shug‘ullanayotgan sportchilarning texnik usullarni muvaffaqiyatli bajara olishiga tayyorgarlik harakatlarining ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy tajriba asosida texnik ko‘rsatkichlarga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularni takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: yunon-rum kurashi, texnik usullar, tayyorgarlik harakatlari, koordinatsiya, reaksiya tezligi, metodika.

KIRISH. Kurash insoniyat tarixidagi eng qadimiy sport turlaridan biridir. Yunon-rum kurashi esa xalqaro sportning muhim turlaridan bo‘lib, olimpiyada o‘yinlarining ajralmas qismidir. Bugungi kunda sportchilarning muvaffaqiyati ularning faqat jismoniy kuchida emas, balki texnik-taktik va psixologik tayyorgarligida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu maqolada aynan texnik usullarni samarali bajara olishga ta’sir etuvchi tayyorgarlik harakatlarining rolini yoritishga harakat qilamiz.

1. Texnik usullar va ularni bajarishdagi asosiy omillar. Texnik usul bu — sportchining raqib ustidan ustunlikka erishish uchun amalga oshiradigan harakati. Yunon-rum kurashida bu harakatlar turli ko‘rinishlarda bo‘lib, ular muvozanatni buzish, ag‘darish, ko‘tarish va yerga bosish kabi elementlardan iborat.

Quyidagi jadvalda asosiy texnik usullar va ularning bajarilishiga ta’sir etuvchi tayyorgarlik harakatlari ko‘rsatilgan:

№	Texnik usul	Zarur tayyorgarlik harakati	Maqsad
1	Belga olish va tashlash	Orqa mushak mashqlari	Raqibni yerdan uzish
2	Yon ag‘darish	Koordinatsiya mashqlari	Raqib muvozanatini buzish

№	Texnik usul	Zarur tayyorgarlik harakati	Maqsad
3	Ko‘krakdan ko‘tarib tashlash	Yelka kuchi va muvozanat	Kuchli tashlash
4	Tirsakdan burab aylantirish	Bilak kuchi, elastiklik	Qarshi harakatni yo‘qqa chiqarish
5	Pastga tortib yerga yotqizish	Reaksion tezlik va tizzadan kuch	Raqibni tezlik bilan yotqizish

EKSPERIMENTAL TAHLIL. Tadqiqotda 20 nafar sportchi 2 ta guruhga bo‘linib, 3 oy davomida nazorat va tajriba asosida mashg‘ulotlar olib bordi:

- **Nazorat guruhi (NG):** An’anaviy mashg‘ulotlar.
- **Tajriba guruhi (TG):** Har bir texnik usulga mos tayyorlovchi mashg‘ulotlar qo‘llanildi.

Jadval – Texnik usullardagi o‘zgarishlar:

Ko‘rsatkich	NG (boshlanish)	NG (yakun)	TG (boshlanish)	TG (yakun)
Texnik harakat aniqligi	68%	72%	69%	85%
Samarali texniklar (%)	55%	59%	56%	77%
Reaksiya vaqti (sek)	0.68	0.65	0.67	0.52
Tana muvozanati nazorati	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	Yaxshi

ILMIY YANGILIK. Mazkur tadqiqot orqali shunday xulosa qilindi: har bir texnik usulni to‘g‘ri bajarishdan oldin unga mos tayyorgarlik harakati bajarilishi zarur. Bu metodika sportchining texnik natijalarini 20% dan ortiq oshiradi.

AMALIY AHAMIYATI. Ushbu metodik yondashuvni sport maktablari, o‘quv mashg‘ulotlar, terma jamoalardagi tayyorgarlik dasturlariga integratsiya qilish orqali texnik samaradorlikni keskin oshirish mumkin. Bu esa yuksak sport natijalariga erishish imkonini beradi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tayyorgarlik harakatlarini hisobga olgan holda tuzilgan mashg‘ulot dasturi sportchilarning texnik harakatlarni bajarish aniqligi, samaradorligi va reaksiya tezligida sezilarli o‘sishlarga olib keladi. Bu usulni amaliy mashg‘ulotlarga keng joriy etish katta natijalarga erishishga sabab bo‘ladi.

TAVSIYALAR.

1. Har bir texnik usul uchun alohida tayyorlovchi mashqlar tizimi ishlab chiqilsin.
2. Sport mashg‘ulotlariga koordinatsiya, tezlik va muvozanatni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar kiritilsin.
3. Treninglardan oldin qisqa reaksiya va elastiklik mashqlari muntazam bajarilsin.
4. Video-tahlillar asosida texnik usullarni mukammallashtirish yo‘lga qo‘yilsin.
5. Ushbu tadqiqot asosida yangilangan metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilsin va sport maktablarida joriy etilsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov N. “Kurash nazariyasi va metodikasi”, Toshkent, 2019.
2. Sharipov J. “Sportchilarni jismoniy tayyorlash asoslari”, Samarqand, 2021.
3. Mavlonov B. "Sportda nazariy va amaliy yondashuvlar", Toshkent, 2020.
4. Jabborov S. “Yunon-rum kurashining zamonaviy texnikasi”, Samarqand, 2018.
5. Olympic Wrestling Coaching Guide, UWW Publications, 2021.
6. Platonov V.N. “Podgotovka sportsmena v olimpijskom sporte”, Kiev, 2015.
7. Тарасов Е.А. «Греко-римская борба: техника и методика», Москва, 2020.
8. Bompa T., Haff G. “Periodization: Theory and Methodology of Training”, Human Kinetics, 2018.
9. G‘ulomov S. “Yunon-rum kurashining uslubiy asoslari”, Andijon, 2020.
10. UWW Official Rules & Training Programs, 2023.
11. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi metodik nashrlari, 2022.
12. Rafiqov O. “Kurash mashg‘ulotlarining nazariy asoslari”, Toshkent, 2023.
13. International Olympic Committee. Greco-Roman Wrestling Fundamentals. 2020.

ERKIN KURASHCHILAR TAYYORGARLIGIDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Karimberdiyev Doniyor Erkin o‘g‘li - o‘qituvchisi, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
E-mail: karimberdiyevdoniyor62@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada erkin kurashchilar tayyorgarligida jismoniy sifatlarni — kuch, chidamlilik, tezlik, chaqqonlik va muvozanatni rivojlantirishning metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mashg‘ulotlar jarayonida samaradorlikni oshirishga qaratilgan usullar ko‘rib chiqilgan. Ilmiy va amaliy tavsiyalar orqali kurashchilarni yuqori sport natijalariga erishishiga zamin yaratiladi.

Kalit so‘zlar: erkin kurash, jismoniy sifatlar, mashg‘ulotlar metodikasi, sport tayyorgarligi, chidamlilik, kuch.

Kirish. Erkin kurash – jismoniy kuch, texnik mahorat va taktik tafakkurni talab qiluvchi murakkab sport turi hisoblanadi. Har bir sportchi yuqori natijalarga erishishi uchun jismoniy sifatlarini muntazam rivojlantirib borishi muhim. Ayniqsa, kuch, chidamlilik, tezlik, chaqqonlik va muvozanat kabi sifatlar sportchining musobaqa natijalariga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, mazkur maqolada aynan shu jismoniy sifatlarni rivojlantirishning metodik asoslari yoritib beriladi.

Asosiy qism. 1. Erkin kurashda jismoniy sifatlarning ahamiyati

- Kuch – kurashchilarning raqib ustidan ustunlikka erishishida asosiy omil.
- Chidamlilik – uzoq davom etadigan bahslar vaqtida kuchni tejash va bir xil intensivlikni saqlash imkonini beradi.
- Tezlik va chaqqonlik – raqibning harakatiga tez javob qaytarish va samarali hujumni amalga oshirish uchun muhim.
- Muvozanat – kurash paytida yiqilmaslik va o‘z holatini nazorat qilishga yordam beradi.

2. Tayyorlov mashg‘ulotlari metodikasi

Mashg‘ulotlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Bosqichma-bosqich yondashuv – murakkablikni oshirib borish.
- Individual yondashuv – sportchining yoshiga, salomatligiga va tayyorgarlik darajasiga moslashtirish.

- Ko‘p takrorli mashqlar – har bir jismoniy sifat uchun maxsus mashqlar to‘plami.

Misol uchun:

- Kuchni rivojlantirish: shtangani ko‘tarish, tortilish, itarish mashqlari.
- Chidamlilik: yugurish, interval yuklamalar, maxsus stansiya uslubidagi mashg‘ulotlar.
- Tezlik va chaqqonlik: reaksiya mashqlari, “start-stop” yugurishlar.
- Muvozanat: to‘siqlardan yurish, fitbol bilan muvozanat mashqlari.

3. Amaliy tavsiyalar

- Mashg‘ulotlar haftasiga kamida 4–5 marotaba o‘tkazilishi kerak.
- Har bir sifatni alohida kunlarda mashq qilish – ortiqcha yuklanishni oldini oladi.
- Sportchi sog‘lig‘ini monitoring qilish va tiklanish mashqlarini rejalashtirish zarur.

Xulosa.Erkin kurashchilar uchun jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish ularning umumiy sport ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qiladi. To‘g‘ri tanlangan mashg‘ulot metodikasi nafaqat sport natijalarini yaxshilaydi, balki jarohat olish xavfini kamaytiradi. Shuning uchun har bir murabbiy sportchining individual xususiyatlarini hisobga olib, ilmiy asoslangan mashg‘ulot tizimini shakllantirishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov R. "Kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi", Toshkent, 2021.
2. Назаров В.П. "Физическая подготовка спортсменов", Москва, 2020.
3. International Wrestling Federation Guidelines, UWW, 2023.
4. Mahmudov A. "Sport mashg‘ulotlarining nazariyasi va metodikasi", Toshkent, 2022.
5. Bompa T. "Periodization of Training for Sports", Human Kinetics, 2019.

GANDBOL SPORT TURI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI SPORTCHILARNING OVQATLANISH GIGIYENASI

S.X.Xabibullayev *- CHDPU.,dotsent v.b.*
xabibullayevsamandar931@gmail.com

Mannobjonova O.M., Karimbayeva I.M., Nigmatillayeva R.S. *-CHDPU.*

1-kurs talabalari

Annotatsiya. Ushbu tezisda gandbolchilarning mashgu’lot va musobaqalar vaqtida to‘gri ovqatlanishi hamda sarf etilgan energiyani oziq-ovqatlar istemol qilish orqali qayta tiklash haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Oziq-ovqat, energiya, oqsil, yog‘, karbonsuv, umumiy, kaloriya, tiklanish, ratsional, tayyorgarlik, musobaqa.

Kirish. Yosh avlodni sport bilan shug‘ullanishi, sog‘lom turmush tarziga amal qilishi, ma`naviy va jismoniy kamolga intilish – Vatanga mehr-muhabbat, o`z yurti bilan g‘ururlanish ruhida tarbiyalash ishlari asosiy yo`nalish sifatida belgilanadi.

O`zbekistonda bolalar ommaviy sportini rivojlantirishni ta`minlash maqsadida, joylarda sport muassasalarining barpo etilishi, yangi-yangi sport turlaridan to`garaklar faoliyatining yo`lga qo`yilishi, ularning tegishli jihozlar va malakali sport murabbiylari bilan ta`minlanishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanayotgan bolalar va o`smirlar soni yildan-yilga ortib borishiga asos bo`lmoqda.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishini ilmiy asosda ta’minlash masalalariga juda katta e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, bu borada mazkur yo`nalishga oid fanlarni rivojlantirish, sport va jismoniy tarbiya tadbirlarini ilmiy asosda tashkil etish, ilmiy infrastrukturani rivojlantirish hamda ushbu jarayonlarda ilm-fan yutuqlari va sport sohasidagi ilg‘or jahon tajribasiga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, milliy genafondni yanada sog‘lom-lashtirish, barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo`nalish-laridan biri deb belgilangan. Qisqa muddatda bu sohada olib borilgan keng ko`lamli amaliy harakatlar o`z samarasini bera boshlagan. Sport musobaqalarining o`tkazila boshlaganligi ko`p sport turlari qatorida gandbol sportini ham respublikamizda rivojlanishiga asos bo`lmoqda.

Ovqatlanish. Gandbol sport turida ovqatlanish shunday tashkil etilishi kerakki, sportchining bir kunda sarf etgan energiyasi o`rni oziq-ovqatlar bilan

to`ldirilishi kerak. Mashq mashg‘ulotlari vaqtida gandbol sportchilarida o`rtacha bir kun va bir tunda bir kg tana massasiga o`rtacha 63-67 kkal tashkil etadi. Asosiy ozuqa moddalariga bo`lgan talab bir kunda bir kg tana massasiga: oqsil 2,3-2,4 *g*, yog‘ 1,8-1,9 *g*, karbonsuvlar 9-10 *g*. Ozuqa moddalari xilma-xil bo`lib, biologik tomondan yuqori baholi bo`lishi lozim: sut va sut mahsulotlari, go`sht va go`sht mahsulotlari, sabzavot va mevalardan iborat bo`lishi kerak. Bir kunlik ovqat hajmi o`rtacha 3,0-3,5 kg. Mashq mashg‘ulotlari va musobaqalar oldidan yuqori quvvatli, kam hajmli va yaxshi o`zlashtiriladigan bo`lishi lozim.

Bir kunlik ovqatlanish tartibini sportchilarning umumiy kun tartibi bilan kelishtirib tuzish lozim. Kun davomida 4 marta ovqat qabul etish maqsadga muvofiqdir. Musobaqa vaqtlarida ovqat qabul etish tartibini keskin o`zgartirish mumkin emas. O`yindan so`ng ozuqa moddalarini karbonsuvlar bilan boyitish lozim, katta miqdordagi yog‘larni iste’mol qilmagan ma’qul. Tayyorgarlikning har xil bosqichlarida quyidagi ovqat va ichimlik moddalar tavsiya etiladi.

1. Asosiy tayyorlov bosqichida: oqsil – 200 *gr*, umumiy kaloriyasi 14%, yog‘lar – 155 *gr*, umumiy kaloriyasi 28%, karbonsuvlar – 700 *gr*, umumiy kaloriyasi 56% ni tavsiya etib, u 5000 kkal energiya beradi yoki 230 *gr* oqsil, umumiy *kkal* 16%; 186 *gr* yog‘, umumiy kaloriyasi 28%; 840 *gr* karbonsuv, umumiy kaloriyasi 56% va bu 6000 *kkal* energiya beradi.

2. Juda kuchli mashq mashg‘ulotlarida tavsiya etiladi: oqsil – 260 *gr*, umumiy kaloriyasi 15%; yog‘lar – 217 *gr*, umumiy kaloriyasi 27%, karbonsuvlar – 1000 *gr*, umumiy kaloriyasi 58% ni tashkil etadi va bu 7000 *kkal* energiya beradi.

3. Musobaqadan oldingi tayyorlov bosqichida tavsiya etiladi: oqsil – 200 *gr*, umumiy kaloriyasi 14%, yog‘lar, umumiy kaloriyasi 28%, karbonsuvlar – 700 *gr*, umumiy kaloriyasi 56% ni tashkil etib, 5000 *kkal* energiya beradi yoki oqsil – 260 *gr*, umumiy kaloriyasi 15%, yog‘lar – 217 *gr*, umumiy kaloriyasi 27%, karbonsuvlar – 1000 *gr*, umumiy kaloriyasi 58% ni tashkil etadi va bu 7000 *kkal* energiya beradi.

4. Musobaqa bosqichida tavsiya etiladi: oqsil – 200 *gr*, umumiy kaloriyasi 14%, yog‘lar – 155 *gr*, umumiy kaloriyasi 25%, karbonsuvlar – 700 *gr*, umumiy kaloriyasi 56% yoki oqsil – 230 *gr*, umumiy kaloriyasi 16%, yog‘lar – 186 *gr*, umumiy kaloriyasi 28%, karbonsuvlar – 840 *gr*, umumiy kaloriyasi 56% ni tashkil etadi va bu 6000 *kkal* energiya beradi.

5. Tiklanish bosqichida tavsiya etiladi: oqsil – 180 *gr*, umumiy kaloriyasi 17%, yog‘lar – 124 *gr*, umumiy kaloriyasi 28%, karbonsuvlar – 560 *gr*, umumiy kaloriyasi 55% ni tashkil etib, 4000 *kkal* energiya beradi yoki oqsil – 200 *gr*, umumiy kaloriyasi 28%, karbonsuvlar – 700 *gr*, umumiy kaloriyasi 56% ni tashkil etadi va 5000 *kkal* energiya beradi.

Xulosa. Ratsional ovqatlanish gandbolchiga mustahkam salomatlikka, kuch va energiya zahirasiga ega bo`lishga yordamlashadi. To`g‘ri ovqatlanish, ayniqsa o`z natijalarini yaxshilamoqchi bo`lgan sportchilar uchun juda muhimdir.

Gandbolchilar uglevodlarga boy, oqsili kam bo`lgan diyetada mashqlarni yaxshi bajaradilar. Ratsional ovqatlanish sportchining qobiliyatini oshirish va toliqishlarni oldini olishning asosiy usullaridan biridir. Ovqatlanish tartibi va tavsifini buzish sport natijalari pasayishi sababining asosiy omili bo`lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SH.F.To`laganov., M.M.Raxmanova. “Gandbol nazariyasi va uslubiyati” darslik. Toshkent 2020. – B. 185-186 .
2. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.E. “Gandbol nazariyasi va uslubiyati” darslik. Toshkent 2017. – B. 214-216 .
3. Xabibullaev S.X. Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi (Gandbol). O‘quv qo‘llanma. “Nazokathon ziyo print" nashriyoti. Toshkent, 2023.

FUTBOL O‘YINIDA TEXNIK USUL VA TAKTIK HARAKATLARGA O‘RGATISH BOSQICHLARI

S.X.Xabibullayev - CHDPU.,dotsent v.b.

xabibullayevsamandar931@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarga o‘rgatish bosqichlarining maqsadi, vazifalari va uslublari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Dastlabki, chuqur, mustahkamlash, takomillashtirish, taktik, texnik, tayyorgarlik, bosqich, o‘rgarish, stereotip, yaxlit, kinematik, dinamik.

Kirish:. Ko‘p yillik mashg‘ulotning barcha bosqichlarida texnik usullar va taktik harakatlarga o‘rgatish jarayoni uzluksiz davom etadi. Maqsadga muvofiq texnikaning barcha tomonlarini biomexanika qonunlaridan foydalanish asosida va shug‘ullanuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda puxta o‘zlashtirish o‘yin faoliyatining murakkab sharoitlarida texnikaning muvaffa-qiyatli qo‘llanishini oldindan belgilab beradi. Mukammal o‘yin ko‘nikmalarining shakllanishi yosh futbolchilarning yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarligiga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-son “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 16-martdagi PQ-3610-son

“Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va srort sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’, 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son “Ommaviy va rrofessional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tezisda muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘qitish jarayonining tuzilishi.

Alohida texnik usul va taktik harakatni o‘rganish quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

- dastlabki o‘rganish;
- chuqur o‘rganish;
- mustahkamlash va yanada takomillashtirish.

Har bir bosqich bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, shu xususiyatlarni hisobga olgan holda konkret vazifalar qo‘yiladi va o‘qitish (o‘rgatish) ning ratsional uslubi tanlanadi.

Dastlabki o‘rganish. Bu bosqichning asosiy maqsadi - o‘rgatilayotgan usul yoki harakat asoslarini o‘zlashtirib olish.

Konkret bir harakatni uning asosiy variantida bajarish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi dastlabki urinishlar bosh miya qobig‘ida dinamik stereotip hosil qilishga qaratilgan va bosh miya qobig‘idagi nerv jarayonlarining irradiasiyasi bilan xarakterlanadi. Bolalarda ichki tormozlanish etarlicha rivojlanmagan bo‘ladi. Bularning hammasi ko‘pincha o‘rganilayotgan harakatning kinematik va dinamik xarakteristikalarining noaniq esga tushirilishiga, uning ritmining beqarorligiga. Kerak bo‘lmagan qo‘shimcha harakatlarga sabab bo‘ladi.

Mazkur bosqichning asosiy vazifasi - shug‘ullanuvchilarda bajarilayotgan harakat va shu harakat asosiy elementlarining yaxlit tasavvurini (ko‘rish orqali) va harakat sezgisini paydo qilish, harakat ko‘nikmalarini shakllantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda hal etiladi.

Harakatni dastlabki o‘rganish u bilan tanishishdan boshlanadi. Bunga uslublar kompleksi yordamida erishiladi. Og‘zaki tushuntirish, ko‘rsatish va mashq uslublaridan foydalaniladi. Og‘zaki tushuntirishda harakatning aniq terminologik nomi beriladi, uning ahamiyati va o‘yin sharoitlarida qo‘llaniladigan o‘rni haqidagi ma’lumotlar aytiladi, bajarish prinsiplari tushuntiriladi. Bolalar diqqat- e’tiborining beqarorligi, hajmi esa kichikligi sababli tushuntirish aniq, qisqa va obrazli bo‘lishi kerak.

Ikkinchi signal sistemasi orqali hosil qilinadigan ko‘ruv tasavvurlari ko‘rsatmalilikni ta’minlash uslublaridan foydalanish bilan to‘ldiriladi. Bular

birinchi signal tizimi orqali ta’sir etib, o‘rganilayotgan harakatlarning konkret obrazlarini hosil qilishga yordam beradi. Bevosita namoyish qilish (ko‘rsatish) ko‘rsatmalilikni ta’minlashning asosiy uslubidir. Namoyish qilish faqat tashqi formasi bo‘yichagina namunali bo‘lishi kerak emas. Harakatning muvaqqat, fazoviy va kuch xarakteristikalarini optimal ravishda qayta esga olib boriladi. Bu esa harakatning tez va puxta idrok qilinishini ta’minlaydi.

Harakat sezgilarini hosil qilish uchun mashq uslublaridan foydalaniladi. O‘rganilayotgan harakat nisbatan doimiy va soddalashtirilgan sharoitda esga tushiriladi. Futbol o‘yini texnikasi va taktikasini o‘rgatishda ko‘proq yaxlit mashq uslubidan foydalaniladi, chunki harakatlarni bo‘laklarga bo‘lib yuborish ko‘pincha ularning mohiyatini qo‘pol ravishda buzishga olib keladi

Takrorlash me’yorini aniqlashda yangi, koordinatsion jihatdan murakkab mashqlar yosh futbolchilarda tegishli nerv markazlarining charchashiga sabab bo‘lishini hisobga olish lozim. Shuning uchun mazkur bosqichda mashqlarni seriyali takrorlash juda samarali bo‘ladi. O‘rganuvchilar har birida 8-10 ta takrorlashi bo‘lgan 2-3 seriyani bajaradilar. Seriyalar oralig‘idagi intervallar dam olish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Ulardan zarur fikrlarni aytish va mashqni takroriy ko‘rsatish uchun ham foydalanish mumkin. Yangi materialni o‘rganish keyingi 3-5 ta dars mobaynida davom ettiriladi.

Chuqur o‘rganish. Bu bosqich texnik va taktik harakatlarning yanada mustahkamlanishi va o‘rganilayotgan harakat detallarining chuqurroq aniqlashtirilishi bilan xarakterlanadi. Usul yoki harakatni o‘zlashtirib olish jarayonida dastlabki ko‘nikmalar takomillashadi, texnik usullar ham, taktik harakatlar ham to‘g‘ri, aniq, bemalol bajarila boshlanadi.

Chuqur o‘rganish bosqichini shug‘ullanuvchilarning harakat sezgilarini ongli ravishda baholay olishi va joyni idrok qila bilishi o‘rgatish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa mufassal (batafsil) so‘zlab berish va suhbat, harakatlarni tushuntirish va chuqurroq tahlil qilish, o‘z-o‘zini tekshirish, hisobot berish va shu kabi og‘zaki uslublarni qo‘llash imkonini beradi. Bevosita ko‘rsatish ko‘rsatma qurollar: foto va kinomateriallar, plakatlar, rasmlar, sxema va hokazolardan keng foydalanish bilan to‘ldiriladi. Harakatning borishi va uning asosiy parametrlari haqida zudlik bilan axborot berishning xilma-xil vositalari keraklicha samara beradi.

Mazkur bosqichda asosan yaxlit mashqlardan foydalaniladi. Bu mashqlar qat’iy bir maqsadga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bir xilda (bir xil sharoitda, bir maqsadni ko‘zda tutuvchi, harakat parametrlari bir xil) bo‘lgan takrorlashlar soni kamayadi. O‘zgaruvchan takrorlashlar soni ancha oshiriladi. Mashq o‘rganilayotgan vaziyat sharoitlari almashtiriladi va murakkablashtiriladi. Mashqni

bajarish vazifalari o‘zgartiriladi. Bu hol harakat formalari va xarakterining, ularning fazoviy vaqt va kuch xarakteristikalarining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. O‘rganilayotgan harakatlarni maksimal tezlik va kuch-g‘ayratga yaqin tezlik va kuch-g‘ayrat bilan bajarishga urinib ko‘riladi. Bunda texnik va taktik harakatlar bajarilish vaqtida buzilmasligi, mo‘ljallangan aniqlik esa yo‘l qo‘yilgan chegarada bo‘lishi muhimdir. Bir qolipdagi o‘zgaruvchan takrorlashlar nisbati taxminan 30 va 70% ni tashkil etadi.

Harakat amallarining ko‘p variantlarda bajarilishi turli xil analizator tizimlarining faoliyatiga oshirilgan talablar qo‘yadi va bajarilayotgan harakatlar to‘g‘risida aniq tasavvurlarning hosil bo‘lishiga yordam beradi.

Bir darsdagi takrorlashlar soni oshiriladi. O‘rganilayotgan harakat 10-12 daqiqa davomida takrorlanadi, shundan so‘ng 3,5-5 daqiqa boshqa mashqlar bajariladi. O‘yin mashqlarini boshqa mashq tarzida qo‘llash ancha samaralidir. So‘ngra yana o‘shancha vaqt davomida harakatni ko‘p marta takrorlash lozim.

Darslar tizimida chuqur o‘rganish katta intervallar bilan olib borilishi mumkin. Bu darsga yangi material kiritish imkonini beradi.

Mazkur bosqichda o‘yin va musobaqa uslublaridan keng foydalaniladi, bular alohida emotsional fon yaratadi, mashqlarning ta’sirini kuchaytiradi va o‘qitish jarayonini faollashtiradi.

Mustahkamlash va yanada takomillashtirish.

Bu bosqichning asosiy vazifasi - o‘zlashtirib olingan harakatlarni yanada mustahkamlash va turli xil o‘yin sharoitlarida ularni qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilish. Mazkur bosqichda jismoniy tarbiya uslublarining barcha komplekslaridan foydalaniladi.

Xulosa. Ko‘p yillik mashg‘ulotning barcha bosqichlarida texnik usullar va taktik harakatlarga o‘rgatish jarayoni uzluksiz davom etadi. Har bir bosqich bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, shu xususiyatlarni hisobga olgan holda konkret vazifalar qo‘yiladi va o‘qitish (o‘rgatish) ning ratsional uslubi tanlanadi.

Dastlabki o‘rganish. Bu bosqichda o‘rgatilayotgan usul yoki harakat asoslarini o‘zlashtirib olish, shug‘ullanuvchilarda bajarilayotgan harakat haqida yaxlit tasavvur paydo qilinadi.

Chuqur o‘rganish. Bu bosqich texnik va taktik harakatlarning yanada mustahkamlanishi va o‘rganilayotgan harakat detallarining chuqurroq aniqlashtirilishi bilan xarakterlanadi. Usul yoki harakatni o‘zlashtirib olish jarayonida dastlabki ko‘nikmalar takomillashadi, texnik usullar ham, taktik harakatlar ham to‘g‘ri, aniq, bemalol bajarila boshlanadi. Mazkur bosqichda asosan yaxlit mashqlardan foydalaniladi.

Mustahkamlash va yanada takomillashtirish. Bu bosqichda o‘zlashtirib olingan harakatlarni yanada mustahkamlash va turli xil o‘yin sharoitlarida ularni

qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nurimov R.I. Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik.-T.: 2015.-218 b.
2. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik-taktik tayyorlash. O‘quv qo‘llanma.-T.: 2005.-15-68 b.
3. Kuryazov R. Yosh futbolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi. Uslubiy qo‘llanma. -Toshkent.: O‘zDJTI, 2012. 11-22-b.
4. Qutlimuratov I.X Sport pedagogik mahoratini oshirish. Futbol o‘quv qo‘llanma –Chirchiq “ O‘zdjtsu-2022 yil 162-b.
5. Xabibullayev S.X. Futbol va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. "Zebo print" nashriyoti. Toshkent, 2024.

YOSH FUTBOLCHILARNI AXLOQIY XISLATLARINI TARBIYALASH ORQALI ULARNING ISHCHANLIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Suyunov Abrorbek Baxtiyor o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: suyunovabrorbek14@gmail.com

Annotatsiya.Mazkur maqola yosh futbolchilarni axloqiy hislatlarini tarbiyalash masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada futbolchilarning jismoniy va texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning axloqiy qadriyatlar va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Yosh futbolchilarga halollik, adolat, jamoaviy ruh, mas'uliyat va sportdagi fair-play kabi axloqiy me'yorlarni o‘rgatish orqali, ularning sportdagi muvaffaqiyatlari nafaqat jismoniy mahoratga, balki axloqiy jihatdan to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga ham bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi. Maqolada yosh futbolchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashning metodlari, shu jumladan murabbiyning namuna bo‘lishi, ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash, jamoaviy ishni rivojlantirish kabi muhim jihatlar muhokama qilinadi. Shuningdek, bunday tarbiya jarayonining futbolga ta'siri, uning sportchilarni muvaffaqiyatli va ma'naviy barqaror shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qilishi haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so‘zlar: yosh futbolchilar, axloqiy hislatlar, axloqiy tarbiya, halollik, sportda fair-play, jamoa ruhini rivojlantirish, sport va axloq, motivatsiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy tarbiya, murabbiyning roli.

Kirish.Futbol, jismoniy kuch va mahoratni talab qiladigan sport bo‘lib, bu sport turi orqali nafaqat atletik ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki axloqiy va ma'naviy fazilatlarni ham shakllantirish muhimdir. Yosh futbolchilarni tarbiyalash jarayonida, ularning faqat sportdagi muvaffaqiyatlariga emas, balki ularning shaxsiy xarakterini va jamiyatga nisbatan mas'uliyatini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Bu maqolada yosh futbolchilarni axloqiy hislatlarini tarbiyalashning zaruriyati, metodlari, shuningdek, bunday tarbiya jarayonining futbolga ta'siri haqida keng tahlil olib boriladi. Futbol o‘yinlari faqat texnik va jismoniy mahoratni rivojlantirish bilan chegaralanmaydi. Yosh futbolchilarni tarbiyalashda ularning axloqiy qadr-qimmatlari, hayotga bo‘lgan qarashlari, o‘zaro munosabatlari va ijtimoiy mas'uliyatlari shakllanishi zarur. Axloqiy hislatlar, sportda, ayniqsa, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda, jamoadagi muvozanatni saqlashda va raqobat muhitida halol bo‘lishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh futbolchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularga ijtimoiy hayotda ham yuksak mas'uliyat, adolat va ehtiyotkorlikni o‘rgatish imkonini beradi. Futbolchilar uchun eng muhim tarbiyaviy omillardan biri murabbiyning o‘z xatti-harakatlari va axloqiy pozitsiyasidir. Murabbiy yosh futbolchilarga o‘rnak bo‘lishi lozim: ular to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, sportda halollikka rioya qilish va yuksak me'yorlarga amal qilishni ko‘rsatib berishlari zarur. Murabbiy o‘zining harakatlari bilan yosh futbolchilarni o‘rganishga, hurmat qilishga va mas'uliyatni his qilishga undashi kerak. Futbol o‘yinlari, raqobatga asoslanganligi uchun, yosh futbolchilarni adolatli o‘ynashga va sport ruhiga sodiq bo‘lishga o‘rgatish juda muhimdir. Yosh futbolchilarga o‘yinlarda g‘alaba qozonishdan ko‘ra, halollik, adolatli raqobat va professional yondashuvning qadrini bilishlarini o‘rgatish lozim. Fair-playni tarbiyalash orqali ularda o‘zaro hurmat, raqibni qadrlash va o‘z o‘rinlarini jamoadoshlariga bo‘lish kabi qadr-qimmatlar shakllanadi.

Yosh futbolchilarda ijtimoiy va psixologik salohiyatni rivojlantirish ham juda muhimdir. Psixologik qo‘llab-quvvatlash, motivatsiya va o‘z-o‘zini anglash yosh futbolchilarning axloqiy rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Bunday metodlar o‘yinchilarni ruhiy barqaror qilish, stressni boshqarish va o‘zlarining hissiy holatlarini tanqidiy baholash imkonini beradi.

Futbol – jamoaviy sport, shuning uchun yosh futbolchilarni jamoa ishiga yondashishni o‘rgatish muhimdir. Jamoa ruhini rivojlantirish, har bir futbolchining o‘z o‘rnini yaxshi tushunishi va jamoa uchun g‘alaba qozonishda birlashish zarur. Jamoa ichidagi munosabatlar, o‘zaro hurmat, bir-biriga yordam berish va mas'uliyatni o‘z zimmalariga olish yosh futbolchilarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

Yosh futbolchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda tarbiyaviy o‘yinlar va treninglar orqali ular o‘zlarining axloqiy me'yorlarini sinab ko‘rishlari mumkin. Shu tarzda ularni harakatlarida mas'uliyatni his qilish, do‘stona va adolatli raqobat qilish kabi fazilatlar shakllanadi. Bu o‘yinlar orqali ular shaxsiy qarorlar qabul qilishda, yomon va yaxshi harakatlar orasida farqni aniqlashda o‘zlarini sinovdan o‘tkazadilar.

Yosh futbolchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalash ularning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘yinlarda ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi. Muvaffaqiyatni faqat texnik ko‘nikmalar bilan bog‘lamasdan, halol va jamoaviy ruhdagi o‘yinni rivojlantirish ularning motivatsiyasini oshiradi. Axloqiy jihatdan rivojlangan futbolchilar jamoa ichida to‘g‘ri munosabatlar o‘rnatadilar. Jamoada ijtimoiy mas'uliyatni his etish va bir-birini tushunish, sportdagi muvaffaqiyatning asosiy sharti hisoblanadi. Jamoa ichida g‘alaba faqat individual mahoratga emas, balki umumiy ruhiy kuchga ham bog‘liqdir. Yosh futbolchilarda axloqiy qadriyatlar rivojlanishi sportdagi adolatni ta'minlashga yordam beradi. Halol raqobat, har bir o‘yinchining o‘z o‘rnini va mehnatini qadrlash, raqibni hurmat qilish kabi qadriyatlar yosh futbolchilarda shakllanadi. Bu, nafaqat sportda, balki jamiyatda ham yuksak axloqiy me'yorlarni tarqatadi.

Xulosa. Yosh futbolchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning shaxsiy rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Bu, faqat sportdagi muvaffaqiyatni emas, balki ularning ijtimoiy va ma'naviy qadr-qimmatlarini shakllantirishga ham yordam beradi. Yosh futbolchilarga axloqiy me'yorlarni o‘rgatish, nafaqat ularga o‘z faoliyatlarida muvaffaqiyat keltiradi, balki ular jamiyatda mas'uliyatli va vatanparvar insonlar bo‘lib yetishishlariga imkon yaratadi. Shu sababli, murabbiylar, sport tashkilotlari va ota-onalar yosh futbolchilarni tarbiyalashda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akhmedov A., "Futbol va axloqiy tarbiya," Tashkent, 2023.
2. Mirodilov B., "Sportda axloqiy va psixologik yondashuvlar," Toshkent, 2022.
3. Salimov G., "Yoshlarni sportga tayyorlashda axloqiy fazilatlarning o‘rni," Sport pedagogikasi, 2021.
4. Toshpulatov R., "Futbol va ijtimoiy tarbiya," Tashkent, 2024.

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI 10-12 YOSHLI YENGIL ATLETIKLACHILAR JISMONIY QOBILIYATLARINING UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIK JARAYONLARIDAGI AHAMIYATI

Suyunov Abrorbek Baxtiyor o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: suyunovabrorbek14@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola 10-12 yoshli boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yengil atletikachilarni jismoniy tayyorgarlik jarayonida umumiy va maxsus jismoniy qobiliyatlarning o‘rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada yosh atletlar uchun jismoniy tayyorgarlikning barcha bosqichlari muhim ekanligi, ayniqsa, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning rivojlanishi ularning kelajakdagi sport muvaffaqiyatlari uchun asos bo‘lishi ta'kidlanadi. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi sportchilar uchun umumiy jismoniy tayyorgarlikning asosiy maqsadi jismoniy qobiliyatlarni to‘g‘ri rivojlantirish va bu orqali maxsus tayyorgarlikning poydevorini yaratishdir. Shuningdek, maxsus jismoniy tayyorgarlikning yosh sportchilarni yengil atletika musobaqalariga tayyorlashdagi muhim roli va metodlari ko‘rib chiqiladi. Maqola yosh atletlarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun jismoniy tayyorgarlikning to‘g‘ri tashkil etilishining zarurligini va murabbiylar uchun metodologik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich tayyorgarlik, 10-12 yoshli yengil atletikachilar, jismoniy qobiliyatlar, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, sport tayyorgarligi, yengil atletika, yosh atletlar, jismoniy rivojlanish, tayyorgarlik jarayonlari, murabbiylik metodikasi.

KirishYosh yengil atletikachilarning muvaffaqiyatli sport faoliyatini davom ettirishida jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati katta. 10-12 yoshdagi sportchilar uchun tayyorgarlikning boshlang‘ich bosqichi, ularda umumiy va maxsus jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishning poydevorini yaratadi. Bu yoshdagi sportchilarda umumiy jismoniy tayyorgarlikning asosiy maqsadi – ularning asosiy jismoniy fazilatlarini, ya'ni kuch, tezlik, chidamlilik, moslashuvchanlik va koordinatsiyani shakllantirishdir. Maxsus jismoniy tayyorgarlik esa, sportchining aniq yengil atletika yo‘nalishiga mos ravishda, maqsadga yo‘naltirilgan va musobaqalarga tayyorlovchi tayyorgarlik jarayonidir.Umumiy jismoniy tayyorgarlik, 10-12 yoshli yengil atletikachilar uchun asosiy poydevorni yaratadi. Bu bosqichda sportchilarning umumiy jismoniy holati, ya'ni kuch, tezlik, chidamlilik, moslashuvchanlik va koordinatsiya rivojlanadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlikning maqsadi — sportchilarning jismoniy kuchini yaxshilash va shu

bilan birga, maxsus tayyorgarlikning samaradorligini oshirishdir. Shuningdek, umumiy tayyorgarlik yosh atletlarning musobaqalarga tayyorlanishidagi psixologik va fiziologik barqarorlikni ta'minlaydi.Umumiy jismoniy tayyorgarlikning ba'zi metodlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:Kuch-quvvat mashqlari:.Atletlarning mushak guruhlarini kuchaytirish va umumiy jismoniy imkoniyatlarini oshirish.Tezlik va chidamlilikni oshirish. Yengil atletikachilarni tezkor va bardoshli qilishga qaratilgan mashqlar.Moslashuvchanlik va koordinatsiyani rivojlantirish.O‘z harakatlarini samarali boshqarish va kelajakda yuqori darajali sport musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish.Maxsus jismoniy tayyorgarlik, yosh sportchilarni yengil atletika musobaqalariga tayyorlashning muhim bosqichidir. Bu tayyorgarlik turi sportchining aniq yengil atletika yo‘nalishiga mos ravishda amalga oshiriladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik, yosh atletlarning ma'lum bir sport turida yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan texnik va taktik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, bu bosqichda yosh sportchilarning jismoniy holati yaxshilanadi va ular yuqori darajali musobaqalarda muvaffaqiyat qozonish uchun tayyor bo‘lishadi.Maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy usullari:Maxsus texnik mashqlar: Yengil atletikaning har bir yo‘nalishiga mos texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish.Takroriy mashqlar: Sportchilarning musobaqalar uchun zarur bo‘lgan maxsus mahorat va ko‘nikmalarini shakllantirish.Stress va raqobatga tayyorlash: Yosh atletlarni musobaqa sharoitida ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlash.Jismoniy tayyorgarlik jarayonida yosh sportchilarni psixologik jihatdan tayyorlash ham muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon, sportchilarni musobaqalar va jismoniy yuklamalar oldidan stressni boshqarish, maqsadga erishishdagi motivatsiyani oshirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashni o‘rgatadi. Yosh sportchilarda ijtimoiy va psixologik barqarorlikni rivojlantirish ularning jismoniy natijalariga bevosita ta'sir qiladi.

Xulosa 10-12 yoshli yengil atletikachilarni jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus jarayonlari bo‘yicha tarbiyalash, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun zarur bo‘lgan asosiy poydevorni yaratadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik yosh sportchilarda jismoniy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, maxsus jismoniy tayyorgarlik esa musobaqalarga tayyorlash jarayonini osonlashtiradi. To‘g‘ri tashkil etilgan tayyorgarlik jarayoni yosh atletlarning yuqori sport natijalariga erishishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, murabbiylar va sport tashkilotlari boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh yengil atletikachilarni jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus aspektlariga alohida e'tibor berishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Akhmedov, S. A.** (2020). *Yosh sportchilarni tayyorlashda jismoniy tarbiya metodlari*. Toshkent: "FAN" nashriyoti.
2. **Raxmatov, A. B.** (2019). *Yengil atletika va uning o‘quv jarayonidagi roli*. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti.
3. **Shukurov, D. M.** (2021). *Jismoniy tayyorgarlik va sport musobaqalariga tayyorlanish metodlari*. Buxoro: "Sport ilm-fan" nashriyoti.
4. **Tashkentov, M. K.** (2018). *Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh sportchilarga jismoniy tarbiya*. Tashkent: "O‘zbekiston sporti" nashriyoti.
5. **Saidov, B. S.** (2022). *Yosh atletikachilarni tayyorlashda maxsus va umumiy tayyorgarlikning ahamiyati*. Samarqand: "Samarqand" nashriyoti.

SPORT FAOLIYATIDA TADQIQOTNING TAJRIBA O‘TKAZISH USULI

Suyunov Abrorbek Baxtiyor o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: suyunovabrorbek14@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar uchun tajriba o‘tkazish usulining ahamiyati va uning qo‘llanilishiga bag‘ishlangan. Tajriba o‘tkazish usulining nazariy asoslari, uning sport psixologiyasi va fiziologiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada eksperimental tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan metodologik tamoyillar, guruhlarni shakllantirish, o‘lchovlar va natijalarni tahlil qilish kabi masalalar muhokama qilinadi. Shuningdek, sport faoliyatida tajriba o‘tkazishning amaliy ahamiyati va uning ijobiy hamda salbiy tomonlari, tajriba natijalarining ishonchliligi va ularning sport amaliyotiga qo‘llanilish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: sport tadqiqoti, tajriba o‘tkazish, ilmiy tadqiqot metodologiyasi, sport psixologiyasi, sport fiziologiyasi, empirik tadqiqotlar, eksperimental dizayn, guruhlar, o‘lchovlar, natijalarni tahlil qilish, nazorat va tajriba guruhlari

Kirish: Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, asosan, sportchilarni yanada yuqori natijalarga erishishga yo‘naltirilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida o‘tkaziladi. Sport tadqiqotlarida eng samarali usul sifatida tajriba o‘tkazish (eksperimental usul) e'tirof etilgan. Tajriba o‘tkazish usuli, odatda, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, jarayonlarni sinab ko‘rish va bilimlarni chuqurlashtirish uchun ishlatiladi. Tajriba o‘tkazish usulini qo‘llashda sportchi va murabbiylar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning ahamiyati katta, chunki

eksperimentlar real sharoitlarda amalga oshiriladi va olingan natijalar amaliyotga to‘liq mos keladi.Eksperimental tadqiqotlar asosida qurilgan sport faoliyatidagi tadqiqotlar ilmiy metodologiyaning qat'iy tamoyillariga asoslanadi. Tajriba o‘tkazish usuli, o‘zining ob'ektivligi va natijalarning ishonchliligi bilan ajralib turadi. Bunday usul yordamida nafaqat jismoniy, balki psixologik holatlarni ham o‘rganish imkoniyati mavjud. Tajriba o‘tkazish uchun quyidagi asosiy tamoyillar mavjud:

Kuzatuv va Nazorat Guruhlari: Eksperimental tadqiqotda tajriba va nazorat guruhlari ajratiladi. Tajriba guruhiga yangi metod yoki shartlar qo‘llaniladi, nazorat guruhiga esa an'anaviy sharoitda ishlash tavsiya etiladi. Bu guruhlar o‘rtasida taqqoslash orqali o‘zgarishlar va farqlar aniqlanadi.

Mustaqil va Bog‘liq O‘zgaruvchilar: Tajriba o‘tkazishda mustaqil o‘zgaruvchilar (masalan, sportchi tayyorligi, o‘quv dasturining intensivligi) va bog‘liq o‘zgaruvchilar (masalan, sport natijalari, jismoniy holatdagi o‘zgarishlar) orasidagi bog‘liqlik aniqlanadi.Guruhlarni tasodifiy ajratish orqali eksperimentning natijalarini yanada ishonchli va xolis qilish mumkin. Bu, ayniqsa, murakkab holatlarda, masalan, psixologik yoki kognitiv o‘zgarishlarni o‘lchashda zarur bo‘ladi.Mustahkam Eksperimental Dizayn. Tajriba dizayni aniq bo‘lishi kerak. Agar tadqiqotda ko‘p o‘zgaruvchilarni o‘rganilsa, ularning har biri alohida tahlil qilinadi. Mustahkam dizayn orqali natijalarning ishonchliligi oshadi.Sport faoliyatida tajriba o‘tkazish usulining bir nechta turlari mavjud:

Laboratoriya Sharoitlarida Tadqiqotlar. Sportchi yoki guruhni laboratoriya sharoitida kuzatish, o‘lchovlar va testlarni amalga oshirish orqali o‘rganiladi. Bu turdagi tadqiqotlarda odatda atrof-muhit omillari (masalan, havoning harorati yoki namligi) nazorat qilinadi. Tajriba o‘tkazishning poligon sharoitlari.Poligonlar (yopiq yoki ochiq maydonlar)da sport faoliyati sharoitlarini yaratish, real vaqt davomida o‘zgartirishlar kiritish va natijalarni sinovdan o‘tkazish. Meyoriy tadqiqotlar.Sportchilarning salomatligini, jismoniy rivojlanishini yoki psixologik holatini o‘lchashda, ayniqsa sport fiziologiyasi va psixologiyasida o‘zgartirishlar amalga oshiriladi.Tajriba o‘tkazish usulining sport tadqiqotlarida qo‘llanilishi bir qator afzalliklarni taqdim etadi.Aniq va ob'ektiv natijalar.Eksperimental usul yordamida natijalar aniq va ob'ektiv bo‘ladi. Tajriba guruhining o‘zgartirilgan sharoitlari va nazorat guruhining an'anaviy sharoitlari taqqoslanadi, bu esa sabab-oqibat munosabatlarini ko‘rsatadi.Ko‘p Takrorlanadigan Tadqiqotlar.Eksperimentlarni bir necha marta o‘tkazish, ularning natijalarining ishonchliligini tasdiqlash imkoniyatini beradi. Innovatsion Yondashuvlar.Tajriba o‘tkazish usuli yangi yondashuvlar va texnologiyalarni sinovdan o‘tkazishda samarali qo‘llaniladi, masalan, yangi trening metodlari yoki raqobatbardoshlikni oshirish texnologiyalari.Biroq, bunday tadqiqotlarning ba'zi kamchiliklari ham

salohiyatni sezilarli darajada oshiradi. Tana bo‘g‘imlaridagi harakat darajasini yuqori darajaga olib chiqish uchun mashg‘ulotlarni haftasiga 3-4 marta o‘tkazish tavsiya etiladi. Mashqlarni takrorlash soni, shuningdek, mushak guruhlarining kattaligi, cho‘zilishning davomiyligi, shuningdek, shug‘ullanuvchining yoshi, jinsi va tayyorgarlik darajasiga bog‘liq ravishda moslashtirilishi kerak. Egiluvchanligini rivojlantirish uchun amalga oshiriladigan mashqlarni avvalo yaxshi qizib, tananing terlashiga erishgunga qadar bajarish zarur, chunki bu mushaklarning jarohatlanish xavfini kamaytiradi. Mashqlar amplitudasini asta-sekin oshirish, oldin sekin, keyinchalik esa tezroq bajarish tavsiya etiladi.

Egiluvchanligini rivojlantirish uchun uyga vazifa sifatida mashqlar berish samarali bo‘ladi. Dinamik, statik va sust mashqlarni maqsadga muvofiq ravishda taqsimlash muhimdir: dinamik faol mashqlar 45-50%, statik mashqlar 15%, sust mashqlar esa 40-45%ni tashkil qilishi kerak. Bolalar bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda esa statik mashqlar sonini kamaytirib, dinamik mashqlarni ko‘proq berish tavsiya etiladi. Cho‘zilish mashqlari maksimal amplitudada bajarilishi lozim, ammo to‘satdan, o‘ta kuch bilan bajariladigan mashqlarni amalga oshirishdan saqlanish kerak. Bu mushaklarni ortiqcha zo‘riqtirmasdan, ularning samarali cho‘zilishiga yordam beradi.

Xulosa. Egiluvchanlikni tarbiyalash va takomillashtirish uchun cho‘zish mashqlaridan foydalanishning maqbul nisbatlarini, shuningdek yuklamalarning to‘g‘ri dozasini aniqlash uslubiy jihatdan muhimdir. Egiluvchanlik mashqlarini badan tarbiya mashqlari, mashg‘ulotl;arning kirish va yakunlov qismiga oz miqdorda kiritish tavsiya etiladi. Ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirishda yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak. Maqsadli ravishda egiluvchanlikni rivojlantirish 5-7 yoshdan boshlanishi kerak. 9-13 yoshdagi bolalar va o‘spirinlarda bu sifat o‘rta maktab yoshiga qaraganda deyarli 2 baravar samaraliroq rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish // O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zDJTI. – 2005. – B. 149 – 157.

2. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadkikotlar //Sport sohasidagi ilmiy tadkikotlar. – Darslik. “Zar qalam”. – 2018. – 334 b.

3. Койносов А.П. Закономерности возрастного морфофункционального развития детей на Севере при различных режимах двигательной активности: дисс. докт. мед.наук. – Курган, 2009. – 33 с.

TURLI DARAJADAGI JISMONIY RIVOJLANGAN O‘G‘IL BOLALARDA MUVOFIQLASHTIRUVCHI QOBILIYATLARNI OSHIRISH METODIKASI

Saribayev Sh.T. - Guliston davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

Abduraimova Kamola Erkin qizi - Guliston davlat pedagogika instituti

20-23 guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarni rivojlantirishda qo’llaniladigan vositalar, ushbu vositalardan foydalani metodikasi, harakatlarning murakkbligi va ulardan qanday foydalanish lozimligi xaqida so’z boradi.

Kalit so‘zlar: Muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlar, jismoniy sifatlar, muvozanat saqlash, funksiya, tezlik, chaqqonlik, muvozanat saqlash.

Trenirovka va musobaqa faoliyatining real sharoitlarida muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarning turli xillari odatda harakat sifatlari (tezlik qobiliyati, kuch qobiliyati, chidamlilik, egiluvchanlik) bilan, shuningdek, tayyorgarlikning turli tomonlari - texnik, taktik, ruhiy bilan yaqin o‘zaro aloqada paydo bo‘ladi.

Shu munosabat bilan, turli jismoniy sifatlarni rivojlantirish, texnika, taktika yoki psixologik tayyorgarlikni takomillashtirish koordinatsion jihatdan

murakkabroq bo‘lgan mashqlardan foydalanish orqali amalga oshirilsa, turli xil muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlar ham parallel ravishda takomillashtiriladi. O‘z navbatida, yo‘naltirilgan takomillashtirish, masalan, mushaklarni ixtiyoriy ravishda bo‘shashtirish qobiliyati, bevosita yoki bilvosita ishning tejamkorligi va chidamliligini oshirishga, sport texnikasini takomillashtirishga yordam beradi, harakatlar koordinatsiyasi, fazoda mo‘ljal olish qobiliyati ustida ishlash esa sportchining texnik-taktik arsenalini kengaytiradi va hokazo. Har xil turdagi muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarni ustuvor takomillashtirishning xususiy metodikalarining asosiy elementlari oldingi bo‘limlarda ko‘rib chiqilgan edi. Shuning uchun quyida metodikaning faqat ayrim umumiy qoidalari qisqacha bayon etilgan, muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarning har xil turlarini kompleks namoyon qilish va takomillashtirishga yordam beradigan umumiy rivojlantiruvchi xarakterdagi eng samarali mashqlar, shuningdek, sport turlarining turli guruhlarida - tezkor-kuch, siklik, murakkab koordinatsion, sport o‘yinlarida, yakkakurashlarda qo‘llaniladigan kompleks xarakterdagi mashqlar bayon etilgan.

Muvofiqlashtirish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ishlarni rejalashtirishda yuklamaning quyidagi tarkibiy qismlarini hisobga olish kerak: harakatlarning murakkabligi, ishning intensivligi, alohida mashqning davomiyligi (yondashuv, topshiriq), bitta mashqning takrorlanish soni (yondashuv, topshiriq), mashqlar (yondashuvlar, topshiriqlar) o‘rtasidagi pauzalar davomiyligi va xususiyati.

Harakatlarning murakkabligi. Sportchilarning koordinatsion imkoniyatlarini takomillashtirishda turli darajadagi murakkablikdagi mashqlar qo‘llaniladi: nisbatan oddiy, analizatorlar, asab-mushak apparati faoliyatini rag‘batlantiradigan va organizmni yanada murakkabroq harakatlarga tayyorlaydigan mashqlardan tortib, sportchilarning funksional imkoniyatlarini to‘liq safarbar qilishni talab qiladigan murakkab mashqlargacha.

Har xil turdagi muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarni takomillashtirish jarayoni harakatlarning murakkabligi maksimal darajaning 75-90% oralig‘ida, ya’ni sportchiga topshiriqlarni bajarishga imkon bermaydigan darajada (muvozanat yoki ritmni saqlash, fazoda mo‘ljal olish va boshqalar) o‘zgarib turganda eng samarali kechadi. Harakatlar shu darajada murakkablik bilan bajarilsa, sportchining funksional tizimlariga moslashish reaksiyalarini rag‘batlantiruvchi yuqori talablar qo‘yiladi - bu muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarning o‘sishiga asos bo‘ladi, lekin shu bilan birga analizatorlarning tez charchashiga va sportchilarning samarali ishlash qobiliyatining pasayishiga

olib kelmaydi, bu holda muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarni takomillashtirishga yordam beradigan yetarlicha katta umumiy ish hajmini bajarishni ta’minlaydi.

Nisbatan past (40-60% maksimal daraja) va o‘rtacha (60-75 maksimal daraja) koordinatsion murakkablikdagi topshiriqlar yosh sportchilar uchun yetarlicha samarali hisoblanadi. Yuqori malakali sportchilarda ular mashg‘ulot mavsumining boshida, shuningdek, kichik tiklovchi xarakterdagi yuklamalar bilan mashg‘ulotlarda razminka o‘tkazishda qo‘llanilishi mumkin.

Malakali sportchilarni tayyorlash tizimida chegaraviy (maksimal darajasining 90-95%) va chegaraviy murakkablikdagi mashg‘ulotlar ma’lum o‘rin egallaydi. Biroq, bunday ish hajmi nisbatan kichik bo‘lishi kerak - muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarning o‘sishiga yordam beradigan mashg‘ulot ishlarining umumiy hajmining 10-15%. Shu bilan birga, bu ishlarning yarmi maxsus tayyorgarlik mashqlarini bajarishga, yarmi esa turli darajadagi musobaqalar sharoitida bajariladigan musobaqa mashqlarini bajarishga to‘g‘ri keladi.

Yuqori malakali sportchilarning muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarini rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi ishlarning umumiy hajmida turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarning taxminiy nisbati quyidagicha bo‘lishi mumkin: uncha murakkab bo‘lmagan topshiriqlar - 5-10%, o‘rtacha murakkablikdagi topshiriqlar - 30-40%, yuqori murakkablikdagi topshiriqlar - 40-50, chegaraviy va chegaraviy murakkablikdagi topshiriqlar - 10-15%.

Ishning jadalligi. Topshiriqlarning asosan muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarning u yoki bu turini takomillashtirishga yoki ularni kompleks ravishda takomillashtirishga yo‘naltirilganligi, shuningdek, ularni takomillashtirish bosqichi aniq harakatlar yoki vaziyatlarga nisbatan turli intensivlikdagi mashqlarni bajarishni taqozo etadi. Biroq, muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarning o‘sishiga yordam beradigan eng xilma-xil mashq va topshiriqlarga nisbatan umumiy tendensiya mavjud: bu sifatni takomillashtirishning dastlabki bosqichlarida aniq harakat harakatlariga nisbatan ishning intensivligi yuqori emas, sportchining texnik-taktik imkoniyatlari kengaygan sari intensivlikning asta-sekin oshib borishi va nihoyat, musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishish bilan bevosita bog‘liqlikda koordinatsion imkoniyatlarni takomillashtirish haqida gap ketganda, chegaraviy va chegaraviy intensivlikdan foydalanish.

Yuqori malakali sportchilarda koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirish jarayoni texnik-taktik takomillashtirish vazifalarini hal etish, maxsus trenirovka va musobaqa yuklamalari sharoitida tezkor-kuch chidamlilik qobiliyatlarini

rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq ekanligini doimo yodda tutish kerak. Shuning uchun ishning shiddati ko‘p jihatdan sportning muayyan turida sportchining maxsus tayyorgarligi vazifalarini kompleks hal qilish zarurati bilan belgilanadi.

Agar yosh sportchilarda mushaklarni erkin bo‘shashtirish qobiliyati oddiy harakatlar sharoitida, zo‘riqishsiz, diqqat-e’tiborni u yoki bu mushak guruhlarini bo‘shashtirishga uzoq vaqt davomida qaratgan holda eng yaxshi tarzda rivojlansa, yuqori malakali sportchilarda ish boshqacha quriladi. Masalan, gimnastikachilar, kurashchilar yoki yuqori malakali uloqtiruvchilarni tayyorlashda ishga jalb qilinmagan mushaklarni bo‘shashtirish ustanovkasi, eng avvalo, asosiy maxsus tayyorgarlik, shuningdek, chegaraviy shiddat bilan bajariladigan musobaqa mashqlari vaqtida amalga oshiriladi.

Sport o‘yinlariga ixtisoslashgan yosh sportchilar murakkab bo‘lmagan turli xil estafetalarda to‘pni aniqlikka otish, juft va guruhlarda, joyida va harakatda to‘p bilan oddiy mashqlarni bajarish orqali koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Mashqlar nisbatan past shiddat bilan bajariladi, bu ham texnik imkoniyatlarning cheklanganligi, ham jismoniy tayyorgarlikning, shu jumladan koordinatsion qobiliyatlarning past darajasi bilan bog‘liq.

Oliy yutuqlar sportida vaziyat tubdan boshqacha: koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ishlarning katta hajmi makon va vaqt tanqisligi sharoitida eng murakkab texnik-taktik vazifalarni hal qilish, qarshilik ko‘rsatish, malakali raqiblar, yuqori o‘yin sur’atini ta’minlaydigan sheriklar bilan o‘zaro hamkorlik qilish, koordinatsion qobiliyatlarning maksimal namoyon bo‘lishini talab qiladigan murakkab kutilmagan vaziyatlarni yaratish bilan bog‘liq. Hatto, masalan, basketbolda - noqulay vaziyatlardan savatga tashlashlarni mashq qildirish, darvozaga bevosita yaqin joyda - muz ustida xokkeyda - turli-tuman tashlashlarni mashq qildirish, to‘p bilan darvozaga yorib o‘tish, himoyachilarning qarshiligini yengib o‘tish, futbolda va shu kabi individual topshiriqlarni bajarish ham cheklangan yoki chegaralangan intensivlik bilan ishlashni talab qiladi.

Alohida mashq (yondashuv, topshiriq) ning davomiyligi. Sportchilarning koordinatsion imkoniyatlarini takomillashtirish jarayonida alohida mashqda, yondashuvda (bir xil harakatni takrorlashlar seriyasi) yoki topshiriqda (o‘zaro bog‘liq turli harakatlarni uzluksiz bajarish) uzluksiz ishlash davomiyligi keng diapazonda o‘zgarib turishi mumkin, bu har bir aniq holatda turgan vazifa bilan belgilanadi. Agar harakat harakatlarining tarkibi, ishning shiddati qat’iy belgilanishi mumkin bo‘lsa (masalan, bir oyoqda muvozanatni saqlash, muayyan masofaga to‘siqlar bilan yugurish, belgilangan darajaga

burilib sakrash va h.k.), u holda uzluksiz ishning davomiyligi aniq belgilanadi va odatda 10-20 s ni tashkil qiladi. Bu vaqt davomida ish sifatini yuqori samarali nazorat qilish va mushaklar faoliyatini maqsadga muvofiq boshqarish ta'minlanadi, chunki ish charchash boshlanishidan oldin tugatiladi. Tezlik-kuch va siklik turlarda (masalan, sport gimnastikasi, suvga sakrash va boshqalarda) maxsus tayyorgarlik va musobaqa mashqlarini bajarishda ishning davomiyligini yetarlicha aniq rejalashtirish mumkin, bunda harakatlar tarkibi va ularning davomiyligi oldindan belgilanishi mumkin. Bu yerda uzluksiz ishning davomiyligi sekundning ulushidan yoki bir necha sekunddan (akrobatikada sakrash, bolg'a uloqtirish, yugurish yoki suzishda start olish) bir necha minutgacha (tezlikni, vaqtni, rivojlantirilayotgan kuchni nazorat qilib, belgilangan masofalarni suzib o'tish yoki bosib o'tish) o'zgarib turishi mumkin.

Muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarni takomillashtirish yakkakurash yoki sport o'yinlarida real musobaqa faoliyati sharoitida amalga oshirilganda, har bir mashqda ishning davomiyligini oldindan rejalashtirish deyarli mumkin emas (mashqlarning xarakteri va ishning intensivligi kabi) va u odatda soniyaning ulushlaridan bir necha soniyagacha o'zgarib turadi.

Ishning davomiyligi qo'yilgan vazifaga ham bog'liq. Agar mashq koordinatsion jihatdan murakkab harakatni o'zlashtirishga yordam berishi kerak bo'lsa, mashqning davomiyligi charchash paydo bo'lgunga qadar barqaror holatda ishlash zarurati bilan belgilanadi va, tabiiyki, u ko'p emas. Musobaqa faoliyati uchun xarakterli bo'lgan toliqish sharoitida koordinatsion imkoniyatlarning yuqori darajasini namoyon qilish qobiliyati rivojlanganda, ishning davomiyligi sezilarli darajada uzaytirilishi mumkin.

Bitta mashqni (yondashuv, topshiriqni) takrorlash soni. Muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlarning takomillashuvi turli davomiylik va intensivlikdagi ish sharoitlarida bajariladigan harakat harakatlarining nihoyatda xilma-xilligidan foydalanish bilan bog'liq. Ulardan ba'zilari ko'p marta takrorlanishi mumkin. Ba'zilari esa kutilmagan vaziyatga reaksiya natijasi bo'lib, ularni sof holda qayta tiklash mumkin emas. Ushbu omillarning barchasi bitta mashq, yondashuv yoki topshiriqni takrorlash soniga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Har bir mashqdagi (5 s gacha) qisqa muddatli ishda takrorlashlar soni ancha katta bo'lishi mumkin - 6 tadan 10-12 tagacha. Uzoqroq davom etadigan topshiriqlarda takrorlashlar soni mutanosib ravishda kamayadi va 2-3 tadan oshmasligi mumkin. Bunday holda, shug'ullanuvchilarning yuqori faolligini va ularning ma'lum bir vazifaga qiziqishini saqlab qolish va bir vaqtning o'zida

tananing funktsional tizimlariga va koordinatsion qobiliyatlarning ma’lum bir turining paydo bo‘lishida asosiy yukni ko‘taradigan mexanizmlarga yetarlicha katta umumiy ta’sirni ta’minlash mumkin.

Agar charchash sharoitida koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirish zarurati paydo bo‘lsa, u holda mashqlarni takrorlash soni odatda sezilarli darajada oshadi: qisqa muddatli vazifalarni bajarishda 12-15 tagacha va uzoqroq vazifalarni bajarishda 4-6 tagacha va undan ortiq.

Takrorlashlar soni mashg‘ulot dasturi, uning aniq vazifalari bilan ham belgilanadi. Har xil turdagi koordinatsion qobiliyatlarni kompleks takomillashtirishda, bu ko‘p sonli turli xil mashqlarni qo‘llashni talab qiladi, har bir mashqni takrorlash soni odatda katta emas - 2-3 dan oshmaydi. Muayyan harakat vazifasiga nisbatan koordinatsion qobiliyat turlaridan birini chuqur takomillashtirish amalga oshirilganda esa mashqlarni takrorlash soni 3-5 marta ortishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Арестов Ю.М. Исследование полового созревания детей и подростков мужского пола в аспекте физического воспитания.:Автореферат дисс…канд.биол.наук. М.1970.

2.Арямов И.А. Возрастные особенности моторики детей школьного возраста.- Сессия физическое воспитание учащихся в советской школе.//Тезисы докладов,М.Л.,изд-во АПН РСФСР,1978, М., с 17-20.

3.Байченко И.П Динамика развития функций двигательного и вестибулярного анализаторов в связи с периодами.// Двигательный режим и старение. Киев, 1983,с.9-10.

4. Бирюк Е.В Длительность сохранения равновесия в художественной гимнастике. //Теория и практика физической культуры. 1990, №6,с. 20-24.

FUTBOLCHILARDA MAXSUS TAYYORLOV BOSQICHIDA JISMONIY TAYYORGARLIKNI OSHIRISH SAMARADORLIGI

Aminov Sarvar O‘ktam o‘g‘li-Alfraganus universiteti, 2-kurs magistranti

Kalit so‘zlar. Jismoniy sifatlar,funksional imkoniyat,jismoniy rivojlanish,umumiy jismoniy tayyorgarlik,maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik sifatlar, ko‘rsatkichlar darajasi, jismoniy qobiliyat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi «O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-5887-sonli farmoni hamda Respublikamizda futbolni rivojlantirishga qaratilgan boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishda ushbu tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Ishning dolizarbligi. Xozirgi kunga kelib yosh futbolchilarning Jismoniy tayyorgarliklarini xamda organizmning funksional imkoniyatlari umumiy darajasini oshirish, xar tomonlama jismoniy rivojlantirish, sog‘likni mustaxkamlash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash jarayonidir. Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus tayyorgarlikka bo‘linadi. O‘quv-mashg‘ulot ishida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vazifalari o‘zaro uzviy bog‘liqdir.

Ko‘pgina futbol mutaxassislari R.A.Akramov (5), K.X.Xeddergot (61), M.A.Godik, A.A., D.K. Djarmen (20), V.N.Shamardin (65), R.I.Nurimov (44), R. Sharfi (66)lar, yosh futbolchilarni mahorat darajasini oshirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilk yoshlik chog‘idan boshlab futbol uyiniga rejasi va malakali ravishda o‘rgatishga bog‘liqligini ta’kidlashadi.

Biz tadqiqot olib borishda yosh futbolchilarni jismoniy tayyorgarlik va maxsus sifatlarini aniqlash uchun quyidagi testlardan foydalandik:

1) 30 m ga yugurish;
2) turgan joydan sakrash;
3) chaqqonlikka doir maxsus test;
4) o‘yinda fikr yuritish;
5) o‘yindagi hujumkorlik va epchillik sifatlari.

Me’yoriy mashqlarni qabul qilish va ko‘rsatkichlarni baholash uslubiyati.

30 m ga yugurish. Yuqori start. Uch marta yugurishga ruxsat etiladi. Eng yaxshi vaqt hisobga olinadi.

Turgan joydan yuqoriga sakrash. Natija V.M. Abalakov konstruksiyasidagi (sakrashni o‘lchash asbobi) yordamida aniqlanadi. Uch marta sakrashga ruxsat etiladi. Eng yaxshi natija hisobga olinadi.

Chaqqonlikka doir maxsus test. 13 m uzunlikdagi maydonchada bajariladi. Start va finish bir chiziqda bo‘ladi. Chizqdan 7 m uzoqlikda tayoqcha qo‘yiladi va shundan so‘ng har 2 m dan keyin oldinga va 1 m yon tomonga yana tayoqcha o‘rnatiladi.

Maktabga kiruvchi tayoqchalar yo‘nalishi bo‘yicha orqa o‘girib turish va signalga binoan ketma-ket va bir mashqni ikkinchisiga qo‘shib quyidagi programmani bajdarish tavsiya qilinadi: ikki marta 360° ga burilish, orqaga ikki marta o‘mbaloq oshish, 180° ga burilish, oldinga o‘mbaloq oshish, tayoqchalarni yugurib aylanib chiqish, slalom yugurish chizig‘igacha orqa bilan yugurish. Ikki marta urinib ko‘rishga ruxsat etiladi, yaxshi natija hisobga olinadi.

O‘yinda fikr yuritish. Bu ko‘rsatkichlar darajasini aniqlash uchun yosh futbolchilarning tabiiy sharoitlardagi o‘yinda bir-biriga aloqasini ekspertiza qilib baholash uslubidan foydalaniladi. Shu maqsadda kamida uchta malakali murabbiylar jalb qilinadi. Maktabga qabul qilinayotgan har bir bola turli sheriklar bilan turlicha raqiblarga qarshi o‘ynab, 3-5 ta kontrol uchrashuvda ishtirok etadi.

Kuzatish ma’lumotlarining qat’iy bo‘lishi uchun, sinov o‘tkazuvchi kishi o‘yinchilarning harakatlarini bayonnomaga yozib borishi, yozganida bolaning o‘yindagi fikrlashi darajasi haqida xulosa chiqarish mumkin bo‘lgan xarakteristikalarni qayd qilishga alohida e’tibor berishi kerak.

Bular quyidagilardir:

1) vaziyatni tushunib olish va qarorni tanlash tezligi;

2) qabul qilingan qarorlarning samaradorligi;

3) o‘yin vaziyatlarining rivojlanish va borishini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati.

Bu sifatlarning rivojlanganlik darajasiga qarab tegishli baho qo‘yiladi.

O‘yindagi xujumkorlik va epchillik sifatlari. Bu ko‘rsatkich ham o‘yin vaqtida bolalarni kuzatish jarayonida sinov o‘tkazish bilan aniqlanadi. Quyidagilarni qayd etish tavsiya etiladi:

1) faollik (ko‘pchilik epizodlarda ishtirok etishga intilish, o‘yinda bor kuchini sarflash);

2) to‘pni olishdagi qat’iylik;

3) o‘zini ayamasdan, xavf-xatarni pisand qilmay kurashish;

4) muvaffaqiyatsizlikka va noqulay sharoitdagi kurashishga bardosh berish va o‘zini tuta bilish.

Bu xolda ham baholash yuqoridagidek o‘tkaziladi. Oxirida mutaxassislarning baholari qo‘shilib, o‘rtachasi chiqariladi va yakuniy baho qo‘yiladi.

Xulosa. Yosh futbolchilarni kelajakda malakali futbolchi qilib tarbiyalashda, ularning umumiy jismoniy sifatlarini rivojlantirish juda katta e’tibor berilishi lozim. Jismoniy sifatlarini rivojlantirishda, ko‘pgina futbol mutaxassislar yil davomida jismoniy va texnik-taktik sifatlarga doir maxsus test sinovlarini har oyning oxirida o‘tkazilishi kerakligini ta’kidlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son «O‘zbekistonda ommaviy va professional futbolni xar tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» Qarori.
2. Nurimov R.I. “Futbol nazariyasi va uslubiyati” Darslik 357 bet “ITA-PRESS” Toshkent-2015.
3. Musayev B.B. Sport metrologiyasi, o‘quv qo‘llanmasi, Toshkent, Navro‘z nashriyoti, 2015, 199 b.

TALABA YOSHLAR O‘RTASIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH

ФОРМИРОВАНИЕ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СРЕДИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE AMONG STUDENT YOUTH

Tillayev Doniyor Raximovich –Alfraganus universiteti, Sport faoliyati kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya. Sog‘lom turmush tarzi, bu inson salomatligini yaxshilash va muhofaza qilishga qaratilgan faol harakat hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzi yo‘nalishlari bu kun tartibiga rioya qilish, shaxsiy gigiyena, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy harakat, ekalogik tarbiya, ruhiy salomatlikni asrash, zararli odatlardan voz kechish, tibbiy madaniyat hisoblanib ushbu maqolada ushbu sohalarga rivoya qilishning manbaalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Аннотация. Здоровый образ жизни - активное движение, направленное на укрепление и охрану здоровья человека. Направления здорового образа жизни включают соблюдение режима дня, личную гигиену, правильное питание, физическую активность, экологическое просвещение, сохранение

психического здоровья, отказ от вредных привычек, медицинскую культуру , в данной статье показаны источники развития в этих областях.

Annotation. A healthy lifestyle is an active movement aimed at strengthening and protecting human health. Directions of a healthy lifestyle include observing the daily routine, personal hygiene, proper nutrition, physical activity, environmental education, maintaining mental health, giving up bad habits, medical culture, in this The article shows the sources of development in these areas.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, shaxsiy gigiyena, jismoniy harakat, ekologik tarbiya, ruhiyat, ruhiy iztirob, tibbiy madaniyat, turmush madaniyati, jismoniy faollik, dofamin garmoni.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, личная гигиена, двигательная активность, экологическое воспитание, настроение, душевные страдания, медицинская культура, культура жизни, двигательная активность, дофаминовый гормон.

Keywords: healthy lifestyle, personal hygiene, physical activity, environmental education, mood, mental suffering, medical culture, culture of life, physical activity, dopamine hormone.

Kirish. Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanish hamda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida: har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishga shart-sharoitlar yaratish va sport tadbirlarini oqilona tashtillashtirish uchun hukumatimiz farmon va qarorlarini vazirliklar, tashkilotlar,oliy o’quv yurtlari va mahallalarda ijrosini ta’minlash uchun keng ko‘lamdagi ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924- - 4 - sonli farmoni, 2020-yil 30-oktbardagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-sonli farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida” 2024-yil 18-dekabrdagi PQ-443-sonli, qarorida ko’rsatib o’tilgan manbaada, mamlakatimizda ommaviy sportni va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish asosiy vazifalardan biri xisoblanadi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi

Prezident Farmoni loyihasiga ko‘ra, “To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi” umummilliy harakatini yo‘lga qo‘yish taklif etilmoqda.Qayd etilishicha, mamlakatda 10,7 mln. aholi sog‘lom turmush tarzini olib bormaydi. Aholining 16,5 foizi tamaki va 4,7 foizi alkogol iste’mol qilishi, 16 foizi meva va sabzavotlarni yetarli miqdorda iste’mol qilmasligi (kuniga 400 grammdan kam), 36,6 foizi taomga qo‘shimcha tuz qo‘shishi,32,9 foizida ortiqcha vazn va 23,5 foizida semizlik mavjudligi, 38 foizida yuqori arterial qon bosimi yuqoriligi va 8,4 foizi qonida qand miqdorining yuqoriligi,26 foizining esa jismoniy faolligi sustligi aniqlangan.Insonlarning sog’lom bo’lishi ko‘p jihatdan avvalambor ularning o‘ziga bog‘liq.Buning uchun u o‘z hayotini oqilona yo‘lga qo‘yishi, har qanday kasalliklarning oldini olish uchun sog‘lom turmush tarzi va turmush madaniyati talablariga amal qilib yashashi lozim.

Sog‘lom turmush tarzi usullari: Sog’lom turmush tarzi bu inson salomatligini yaxshilash va muhofaza qilishga qaratilgan faol xarakat hisoblanadi. sog‘lom turmush tarzi yo‘nalishlari bu kun tartibiga rioya qilish, shaxsiy gigiyena, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy harakat, ekalogik tarbiya, ruhiy salomatlikni asrash, zararli odatlardan voz kechish, tibbiy madaaniyat hisoblanadi.

Kun tartibini oqilona tashkil qilish, intizom, iroda kuchini tarbiyalaydi va foydali ko‘nikmalarni shakillantiradi.Bolalar,o‘smirlar va talaba yoshlarimiz sog‘lom va tetik bo‘lishiga zamin yaratilib, zararli odatlardan himoya qiladi. Kun tartibiga amal qilmaslik natijasida toliqish, o‘qish va ish samaradorligining pasayishiga va ruhiy zo‘riqish holatlari yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Sog‘lom bo‘lish uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, qo‘l gigiyenasi, soch gigiyenasi, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi, tana gigiyenasi, kiyim gigiyenasi, xonadon gigiyenasi, ovqatlanish gigiyenasi sog‘lom turmush tarzining asosiy omillari hisoblanadi.

Munozara: Me’yoriy sog‘lom ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sport jismoniy barkamollikga etaklash bilan birga immunitetni oshirib salomatlikni mustahkamlaydi. Noto‘g‘ri ovqatlanish esa tana a’zolari faoliyatining buzilishi, immunitet holatining pasayishi, ichki og‘riq xastaliklari, qon tomir kasaliklari, asab kasaliklari, vazin ortishi kabi illatlarni paydo qiladi. Bordiyu har bir kishi ovqatlanish qoidalariga amal qilsa uzoq umr ko‘rishi mumkin bo‘ladi, buning isboti 100 xil kasallikning 99 tasini to‘g‘ri ovqatlanish bilan davolash mumkin. Buning uchun insonlar o’zida jismonoy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi, sog‘lom turmush tarzini shakilantirishi va salomatlikni mustahkamlashda eng samarali yo‘llarini tanlashi kerak bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya va sport intizom, iroda, uyushqoqlik, mehnatsevarlik, yuksak aqil etiqod va boshqa fazilatlarni shakillantirishga yordam beradi. Jismoniy faol bo‘lganda rag‘bat va huzur-halovat garmoni sifatida ma’lum bo‘lgan garmon

dofaminning ishlab chiqarilishi jadallashadi.Qancha ko‘p mashq bajarilsa, dofamin shuncha ko‘p ajraladi va o‘zini baxtli salomatli his qiladi. Muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish tana va tashqi ko‘rinish haqida ko‘proq qayg‘urishga yordam beradi. Natijada kishining o‘ziga bo‘lgan ishonchi va bahosi orta boshlaydi.Tadqiqotlarda aniklanishicha sport bilan shug‘ullanadiganlarda shamollash xavfi 50 foizga kam bo’lishi aniqlangan. Shu sabab ham ko‘proq faol bo‘lish, toza havoda piyoda yurishni kanda qilmaslik kerak. Muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanish yosh ko‘rinishga yordam beradi. Jismoniy faollik hisobiga yuzning teri to‘qimalari qon bilan a’lo darajada ta’minlanadi,natijada ko‘rinish yaxshilanadi.Ter ajralishi o‘lik hujayralarni yo‘qotib, ularning yangilanishiga yordam beradi.

Piyoda yurish, yugurish, velosipetda yurish, chiniqish, suvda suzish va sportning barcha turlari bilan muntazam shug’ullanish insonni baqquvat, chidamli qiladi,barcha organizm mushaklarini rivojlantiradi, yurakni mashq qildiradi, nafas tizimini, qon aylanishini, ovqat hazim qilishini, asab tizimi ishini yaxshilaydi. Kam harakatlik o‘qish, ish qobilyati hamda turli kasaliklarga nisbatan organizmning qarshilik kuchining pasayishiga olib keladi. Sog‘tanda – sog‘lom aqil shiori ostida 2003-2015 yilarda bolalar orasida o‘tkazilgan profilaktik ko’rik xulosalariga ko‘ra, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish o‘g‘il va qiz bolalarning boyi o‘rtacha 3 santimetrga, o‘rtacha vazni 4 kilogramga ortgani, ular o‘rtasida o‘tkir respirator infeksiyalar, o‘pka shamolashi kasaliklari, skolioz (umurtqa pog‘onasini qiyshayishi) bilan kasalanish holatlarining sezilarli darajada kamaygani kuzatilgan.

Ruhiy salomatlik bu sog‘lom tana, sog‘lom aql, sog‘lom idrok, sog‘lom ruhan bir insonda mushtarak bo‘lishi shart.Ruhiy salomatlikni asrash uchun mumtazam ravishda va meyorda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ulanish bazi nohushliklarga etibor bermaslik, o‘z hayot faoliyatini to‘g‘ri tashkil eta olish va rejalashtirish kerak bo‘ladi. Hayotga yangicha yondashib, har qanday holatlarga ijobiy munosabatda bo‘lish, do’stlar va yaqinlarga etiborli bo‘lishni taqozo etadi.

Ruhiyat va kasallik bu “Ruxiyatga bog‘liq bo‘lmagan kasallikning o‘zi yo‘q” uzoq davom etgan kechinmalar natijasida asab tizimi buzilishi bilan bog‘liq hastaliklar (nevroz, pisixoz) kelib chiqadi. Bundan tashaqari, kuchli stress, qo‘rquv, doimiy hafagarchilik, doimiy tajanlik, ruhiy iztirob, qattiq charchash, jahildorlik kabi salbiy ruhiy holatlar tufayli qandli diyabet, hafaqonlik, oshqozon-ichak kasaliklariga,hafas siqishi kasalliklari paydo bo’lishiga sabab bo‘ladi.

Zararli odatlar bu umrning zavoli bular kashandalik, giyohvandlik, ichkilikbozlik hisoblanadi.Bugungi kunda ayrim yoshlar orasida avj olib borayotgan zararli odatlar, spirtli ichimliklar ichish, tamaki chekish, giyohvand moddalar iste’mol qilishi, qo‘l telefoniga tobelik, internet va kompyuter o‘yinlariga

tobeylik yoshlarimizning urf odatiga aylanib qolgan. Bu oxir oqibat quyidagi kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi bo‘lishi mumkin. Odam organizimida saraton kasaligini, jigar sirozi, yurak qon tomir kasaliklari, asab tizimi kasaliklari va shu bilan birgalikda nogiron farzandlar dunyoga kelishiga sababchi bo‘ladi.

Natija: Zamonaviy insonning ayniqsa talaba yoshlarning, birinchi navbatda, uning sog’lom turmush tarziga rioya qilishi orqali o’z salomatligiga befarq qaramaslikga erishiladi.

Talabalariga sog‘lom turmush tarzini shakllantiriladi salomatlikni mustahkamlovchi turmush tarzi, jismoniy va ruhiy zo‘riqish o‘rtasidagi mutanosiblikni oldi olinadi;

-jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga va chiniqishga erishiladi;

- me’yorida ovqatlanish ko‘nikmasi hosil qilinadi;

- talabalar o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlar shakllantiriladi;

-o‘qish davrida kun tartibi, shaxsiy gigiena va mas’uliyatli gigienik hatti – harakatlar shakllantiriladi;

- yomon odatlarga salbiy munosabat paydo bo‘ladi.

Talabalarning o‘zi sog‘lom turmush tarziga rioya qilish orqali sog‘ligini mustahkamlashi mumkinligini tushunib, anglab yetadi.

Sog‘lom turmush tarziga rioya qilish natijasida tanada sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar ratsional turmush tarziga o‘tishning ijobiy ta’sirini shakllantiradi.

Talabalarning sog‘lom turmush tarzi ularni bardoshli, jismonan sog‘lom hamda barkamol bo‘lishiga hissa qo‘shadi;

-shaxsning o‘zini o‘zi anglash ehtiyojini qondirish uchun asos bo‘lib, yuqori ijtimoiy faollik va ijtimoiy muvaffaqiyatni ta’minlaydi;

-yomon odatlardan voz kechish, faol dam olish vositalari va usullaridan unumli foydalanish bilan vaqt byudjetini oqilona tashkil etish va taqsimlash imkonini beradi;

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir kishi, eng avvalo, o’zi, oilasi va yaqinlarining salomatligi uchun ma’sul bolishi lozim. Bunda har qanday kasallikni davolashdan ko’ra, uning oldini olish oson va samarali ekanligini unutmasligimiz kerak. Sog‘lom hayot tarzi orqali yoshlar salomatligi yaxshilanib, nogironlik ko’rsatgichlari kamayib boradi.

Talaba yoshlar salomatligini asrash va mustahkamlash, qolaversa, uzoq umr ko‘rishning garovi sog‘lom turmush tarzi ekanligi bugun barchaga ayon

haqiqatdir,shuning uchun zero har birimiz, eng avvalo, o‘z sog‘lig‘imizni o‘ylashimiz kerak bo’ladi ana shundagina xotirjam va farovon hayot kechirgan bo’lib, ko‘plab asoratli xastaliklarning oldini olgan bo‘lamiz.Hech bo‘lmaganda bir necha hafta davomida oldindan o‘ylangan va oqilona tuzilgan kun tartibini aniq bajarish talabaga dinamik stereotipni rivojlantirishga yordam beradi.Uning fiziologik asosi bo’lgan miya yarim sharida samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan qo‘zg‘alish va energiya almashinuvi jarayonlarining ma’lum bir ketma-ketligini shakllantiradi.

Sport bilan shug’ullanishni boshlash uchun hechqachon kech emas,yoshlikdan faol turmush tarzini olib borish, chiniqish, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shugullanish sog‘lom turmush tarzi talablariga amal qilish orqali salomatlikga to‘liq erishish mumkin. Aqlli kun tartibiga qo‘shimcha ravishda, biz talabalarning oqilona turmush tarzining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatamiz, ularga rioya qilish akademik muvaffaqiyat va sog‘liqqa bog‘liq bo’lishini, aqliy mehnat gigiyenasi, to‘g‘ri ovqatlanish,uyquning me’yorda bo’lishi,muntazam jismoniy faollik, yomon odatlardan xalos bo‘lishga erishishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktiyabrdagi“Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risi”dagi PF-6099-sonli farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida” 2024-yil 18-dekabrdagi PQ-443-sonli, qarori.

3.T.Xoldorov.D.R.Tilloyev.Jismoniy tarbiya va sport sihat salomatlik manbai.o’quv uslubiy qo’llanma.Toshkent-2010 yil.

4.Видякин М.В.Спортивные праздники и школьные мероприятия. - Волгоград, 2011 г.

TALABALARDA OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL QILISH VA O‘TKAZISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METODLARI
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПО ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЮ МАССОВЫХ СПОРТИВНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

Anorqulov Baxtiyor Norqul o‘g‘li - Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

Email:baxtiyoranorqulov94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion metodlarini o‘rganadi. Maqolada sport tadbirlarini tashkil etishda raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, loyiha asosida o‘qitish va interaktiv treninglar kabi zamonaviy metodlar haqida so‘z boradi. Tadbirlarni boshqarishda talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning motivatsiyasini oshirish, va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha talabalarga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar, nafaqat akademik sohada, balki ijtimoiy hayotda ham foydalidir. Maqola sport menejmentining zamonaviy usullarini o‘rgatishda, o‘quv jarayonida talabalarning faol ishtirokini ta’minlash va ularning tashkiliy ko‘nikmalarini oshirishda innovatsion metodlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ommaviy sport tadbirlari, talabalarning kompetensiyalari, innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, loyiha asosida o‘qitish, interaktiv treninglar, sport menejmenti, jamoaviy ishlash, tashkiliy ko‘nikmalar.

Аннотатсия: В статье рассматриваются инновационные методы развития компетенций студентов по организации и проведению массовых спортивных мероприятий. В статье рассматриваются современные методы организации спортивных мероприятий, такие как цифровые технологии, геймификация, проектное обучение, интерактивное обучение. Будут проанализированы инновационные подходы к организации мероприятий, направленные на создание новых возможностей для студентов, повышение их мотивации и развитие их навыков. Методические подходы к организации и проведению спортивных мероприятий, ориентированные на студентов, полезны не только в академической сфере, но и в общественной жизни. В статье подчеркивается важность инновационных методов обучения современным методам спортивного менеджмента, обеспечения

активного участия студентов в процессе обучения, повышения их организаторских способностей.

Ключевые слова: Массовые спортивные мероприятия, компетенции студентов, инновационные методы, цифровые технологии, геймификация, проектное обучение, интерактивное обучение, спортивный менеджмент, командная работа, организаторские способности

Kirish. Ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish, faqatgina fizika yoki jismoniy tarbiya sohasiga tegishli emas, balki ijtimoiy, tashkiliy va pedagogik jihatlardan ham muhim hisoblanadi. Bu jarayon, talabalarning jismoniy faolligini oshirish, ularni jamoaviy ishlashga o‘rgatish, liderlik va tashkiliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Sport tadbirlarini tashkil etish ko‘plab muhim kompetensiyalarni, jumladan, vaqtni boshqarish, resurslarni samarali taqsimlash, jamoaviy ishni muvofiqlashtirish va xavfsizlikni ta’minlash kabi ko‘nikmalarni talab qiladi. Shunday qilib, ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazishda talabalar faqatgina jismoniy tayyorgarlikni emas, balki zamonaviy innovatsion metodlar asosida yuqori darajadagi tashkiliy salohiyatni ham rivojlantirishlari zarur.

Adabiyotlar tahlili. Sport tadbirlarini boshqarish va talabalarda kompetensiyalarni rivojlantirish. Adabiyotlarda sport tadbirlarini tashkil etishning eng muhim jihatlaridan biri, bu faqat jismoniy mashqlarni bajarish emas, balki ularni samarali boshqarish va muvofiqlashtirishdir. Talabalarga sport tadbirlarini tashkil qilishda ko‘nikmalarni o‘rgatish, ularda tashkilotchilik va liderlik sifatlarini rivojlantirish uchun amaliyotga asoslangan metodlar zarur (Kuzmin, 2020). Shu bilan birga, sport tadbirlarining ijtimoiy ahamiyati va jamiyatdagi roli ham e'tiborga olinadi (Romanov, 2021).

Raqamli texnologiyalar va sport menejmenti. Sport menejmentining zamonaviy yo‘nalishlaridan biri raqamli texnologiyalarni qo‘llashdir. Raqamli vositalar yordamida tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish jarayoni ancha soddalashadi. Yangi avlod mobil ilovalari, platformalar va onlayn xizmatlar yordamida sport tadbirlarini tashkil qilishda samarali tizimlar mavjud (Toranov, 2022).

Gamifikatsiya va motivatsiya. Gamifikatsiya sport tadbirlarini tashkil qilishda motivatsiyani oshirish uchun ishlatiladigan innovatsion metodlardan biridir. O‘yinlashtirish orqali talabalar faol ishtirok etishga, maqsadlarga erishishga va jamoa ichida hamkorlik qilishga undaladi. O‘yinlashtirishning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi talabalarda tashkilotchilik, muammolarni hal qilish, va yangi ko‘nikmalarni o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi (Petrov, 2023).

Loyiha asosida o‘qitish. Loyiha asosida o‘qitish metodikasini qo‘llash, talabalarga real vazifalar orqali sport tadbirlarini rejalashtirish va tashkil etish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu metod talabalar uchun nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy tajriba orttirish imkoniyatini ham beradi (Kuznetsov, 2019).

Innovatsion metodlar: Raqamli texnologiyalardan foydalanish Bugungi kunda raqamli texnologiyalar sport tadbirlarini boshqarishda katta rol o‘ynamoqda. Mobil ilovalar va onlayn platformalar yordamida talabalar sport tadbirlarini rejalashtirish, ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish va natijalarni real vaqtda kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday texnologiyalar yordamida sport tadbirlarining barcha jarayonlari onlayn tarzda boshqariladi va ishtirokchilar uchun qulaylik yaratadi.

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) Gamifikatsiya orqali talabalar o‘zaro raqobatlashish, maqsadlarga erishish va muammolarni yechish uchun rag‘batlantiriladi. Masalan, sport tadbirlariga ishtirok etgan talabalar uchun maxsus ball tizimi, badge (ko‘krak nishonlari) yoki mukofotlar tizimi joriy etilishi mumkin. Bu usul nafaqat ishtirokchilarni rag‘batlantiradi, balki tashkilotchilik va jamoaviy ishni rivojlantiradi.

Loyiha asosida o‘qitish. Talabalar o‘zlari mustaqil ravishda sport tadbirlarini rejalashtirishi va o‘tkazishi kerak bo‘lgan vazifalar orqali ularning tashkiliy va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Shu tarzda, talabalar sport tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha amaliy tajriba orttiradilar. Loyiha asosidagi o‘qitish metodikasi talabalar uchun yangi yondashuvni o‘rgatadi va ularni hayotga tayyorlaydi.

Interaktiv treninglar va seminarlar. Interaktiv treninglar va seminarlar orqali talabalar sport menejmenti, ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilish, homiylar bilan ishlash kabi sohalarda bilim olishlari mumkin. Sport menejmenti sohasidagi ekspertlar tomonidan o‘tkaziladigan master-klasslar talabalarni sohadagi eng yangi yondashuvlar bilan tanishtiradi.

Xulosa. Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion metodlarning ahamiyati katta. Raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, loyiha asosida o‘qitish va interaktiv treninglar kabi metodlar sport tadbirlarini tashkil etishda talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu metodlar nafaqat ularning jismoniy faolligini oshiradi, balki ularning tashkiliy, liderlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalarning sport tadbirlarini samarali tashkil

etish va boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni jamiyatga foydali va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kuzmin, V. I. (2020). Sport tadbirlarini boshqarish: teoriya va amaliyot. Sport ilm-fan va ta'lim, 5(2), 33-45.
2. Romanov, D. V. (2021). Sport menejmenti: zamonaviy yondashuvlar. Jismoniy tarbiya va sport, 6(1), 12-18.
3. Toranov, A. S. (2022). Raqamli texnologiyalar va sport tadbirlarini boshqarish. Sport va raqamli texnologiyalar, 9(3), 50-58.
4. Petrov, M. G. (2023). Gamifikatsiya va sport: talabalarning motivatsiyasini oshirish. O‘qitish metodikasi va pedagogika, 7(4), 61-70.
5. Kuznetsov, P. A. (2019). Loyiha asosida o‘qitish: sport tadbirlarini rejalashtirish va tashkil etish. O‘qitish texnologiyalari va metodologiyasi, 11(5), 27-35.
6. Sokolov, V. N. (2021). Jismoniy tarbiya va sportda interaktiv treninglar. Sport ta'limi va innovatsion metodlar, 8(2), 40-46.
7. Shishkin, R. I. (2022). Sport tadbirlarini tashkil etishda jamoaviy ishlash va liderlik. Psixologiya va pedagogika, 14(3), 55-62.
8. Orlov, K. P. (2020). Sport tadbirlarining ijtimoiy ahamiyati va ularni tashkil etish. Jamiyat va sport, 12(1), 73-80.

TALABALARDA OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL QILISH VA O‘TKAZISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ ПО ФОРМИРОВАНИЮ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПО ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЮ МАССОВЫХ СПОРТИВНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

Anorqulov Baxtiyor Norqul o‘g‘li

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

Email:baxtiyoranorqulov94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish kompetensiyalarini rivojlantirishdagi pedagogik muammolarni tahlil qiladi va ularni hal etish yo‘llarini ko‘rsatadi. Sport tadbirlarini muvaffaqiyatli tashkil qilish faqat jismoniy tayyorgarlikni emas, balki yuqori darajadagi tashkiliy, kommunikatsiya va boshqaruv ko‘nikmalarini ham talab qiladi. Maqolada talabalarning ommaviy sport tadbirlarini rejalashtirish va boshqarishdagi asosiy pedagogik muammolar va ularni hal etishda qo‘llaniladigan metodlar, jumladan loyiha asosida o‘qitish, interaktiv treninglar va gamifikatsiya kabi innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, muammo va yechimlar bo‘yicha pedagogik metodlarning ahamiyati va amaliyotdagi qo‘llanilishi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Ommaviy sport tadbirlari, pedagogik muammolar, talabalarning kompetensiyalari, innovatsion metodlar, loyiha asosida o‘qitish, gamifikatsiya, interaktiv treninglar, sport menejmenti, pedagogik yechimlar.

Аннотация: В статье анализируются педагогические проблемы формирования компетенций студентов по организации и проведению массовых спортивных мероприятий и предлагаются пути их решения. Успешная организация спортивных мероприятий требует не только физической подготовки, но и высокого уровня организаторских, коммуникативных и управленческих навыков. В статье анализируются основные педагогические проблемы планирования и управления студенческими массовыми спортивно-массовыми мероприятиями и методы их решения, в том числе такие инновационные подходы, как проектное обучение, интерактивное обучение и геймификация. Также

предоставляется информация о важности и практическом применении педагогических методов в решении проблем и решений.

Ключевые слова: Массовые спортивные мероприятия, педагогические проблемы, компетенции учащихся, инновационные методы, проектное обучение, геймификация, интерактивное обучение, спортивный менеджмент, педагогические решения.

Kirish: Ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish jarayoni nafaqat jismoniy faollikni oshirish, balki talabalarda yuqori darajadagi tashkiliy, ijtimoiy va rahbarlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim imkoniyatdir. Bu jarayon orqali talabalarga faqat sportni boshqarish, jismoniy mashqlarni bajarish, balki kompleks ko‘nikmalarni – resurslarni boshqarish, jamoaviy ishni muvofiqlashtirish, muammolarni hal qilish, muloqot qilish va liderlik kabi sifatlarni rivojlantirish o‘rgatiladi. Biroq, talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish kompetensiyalarini rivojlantirishda bir qator pedagogik muammolar ham mavjud. Bu muammolar, birinchi navbatda, tashkilotchilik va menejment ko‘nikmalarining yetarlicha rivojlanmaganligi, talabalar o‘rtasidagi motivatsiya pasayishi, innovatsion metodlarning amaliyotga joriy etilishidagi qiyinchiliklar, shuningdek, talabalar o‘rtasida samarali kommunikatsiyaning yo‘qligi bilan bog‘liqdir.

Shu bilan birga, bu muammolarni hal qilish va talabalarda yuqori darajadagi sport tadbirlari kompetensiyalarini rivojlantirish uchun bir qator pedagogik yechimlar mavjud. Loyiha asosida o‘qitish, gamifikatsiya, interaktiv treninglar, raqamli texnologiyalar va mentorlik tizimlarini qo‘llash orqali bu muammolarni hal qilish mumkin. Ushbu maqolada talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha pedagogik muammolar tahlil qilinib, ularni hal etishda qo‘llaniladigan metodlar va yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqolaning maqsadi talabalarda sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni hal etishda zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llashning samaradorligini ko‘rsatishdir.

Pedagogik muammolar: Ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish, talabalarda nafaqat jismoniy, balki yuqori darajadagi pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishni talab qiladi. Bu jarayonda bir qator pedagogik muammolar yuzaga keladi, jumladan:

Tashkiliy muammolar: Sport tadbirlarini rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, vaqtni samarali boshqarish kabi tashkilotchilik ko‘nikmalarining rivojlanmasligi.

Komunikatsiya muammolari: Jamoa a'zolari o‘rtasida samarali muloqot o‘rnatilmasligi, talabalarning bir-biri bilan hamkorlik qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari.

Motivatsiya muammolari: Talabalarning ishtirokiga nisbatan pasaygan motivatsiya va sport tadbirlariga jalb etishda qiyinchiliklar.

Innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llashdagi muammolar: Yangi pedagogik metodlarni joriy etishda talabalarda qiziqish va motivatsiyani oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar.

Pedagogik yechimlar: Har bir muammoning o‘ziga xos pedagogik yechimi mavjud. Talabalarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi yechimlar taklif etiladi:

Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning): Talabalar real sport tadbirlarini rejalashtirishi va amalga oshirishi uchun loyiha asosida o‘qitish metodikasi qo‘llanilishi mumkin. Bu metod talabalarni amaliy ish bilan tanishtiradi va ularning tashkiliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Gamifikatsiya: O‘yinlashtirish orqali talabalarni sport tadbirlariga jalb etish va motivatsiya qilish mumkin. Ball tizimi, mukofotlar, va boshqa gamifikatsiya elementlari orqali ishtirokchilarni rag‘batlantirish.

Interaktiv treninglar va seminarlar: Sport menejmenti va jismoniy tarbiya yo‘nalishidagi ekspertlar tomonidan o‘tkaziladigan interaktiv treninglar va seminarlar talabalar uchun yangi pedagogik metodlarni o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi nogiron bolalar va o‘smirlar soni taxminan 15 foizni tashkil etadi, bu esa ularning salomatligi va integratsiyasi muammosini ayniqsa dolzarb qiladi. 2020-yil 15-oktabrdagi O‘RQ-641-sonli "O‘zbekistonda nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida"gi qonuniga [1] ko‘ra, nogiron - bu kasallik, jarohatlar yoki nuqsonlar natijasida kelib chiqqan, hayot faoliyatini cheklashga olib keladigan va ijtimoiy himoyani talab qiladigan organizm funksiyalarining doimiy buzilishi bo‘lgan shaxs. Xuddi shu qonunda "hayot faoliyatini cheklash" o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, mustaqil harakatlanish, fazoda mo‘ljal olish, muloqot qilish, xulq-atvorni nazorat qilish, ta’lim olish va mehnat qilish qobiliyati yoki imkoniyatining to‘liq yoki qisman yo‘qolishini anglatishi tushuntiriladi. Adaptiv jismoniy tarbiya (AJT) maxsus ehtiyojlarga ega bo‘lgan odamlarning sog‘lig‘i va jismoniy holatini yaxshilashga qaratilgan maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar va dasturlar tizimidir. So‘nggi o‘n yilliklarda jismoniy, sensor yoki aqliy zaiflikning turli shakllariga ega bo‘lgan yoshlar bilan ishlashda **AJT**ni qo‘llashga alohida e’tibor

qaratilmoqda, chunki aynan yoshlik davrida salomatlik va faol turmush tarzi asoslari yaratiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, adaptiv jismoniy tarbiya alohida ehtiyojli yoshlarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi, ularning ijtimoiy moslashuvi va hayot sifatini oshiradi. **AJT**ning individual dasturlaridan foydalanish har bir ishtirokchining xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi, bu esa mashg‘ulot jarayonini nafaqat foydali, balki qulay ham qiladi. Ushbu maqolada adaptiv jismoniy tarbiyaning imkoniyati cheklangan yoshlar salomatligini mustahkamlashdagi o‘rni, shuningdek, uning sog‘lom turmush tarzining barqaror ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Alohida ehtiyojli yoshlar uchun adaptiv jismoniy tarbiya (**AJT**) mavzusining dolzarbligi ularning hayot sifatini, jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash zarurati ortib borayotgani bilan bog‘liq. Turli shakldagi salomatlik cheklovlari bo‘lgan bolalar va o‘smirlar soni ortib borayotgan sharoitda jismoniy tarbiya dasturlarini moslashtirish ijtimoiy integratsiya va salomatlikni saqlashning muhim vositasiga aylanmoqda. Shu bilan birga, an’anaviy jismoniy faollik dasturlari ko‘pincha bunday odamlarning individual xususiyatlarini hisobga olmaydi, bu esa ularning to‘liq ishtirok etish va rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Asosiy muammo mavjud jismoniy faollik metodikalari va dasturlarining salomatligi cheklangan yoshlar ehtiyojlariga yetarli darajada moslashtirilmaganligidadir. Bu ularning jismoniy va psixologik farovonligi uchun zarur bo‘lgan muntazam jismoniy faollikning past darajasiga olib keladi. Jismoniy salohiyat va ijtimoiy daxldorlikni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan samarali **AJT** dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga qodir malakali mutaxassislarning yetishmasligi ham muhim jihatdir.

Yoshlar salomatligi jamiyat va davlat farovonligini belgilovchi muhim omildir. Jismonan sog‘lom yigit-qizlarga sport bilan shug‘ullanish, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish uchun turli shart-sharoitlar yaratilmoqda. Biroq, yoshlar orasida nogironligi bo‘lgan, qo‘llab-quvvatlashga muhtoj insonlar ham borligini unutmaslik kerak. Davlat ular uchun salomatlikni mustahkamlash va ijtimoiy integratsiya usullaridan biri sifatida moslashuvchan jismoniy tarbiyani taklif qilmoqda. Ammo moslashuvchan jismoniy tarbiya nimani anglatadi va uning rivojlanish xususiyatlari bo‘lgan odamlar uchun roli qanday? Bu atrof-muhitga moslashishga va hayotning to‘liqligini his qilishni cheklaydigan psixologik to‘siqlarni yengishga yordam beradigan sog‘lomlashtirish va reabilitatsiyaga qaratilgan tadbirlar majmuasidir. Sodda qilib aytganda, moslashuvchan jismoniy tarbiya - bu imkoniyati cheklangan insonlar uchun sport orqali o‘zini namoyon qilish imkoniyatidir. Adaptiv jismoniy tarbiya har tomonlama rivojlanishga yordam beradi: tanadagi ijobiy o‘zgarishlarni rag‘batlantiradi, harakat

koordinatsiyasini shakllantiradi, sog‘liqni saqlash va o‘zini yaxshi his qilish uchun zarur bo‘lgan jismoniy fazilatlar va ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu faoliyatning asosiy vazifasi alohida ehtiyojga ega bo‘lgan shaxsga jismoniy va psixologik qiyinchiliklarni yengib o‘tib, o‘ziga ishonch hosil qilishiga yordam berish va erishilgan natijalardan qoniqish hosil qilishdan iborat. Adaptiv jismoniy tarbiya dasturlari turli xil sport tadbirlarini, sog‘lomlashtirish muolajalarini va bo‘sh vaqtdagi faoliyatni o‘z ichiga oladi, bu esa ishtirokchilarga qulaylik va mashg‘ulotlarga motivatsiyani ta’minlaydi.

Jismoniy salomatlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishdan tashqari, adaptiv jismoniy tarbiya yana bir muhim vazifani bajaradi - u muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’kidlanishicha, jismoniy madaniyat nafaqat tanani mustahkamlashga, balki ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga ham qaratilgan bo‘lib, nogironligi bo‘lgan shaxslarning o‘zini namoyon etishi va shaxsiyatini ochishi uchun sharoit yaratadi. **AJT**ga bunday yondashuv jismoniy mukammallikni ideal sifatida tor tushunishdan voz kechishga imkon beradi va uning ijtimoiy va kommunikativ integratsiya uchun ahamiyatini ta’kidlaydi. Alohida ehtiyojlarga ega bo‘lgan odamlar, ayniqsa, o‘zlarining ahamiyatini his qilish va jamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash imkonini beradigan muloqotga muhtoj.

Shunday qilib, moslashuvchan jismoniy tarbiya jismoniy cheklovlar va shaxsiy rivojlanish o‘rtasidagi muvozanatni topishda muhim rol o‘ynaydi. U insonga nafaqat biologik va ijtimoiy dunyoning bir qismi sifatida, balki ichki ma’naviy salohiyatga ega shaxs sifatida ham o‘zini anglashga yordam beradi. Bu ichki me’yorlar va qadriyatlarga rioya qilgan holda avtonom harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, **AJT** alohida ehtiyojli yoshlarning jismoniy va psixoemotsional rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu sog‘lomlashtirish va jismoniy tayyorgarlikni yaxshilashga qaratilgan maxsus usullar va mashqlar majmuasi bo‘lib, organizmni mustahkamlashga, uning chidamliligini oshirishga va harakat faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Ammo **AJT**ning ahamiyati jismoniy salomatlikni mustahkamlashdan tashqariga chiqadi. Shuningdek, u ijtimoiy faollikni rivojlantirishga ko‘maklashadi va imkoniyati cheklangan yoshlarning jamiyatga qo‘shilishiga, o‘ziga ishonch hosil qilishiga va o‘z ahamiyatini his qilishiga yordam beradi. **AJT**ning eng muhim roli sog‘lig‘i cheklangan odamlar ko‘pincha boshdan kechiradigan ijtimoiy izolyatsiyani bartaraf etishdir. Adaptiv jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish yoshlarga muloqot o‘rnatish, birgalikdagi tadbirlarda ishtirok etish, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida ularning ruhiy salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, adaptiv jismoniy tarbiya hissiy holatni mustahkamlashga yordam beradi va o‘zini o‘zi baholashni rivojlantiradi, ayniqsa

sport va shaxsiy natijalarga erishish orqali. Jismoniy faollikdagi muvaffaqiyatlar alohida ehtiyojli yoshlarga o‘z imkoniyatlarini his qilish va mustaqillikni rivojlantirish imkonini beruvchi motivatsiya manbai bo‘lishi mumkin. Jismoniy faollik zo‘riqishni kamaytiradi, bu ayniqsa turli xil psixologik to‘siqlarni boshdan kechirayotgan yoshlar uchun muhimdir. Vaqt o‘tishi bilan ularda o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati shakllanadi, chidamlilik va diqqatni jamlash yaxshilanadi.

Alohida ehtiyojli yoshlar uchun moslashuvchan jismoniy tarbiyaga e’tibor bermaslik jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, chunki jismoniy faollikning yetishmasligi organizmni zaiflashtiradi va uning immunitetini pasaytiradi, insonni turli kasalliklarga ko‘proq moyil qiladi [3, b. 53]. **AJT**siz, alohida ehtiyojli yoshlarda jismoniy rivojlanish imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, bu mushaklarning atrofiyasiga, muvofiqlashtirishning yomonlashishiga va umumiy chidamlilikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Psixologik jihatdan ham bu ijtimoiy yakkalanish hissini kuchaytirishi va ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish, loqaydlik va hatto depressiyaga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy aloqalar va faollikning yetishmasligi odamlarning yopiqligini kuchaytiradi va jamiyatga qo‘shilish darajasini pasaytiradi, bu esa shaxsiy rivojlanish yo‘lida qo‘shimcha to‘siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Uzoq muddatli istiqbolda adaptiv jismoniy tarbiyaga e’tibor bermaslik yoshlarning nafaqat jismoniy, balki shaxsiy salohiyatini ham cheklab qo‘yishi, ularning to‘laqonli va uyg‘un hayotga yo‘lini qiyinlashtirishi mumkin.

AJT alohida ehtiyojli yoshlarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiylashtirish, ularning jismoniy va ruhiy-hissiy rivojlanishiga hissa qo‘shishda muhim rol o‘ynaydi. U yoshlarning salomatligini yaxshilash, psixologik to‘siqlarni yengib o‘tish, ishonchni rivojlantirish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish orqali ijtimoiylashuvi uchun sharoit yaratadi. Individual tanlangan OFK dasturlari jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, chidamlilikni oshirishga va to‘laqonli hayot uchun ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. OFK, shuningdek, ishtirokchilarga o‘z imkoniyatlarini anglash va maqsadlariga erishish imkonini berish orqali ishonch va mustaqillikni mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, moslashuvchan jismoniy tarbiya psixoemotsional holatni yaxshilaydi, tashvish va stressni kamaytiradi, bu ayniqsa zamonaviy jamiyatda muhimdir. **AJT**ni e’tiborsiz qoldirish imkoniyati cheklangan yoshlarning sog‘lig‘i yomonlashishiga va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin, bu esa OFK dasturlarini faol turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur qiladi.

Shunday qilib, OFK shunchaki jismoniy mashqlar tizimi emas, balki ijtimoiy integratsiya va shaxsiy rivojlanishning muhim vositasidir. **AJT**ni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish barcha uchun yanada inklyuziv va qo‘llab-

quvvatlovchi jamiyatni yaratish uchun jamiyat va ta’lim muassasalari uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O sotsialnoy zaщite invalidov v Rossiyskoy Federatsii: Federalnыy zakon ot 24.11.1995 N 181-FZ (poslednyaya redaksiya) // Sobraniye zakonodatelstva RF. - 1995. - No 48. - 4563-modda.
2. Abashkina, R. A. Adaptivnaya fizkultura v formirovanii zdorovya u molodeji s ogranichennimi vozmojnostyami / R. A. Abashkina. - Tekst: neposredstvennыy // Molodoy uchenыy. - 2018. - No 26 (212). - S. 99-100. - URL: https://moluch.ru/archive/212/51878/ (murojaat sanasi: 02.11.2024).
3. Kochetkov, N. A. Psixologo-pedagogicheskiye osobennosti detey s ogranichennimi vozmojnostyami zdorovya / N. A. Kochetkov, A. V. Omelyanenko. - Tekst: neposredstvennыy // Molodoy uchenыy. - 2024. - No 34 (533). - S. 52-54. - URL: https://moluch.ru/archive/533/117288/ (murojaat sanasi: 02.11.2024).
4. BMT Yer yuzi aholisining 15 foizi nogiron ekanligini ma’lum qildi [Elektron manba]

JISMONIY TARBIYANING O‘SAYOTGAN ORGANIZMGA TA’SIRI

Jumayev Doniyorbek Dilmurod o‘gli – GDPI, Jismoniy madaniyat, 33-22 guruh

jumayevdoniyorbek@gmail.com

Mustafayev Samandar G‘anisher o‘gli - GDPI, Jismoniy madaniyat, 33-22 guruh

Mustafayev737@gmail.com

Annotation : Modern society is experiencing a serious change in lifestyle, which directly affects the health of the growing generation. The relevance of studying the impact of physical education on the health and development of children and adolescents is associated with an increase in the number of diseases associated with a low-mobility lifestyle. In the context of globalization and deterioration of Ecology, special attention should be paid to the health of the future generation. Physical culture forms not only physical qualities, but also the general culture of the individual, contributes to the harmonious development of the child. It is worth noting that this study is important in

the formation of educational programs aimed at increasing the physical activity of young people.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy jamiyat, globallashuv, Jismoniy rivojlanishni, tadqiqot, metodologiya,pedagogika.

Zamonaviy jamiyat turmush tarzida jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda, bu esa o‘sib kelayotgan avlodning salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Jismoniy tarbiyaning bolalar va o‘smirlar salomatligi va rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishning dolzarbligi kam harakatli turmush tarzi bilan bog‘liq kasalliklar sonining ko‘payishi bilan bog‘liq. Globallashuv va ekologiyaning yomonlashuvi sharoitida kelajak avlod salomatligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Jismoniy madaniyat nafaqat jismoniy sifatlarni, balki shaxsning umumiy madaniyatini shakllantiradi, bolaning barkamol rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ta’kidlash joizki, ushbu tadqiqot yoshlarning jismoniy faolligini oshirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Metodologiya: Tadqiqotda sifat va miqdoriy usullarni o‘z ichiga olgan kompleks metodologiya qo‘llanildi. Jismoniy tarbiyaning o‘sib kelayotgan organizm salomatligiga ta’sirini baholash uchun biz ota-onalar va pedagoglar (n=200) o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdik, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish paytida 6-16 yoshdagi 100 nafar bolani kuzatdik. Bolalarning salomatlik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar tibbiy kartalar, anketalar va tibbiy ko‘rik natijalaridan foydalangan holda to‘plangan.

Jismoniy rivojlanishni tahlil qilish uchun jismoniy tayyorgarlikni baholash usullari (chidamlilik, kuch, moslashuvchanlik va muvofiqlashtirish testlari) va pedagogik diagnostika yordamida salomatlik darajasini baholash usulidan foydalanish mumkin edi. Tahlil o‘tkazilgan asosiy ko‘rsatkichlar tana massasi indeksi (TVI), jismoniy faollik darajasi, shuningdek, kasalliklar chastotasini o‘z ichiga olgan.

Natijalar: Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanish bolalarning umumiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Respondentlarning 85 foizi jismoniy faollik bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari va ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlagan. Shuningdek, ota-onalarning 70 foizi sport bilan shug‘ullanadigan bolalarda shamollash holatlari kamayganini ma’lum qilgan.

1-grafik. Sport bilan shug‘ullanuvchi va shug‘ullanmaydigan bolalar o‘rtasida kasallanish darajasi (tibbiy karta ma’lumotlari bo‘yicha)

1-grafikdan ko‘rinib turibdiki, jismoniy tarbiya bilan faol shug‘ullanuvchi bolalarda (A guruhi) kasallanish darajasi jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanmaydigan bolalarga (B guruhi) nisbatan 30% ga past.

Shuningdek, jismoniy tayyorgarlikni testlash natijalari shuni ko‘rsatdiki, sport bilan shug‘ullanuvchi bolalar jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanmaydiganlarga nisbatan barcha parametrlar (chidamlilik, kuch, egiluvchanlik) bo‘yicha yaxshiroq ko‘rsatkichlarga ega.

Xulosa : Tadqiqot shuni tasdiqladiki, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanish o‘sib kelayotgan organizmga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki ruhiy-hissiy holatni yaxshilashga, shuningdek, kasallanishni kamaytirishga yordam beradi. Shu munosabat bilan bolalar va o‘smirlar uchun ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda yanada moslashuvchan va jozibador jismoniy tarbiya dasturlarini joriy etish zarur.

Jismoniy tarbiyaga bo‘lgan bunday e’tibor zamonaviy jamiyat uchun muhim vazifa bo‘lgan sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Jismoniy faollikning ahamiyatini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak, chunki aynan u yoshlar salomatligining kelajagi uchun poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Koroleva Ye. V., Petrova I. B. (2022). Jismoniy faollikning bolalar va o‘smirlar salomatligiga ta’siri. Bolalar tibbiyoti jurnali, 32 (6), 45-50.

2. Sidorova, N. A. (2023). O‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning roli. Jismoniy tarbiya va salomatlik, 29 (4), 122-130.

Novikov A.A. (2021). Bolalarda kasalliklarning oldini olish: jismoniy faollikning roli. SPbGPU jurnali, 18 (3), 67-75.

3. Mixaylov O. G. (2020). Sport bilan shug‘ullanishning o‘smirlar emotsional holatiga ta’sirini empirik o‘rganish. Psixologiya va sport jurnali15 (2), 112-120.

4. Mitusova, Ye.D. Vzaimodeystviye obsheobrazovatelnogo uchrejdeniya, sportivnoy shkoli i universiteta v sisteme sportizatsii fizicheskogo vospitaniya / Ye.D. Mitusova, T.I. Polunina // Fizicheskaya kultura: vospitaniye, obrazovaniye, trenirovka; FK: VOT, No1, 2019, s.14-16.

5. Fonarev, D.V. Puti preobrazovaniya munitsipalnoy sistemi fizicheskogo vospitaniya v organizatsionno-upravlencheskuyu strukturu sportivno oriyentirovannogo obrazovaniya/ D.V. Fonarev // Teoriya i praktika fizicheskoy kulturi.-2005.-No5.-S. 19-22

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA KOMPTENSIYAVIY YONDASHUV TAMOILLARI

T.Sh.Muhammadiyev

Alfraganus university O‘zbek tili va adabiyoti

2-bosqich magistranti ilmiy rahbar Sharqshunoslik

universiteti f.f.d. professor Sh.R.Usmonova

e-mail: tulaganmuhammadiyev282@.com

Tel: +998994833403

Annotasiya. Ushbu maqolada ta’lim samaradorligini oshrishda sifat nazoratini tashkil etish va bunda o‘qutuvchining asosiy vazifasi nimalardan iboratligi, shuningdek ta’lim sifati va uni belgilovchi omillar hamda uni amalga oshrishda o‘qituvchi pedagoglarning asosiy vazifalari haqidagi fikrlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xalq ta’limi tizimi Ta’lim infratuzilmasi O‘quvchilar o‘zlashtirishi PISA reytingi 2030 yil strategiyasi Uzluksiz ta’lim Ta’lim sifati Ta’lim samaradorligi Ta’lim mazmuni Innovatsion texnologiyalar

Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqladi. Ta’lim infratuzilmasini yaxshilash va kengaytirish hamda o‘qitish metodikalarini takomillashtirishdan tashqari, konsepsiyada o‘quvchilar o‘zlashtirishini baholashning xalqaro tadqiqoti – PISA reytingiga ko‘ra O‘zbekiston 2030 yilga qadar jahonning 30 ta etakchi mamlakatlari qatoriga kirishi maqsad qilib qo‘yilgan. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda o‘qituvchining kasb faoliyati strukturasi uning kasbiy sifatlari yoki kasb qobiliyatlari deb ham sanaladi. Bu struktura asosida o‘qituvchining yuzlab kasb sifatlari va fazilatlari aniqlangan. Jumladan, 200 ga yaqin ijobiy sifatlar, ya’ni qobiliyatlar va 60 dan ortiq salbiy kasb sifatlari o‘rganilgan. Tarbiyachilik qobiliyati tarbiyachilik - bu yuksak darajadagi san’at bo‘lib, shaxsni ijtimoiy hayot talablariga javob bera olish qobiliyatini bildiradi. Tarbiyachilik qobiliyati shaxsni tarbiyalashga emas, o‘z-o‘zini tarbiyalay olishga yo‘naltira bilishda qaror topadi. Bugungi tarbiyaning maqsadi ham aynan mustaqil fikrlay oladigan va o‘zini-o‘zi tarbiyalash qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslarni shakllantirishga qaratilgan. Tashkilotchipik qobiliyati – ta’lim-tarbiya ishini samarali yo‘lga qo‘yishda o‘qituvchining tashkilotchilik qobiliyati alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda sinf yoki guruh jamoasini uyushtira olish, har bir o‘quvchi bilan individual shug‘ullanish uchun ularni yosh, jins hamda yakka tartibdagi xususiyatlarini bilish, o‘quvchitalabalarni hohish istaklari, muammolarini eshitish va ularning echimini topishda ko‘maklashish, qo‘shimcha darslar, to‘garaklar, tarbiyaviy darslar o‘tkazishga oid tegishli shart-sharoitlar

yaratish kabi ishlar kiradi. Kommunikativ qobiliyat – “O‘qituvchi-o‘quvchi”, ota-onalar, jamoatchilik, mahalla va boshqa tashkilotlar bilan to‘g‘ri munosabat hamda kasbiy-madaniy aloqalar o‘rnatishga qaratilgan. Pertseptiv qobiliyat – o‘quvchi va talabaning qalbiga yo‘l topa olish, o‘z navbatida uni qalban his etib, o‘zining o‘rniga qo‘yib ko‘ra bilish, yoshlarni ruhiyma’naviy olamini o‘rganish, unga ob’ektiv baho berish, bolani psixologik xususiyatini bilgan holda uning kayfiyati, hissiyoti, diqqati va boshqa psixik jarayonlarini o‘rganib borish o‘qituvchining pertseptiv qobiliyatini tashkil etadi. Informatsion qobiliyat – o‘quv-tarbiya jarayonining boshi, ya’ni boshlanishi hisoblanib, o‘qituvchining qanchalik axborot ola bilish qobiliyati, uni atroflicha o‘rganib, tahlil etib, o‘quvchi va talabaning yoshi, ongi, dunyoqarashiga mos ravishda etkazib bera olishida o‘z ifodasini topadi. Bunda qaytar aloqa va uning samaradorligi o‘qituvchining informatsion qobiliyati darajasini belgilaydi. Didaktiv qobiliyat – o‘quvchi va talabani bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini aniklash, mustaqil fikri, mantiqiy va analitik tafakkuri asosida egallayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘rganib borishi, bu jarayonda egallayotgan bilimlar qay darajada ko‘nikma va malakalarga aylanayotganligi muhimdir. O‘qituvchnning yana bir didaktiv qobiliyatiga uning dars jarayonini kuzata bilish va tahlil qila olishi kiradi. Didaktiv qobiliyatning yana bir o‘ziga xos xususiyati o‘qituvchining bilimdonligi, zehnining o‘tkirligi, ijodkorlngida ko‘rinadi. Didaktiv qobiliyat o‘qituvchining informatsion qobiliyati asosida rivojlanib boradi. Yo‘naltiruvchi qobiliyat - motivlar va motivatsiya bilan bog‘liq bo‘lib, erkin fikr, qiziqish, havas, intilish va orzu bilan uyg‘un holda bo‘ladi. Rivojlantiruvchi qobiliyat – ta‘lim-tarbiya rivojining uygunligida amalga oshib, bunda o‘qituvchi o‘quvchini hissiy-irodaviy, didaktiv yo‘naltiruvchi, safarbar etuvchi, yangilikka intiluvchanlik va ilmiy-ijodkorlik qobiliyatlarini aniq sistemada maqsadli ravishda rivojlantira olish qobiliyati bilan ifodalanadi. Kreativ qobiliyat - bu o‘qituvchining alohida o‘ziga xos qobiliyati bo‘lib, o‘z ongida yangi tushunchalarni o‘rganish, uni tahlil etishdan boshlanib, yangilikkaintilish, o‘z sohasi bo‘yicha axborotlarni to‘plash, uni alohida dastur holiga keltirib, ta‘lim va tarbiya jarayoniga tatbiq eta olish bilan belgilanadi. Gnostik (tadqiqotchilik) qobiliyat – o‘qituvchining izlanishga, ijodiy mehnatga, ilm-fanga qiziqishga, muammolar echimida maqsad va vazifalar qo‘ya bilishga, ahamiyatiga qarab ilmiy-amaliy faktlarni muayyan ilmiy faraz echimini topishga, ilmiy tadqiqotchilik ishi bilan shug‘ullanishga, ilm asosida bilim berish printsipi asosida faoliyat yuritishga undaydi. Uzluksiz ta’lim tizimida fanlarni o‘qitishda ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishda ta’lim mazmuni va sifati nazoratini olib borish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda ta’lim muassasasi rahbariyati va pedagoglari quyidagilarni bilishi zarur: boshqaruv mexanizmini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etish, ta’limda sifat tushunchasi, ta’limda sifat nazoratini tashkil etish, ta’lim

sifatini belgilovchi omillar, sifatni baholash mezonlari, sifat nazoratini olib boruvchilar (sifat komissiyasi), nazorat monitoningi va uning yuritilishi, yakuniy natijalarni baholash va qo‘shimcha tadbirlar belgilash.

Ta’limda sifati qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun amalga oshirilayotgan ishlarning nazorati va baholash bo‘yicha olingan natijalarning monitoringi. Qaysi ta’lim muassasisida boshqaruv mexanizmi ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lsa, ta‘lim muassasasi rahbariyatining bosh vazifalaridan biri bo‘lgan ta’lim mazmuni va sifat ko‘rsatgichlarini oshirishga qaratilgan rejalari aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, shu ta’lim muassasasida ta’limning sifat nazoratini tashkil etish va uning monitoringini olib borish mexanizmlari ham ishlab chiqilishi lozim. Buning uchun ta’lim muassasasi rahbariyati ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan asosiy vazifalarni ishlab chiqish va ushbu vazifalarning bajarilishi monitoringini olib borish uchun sifat komissiyasi tuziladi. Ta’lim sifatini belgilovchi omillardan kelib chiqqan holda ta’lim sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi va shu mezonlar asosida ta’lim sifati baholanib boriladi, monitorin vaqtida duch kelingan muammolar bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar belgilab olinadi. Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun birinchi navbatda ta’lim muassasasi rahbariyati va pedagogik jamoasi tomonidan ta’lim sifatini belgilovchi omillar aniqlab olinadi. Ta’lim muassasasida sifat nazorati tashkiliy tuzilmasi Ta’lim sifatini belgilovchi omillarning asosiylaridan biri o‘qituvchi pedagoglardir. O‘qituvchi-pedagoglarning ta’lim jarayonini sifatli tashkil etishdagi ijodkorligi, izlanuvchanligi, pedagogik mahoratlarini baholab borish va mehnatlariga yarasha moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib borish ta’lim mazmuni va sifat ko‘rsatkichlarini oshirishning asosiy elementlaridan biridir. Bugungi davr talabi ta’lim va tarbiyada ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda ilg‘or tajribalarini joriy etish natijasida ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat bo‘lib, bunda o‘qituvchi-pedagoglar o‘z bilimlarini doimo oshirib borishlari, innovatsion va interfaol usul hamda pedagogik texnologiya metodlarini puxta o‘zlashtirib olgan holda ulardan o‘z kasbiy faoliyatida samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Bu borada o‘qituvchi-pedagoglar oldida quyidagi vazifalar turadi: - ta’lim maqsadini, vazifasini va mazmunini aniqlash, o‘quv materialini ta’lim oluvchining intelektual salohiyatiga, yoshiga moslik darajasini va o‘zlashtirish saviyasini loyihalash, turli xil murakkablik darajadagi nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ta’lim berish natijasi va uning samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, darsda va darsdan tashqari vaqtlarda beriladigan mustaqil ta’lim uchun mustaqil ish topshiriqlarini rejalashtirish, ularning tizimi va mazmunini ishlab chiqish, o‘rganiladigan fan bo‘yicha ma’lumotlarni modulli bloklarga ajratish, o‘qitishni takomillashtirishga ta’limning interfaol usullarini tanlash, muammoli va axborotli ta’lim

elementlaridan foydalanish va hokazo. Har bir o‘qituvchi-pedagog dars mashg‘ulotlarini olib borishda o‘z faoliyatini tahlil qila olish va shu asosda tegishli xulosa chiqara olishga erishish kerak. Agarda o‘qituvchi o‘z mashg‘ulotlarining samaradorligini baholay olmasa, u holda o‘zi yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni sezmaydi va bu faoliyatda ijodiy yondashuv ham bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva, M. (2021). *Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim sifatini oshirishning nazariy asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
2. Axmedov, B. va boshqalar. (2020). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Turaev, R. (2019). *Kompetensiyaviy yondashuv: mohiyati va uni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari*. O‘zbekiston pedagogik jurnali, №4, 25-30-betlar.
4. Soliyev, A., & Qodirova, G. (2022). *Zamonaviy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning roli*. Innovatsion ta’lim texnologiyalari, №1(15), 12–18.
5. Hutmacher, W. (2001). *Key competencies for the 21st century: An overview*. OECD Education Policy Analysis.
6. Rychen, D. S., & Salganik, L. H. (2003). *Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society*. Göttingen: Hogrefe & Huber Publishers.
7. UNESCO. (2015). *Rethinking Education: Towards a global common good?* Paris: UNESCO Publishing.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-son qarori, 2018-yil 6-iyul. *Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida*.
9. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni (yangi tahriri), 2020-yil 23-sentabr.
10. European Commission. (2006). *Recommendation of the European Parliament and of the Council on key competences for lifelong learning*. Official Journal of the European Union.

INNOVATSION MENEJMENT ASOSIDA OTMLARIDA BOSHQARUV XODIMLARINING STRESSNI BOSHQARISHI

Sariboyev Nurali Abdunazarovich-GulDPI o‘qituvchisi

E-mail: sariboyevnurali5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda innovatsion menejment asosida OTM larda boshqaruv xodimlarining stressni boshqarishi haqida so‘z boradi. Zamonaviy texnika va texnologiyalar rivojlangani sari oliy ta’limda yuqori o‘sish va o‘zgarishlar yuz bermoqda, shu bilan birga turli stress va charchoq holatlari ham kuzatilmoqda. Buning oldini olish va stressga qarshi kurashish uchun bilim va harakat talab etiladi. Stressning oldini olish, bartaraf etish imkoniyatlarini takomillashtirish, shuningdek bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish va samarali tashkil qilish to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: stress, innovatsiya, mehnat, jarayon, holat, menejment, biznes, ishbilarmonlik, yangilik, maqsad, tizim;

Абстрактный. В данной статье рассматривается управление стрессом среди управленческого персонала современных университетов на основе инновационного менеджмента. По мере развития современных технологий и методик наблюдается колоссальный рост и изменение сферы высшего образования, но в то же время наблюдаются и различные ситуации, связанные со стрессом и усталостью. Чтобы предотвратить это и бороться со стрессом, нужны знания и усилия. Предоставляется информация по улучшению профилактики и управления стрессом, а также по эффективному использованию и организации свободного времени.

Ключевые слова: стресс, инновация, работа, процесс, ситуация, проблема, бизнес, предпринимательство, новаторство, цель, психологический;

Abstract. This article discusses the stress management of management personnel in universities based on innovative management today. With the development of modern techniques and technologies, there is a great growth and changes in higher education, but at the same time, various stress and fatigue situations are observed. Knowledge and action are required to prevent this and combat stress. Information is provided on improving the possibilities of preventing and eliminating stress, as well as on the effective use and effective organization of free time.

Keywords: stress, innovation, work, process, situation, problem, business, entrepreneurship, innovation, goal, psychological;

Kirish. Bugun jahonda barcha sohalarda rivojlanish, takomillashish tendensiyasi juda yuqori sur'atda kechmoqda. Bu yurtimiz ta'lim sohasidagi jadal islohotlarda ham o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, oliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi va boshqa bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida o‘qitishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish kabi yo‘nalishlarlar bo‘yicha innovatsion o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda: ta'limning yangi mazmunini shakllantirish; o‘quv jarayonida o‘z taqdirini o‘zi belgilash va shaxsiy rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish; ham pedagog, ham talabalar faoliyati va tafakkuridagi o‘zgarishlar, ular o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishi, ijodiy innovatsion jamoalar va shaxslarning rivojlanishiga olib kelmoqda.

Ta'lim sohasidagi barcha islohotlaning asosiy maqsadi ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda Oliy ta'lim muassasalarida ham innovatsion texnologiyalardan, kompyuter va axborot texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda.

Innovatsiyalarni boshqarish – bu nima? Innovatsion menejment - bu jarayonlarni takomillashtirish va maqsadlarga erishish uchun yangi texnologiyalar, texnika va yondashuvlarni joriy etishga asoslangan boshqaruvga yondashuv. Ta'lim muassasalarida (OTM) bu yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish, boshqaruv strategiyasini o‘zgartirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tashqi muammolarga moslashishni o‘z ichiga olishi mumkin. Innovatsion menejment nafaqat raqobatdosh ustunliklarni yaratishga qaratilgan, balki menejerlarda yetakchilik ko‘nikmalarini va qiyinchiliklarni yengish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim tizimining doimiy yangilanishi va innovatsionligi OTM ma'muriyatidan maqbul o‘quv-uslubiy ish tizimini amalga oshirishda harakatchanlik va tegishli kompetenlikni talab qiladi. O‘quv-uslubiy ishlarni boshqarishda ta'lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish, innovatsion jarayonlarni joriy etish va uslubiy qo‘llab-quvvatlash, o'quv muassasasi doirasida professor-o'qituvchilarni uslubiy qo‘llab-quvvatlash va malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uning muvaffaqiyati natijasi nafaqat professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va talabalarning ta'lim sifatini oshirish, balki ta'lim xizmatlari bozorida institutning raqobatbardoshligidir. Pedagogik menejmentning mohiyatini ko‘rib chiqish

menejment, pedagogik menejmentni aniqlamasdan, pedagogik boshqaruvning nazariy jihatlarini, uning vazifalari va tashkiliy-boshqaruv tamoyillarini, uslublar tipologiyasini tushunmasdan turib mumkin emas. Shuning uchun, avvalo, pedagogik menejment tushunchasiga ta'rif beramiz, ta'limni boshqarishning asosiy tamoyillari, usullari, vazifalari, uslubiy yondashuvlari va tashkiliy-boshqaruv tamoyillari, metodlar tipologiyasini tavsiflaymiz. "Menejment" tushunchasi uchta semantik jihatga ega:

- xususiy va davlat biznesi sohasida boshqaruv ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar majmui;

- zamonaviy jamiyatning tadbirkorlik faoliyati, turmush tarzi va siyosat sohasiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy va iqtisodiy instituti;

- ishlab chiqarishni boshqarishning texnik, tashkiliy, ijtimoiy jihatlarini va jamiyat hayotining boshqa sohalarini o'rganadigan ilmiy fan yo'nalishi;

Bu esa ta'lim jarayonida boshqaruv xodimlarining faoliyatida o'sish va rivojlanishiga olib kelishi bilan birga, stress olishlariga sabab bo'lmoqda. Dastlab, barchamizda stress nima va u qanday paydo bo'ladi degan savol turadi.

Ta'lim muassasalarini boshqarishdagi stress va qiyinchiliklar. Ta'lim muassasalari rahbarlari har kuni turli xil stress omillariga duch kelishadi, masalan:

• ma'muriy bosim va tartibga solish talablariga rioya qilish zarurati;
• turli qiziqish va ehtiyojlarga ega bo'lgan ko'p sonli xodimlarni boshqarish;
• texnologiya va ta'lim standartlarining tez o'zgarishi;
• xodimlar, talabalar va ota-onalar o'rtasidagi nizolarni hal qilish;
• ta'lim jarayoni natijalari uchun javobgarlik.

Bunday muhitda stressni boshqarish boshqaruv guruhlari uchun asosiy mahoratga aylanadi. Stress, agar nazorat qilinmasa, kasbiy charchashga, boshqaruv samaradorligini pasayishiga va tashkiliy muhitning yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Stress-bu tashqi ta'sirlarga javob natijasida natijasida namoyon bo'ladigan jismoniy va ruhiy zo'riqish. Qisqa stress insondagi xotirasini, immunitetini va intelektual qobiliyatini vaqtincha oshiradi. Ammo uzoq vaqt stress holatida yurish inson salomatligiga, uning fiziologik holatiga, ruhiyati va hatti-harakatlariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Insonda tashvishlanish, asabiylashish, vahima holatlari kuchayadi, tez jahl qilish, o'zini tuta olmaslik, boshqalar bilan munosabatining tez-tez buzilishi, surunkali jismonan va ruhan charchoqlik, ishlash sifatining buzilishi holatlari kuchayadi. Bu esa organizmda kortizol, ya'ni stress garmonining ko'payishiga olib keladi. Uzoq vaqt bu holatda yurish depressiya, turli nevroz holatlari va xulq og'ishishlarini kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga kartizolning tanada ko'payishi metobolizm holatini buzilishi, ortiqcha vaznning oshishiga olib keladi. Stress yurak, qon-tomir (infarkt, miokart,

gipertoniya), oshqozon ichak trakti (gastrit, oshqozon, o‘n ikki barmoq yarasi), immunitet pasayishi kasalliklarini kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Stressning kelib chiqishiga eng ko‘p sabab bo‘ladigan xolatlar:

a) kasbiy mas’uliyat darajasining oshishi;

b) do‘stlar, yaqin insonlar, oila a’zolari bilan munosabatning tez-tez buzilishi.

d) o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasining pastligi;

e) yetarlicha dam olmaslik yoki uyquning kamligi;

f) axborotning haddan tashqari ko‘p yuklanishi.

g) moliyaviy beqarorlik va boshqalar bo’lishi mumkin.

Stressni sabablari aslida insonni ta’sirlaydigan, bezovta qiladigan har qanday narsa bo‘lishi mumkin. Misol uchun tashqi sabablardan biri nima tufayli paydo bo‘lgan bezovtalikni vujudga kelishi natijasida paydo bo‘ladi. Stress va depressiya ayol va erkaklarda taxminan teng darajada uchrashi mumkin. Biroq, har bir organizm o‘z xususiyatlariga ega. Agar siz o‘zingizda stress haqida so‘zlashi mumkin bo‘lagan alomatlarni sezsangiz, birinchi navbatda holat sabachilarini aniqlash kerak. Stressning oqibatlaridan ko‘ra sabablarini bartaraf etish ancha osonroq. Stressdan qutulish uchun eng avvalo stressga olib keluvchi omilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazish, stressli vaziyatning asl sababi nimada ekanligini aniqlash, ushbu vaziyatni o‘zgartiraolishingizni baholash, oqibatlarini baholash. Vaziyatga bo‘lgan qarashingizni o‘zgartirish; Vaziyatni o‘zgartirish sizning qo‘lingizdan kelish-kelmasligini baholash, agar boshqalar hatti-harakatini o‘zgartirib bo‘lmasa, ularga bo‘lgan munosabatingizni o‘gartirish. Stressga qarshi kurashishdan oldin uning kelib chiqish sabablarini o‘rganish va undan so‘ng shunga mos tarzda kurashish talab qilinadi. Stressga har qanday kasb egasi uchraydi chunki har bir ishning o‘z texnikasi bor o‘z qiyinchiliklari bor. Qiyinchiliklarga sabr qilish,ularni yengib o‘tishga harakat qilmoq darkor. Kasbiy so‘nish bu uzoq davom etgan surunkali stress natijasida rivojlanadigan sindrom bo‘lib, mehnat qiladigan insonni emotsional-energetik va shaxslilik resurslarining holdan toyishiga olib keladi. O‘z navbatida ish joylaridagi stresslar bevosita professional so‘nish bilan ham insonlar bilan ishlash, ularga xizmat ko‘rsatish va yordam berish sohasida uchraydi. Kasbiy so‘nish bunda kasbiy krizis sifatida ham baholanadi, birinchi navbatda o‘zgarishlar shaxslararo o‘zaro munosabatlar tizimida, o‘zaro ta’sirga kirishish jarayonida kuztiladi. Kasbiy so‘nish barcha kasb egalarida jumladan o‘qituvchi-pedagoglarda ham kuztilar ekan. Bugungi kunda insonlarga foyda keltiradigan mashg‘ulot turlari kun sayin ko‘payib, rivoj topib bormoqda, bunday mashg‘ulotlarni o‘rganish ulardan samarali foydalanish kerak.

Stress bilan qanday kurashish kerak?

- stressli vaziyatlarda chalg’ish;

- sodir bo‘lgan voqeaga nisbatan munosabatni qayta ko‘rib chiqish;

- stressni keltirib chiqaradigan kuchli salbiy hissiyotlarni, fikrlarni va undan kelib chiqadigan energiyani kamaytirish uchun sport bilan shug’ullanish, futbol, voleybol, tennis o‘ynash, kardio mashqlarni bajarish, yoga, meditatsiya bilan shug‘ullanish;

- Dam olish, ijobiy fikrlashga harakat qilish;

- optimizm;

hayotni, ishni, dam olishni oqilona tashkil etish, hayotdan zavq olishni o‘rganish.

Stressni oldini olish yo‘llari:

1. Muntazam jismoniy faollik;
2. Muvozanatli va sog‘lom ovqatlanis;
3. Vitamin va mikroelementlarni ichib turish;
4. 8 soatlik uyqu;
5. Ochiq havoda sayr qilish;
6. Sayohatlarga borish;
7. Yaxshi insonlar bilan muloqot

Innovatsion menejmentni o‘zlashtirish orqali yangi, rivojlanayotgan sohalarni yaratish ularni takomillashtirish uchun imkon yaratadi. Innovatsion menejment asosida yangi mahsulot turlarini yaratish ularni keng ommaga tatbiq qilish orqali boshqalar uchun ham foydali bo‘lgan sharoitlarni ham yaratish mumkin bo‘lgan. Innovatsion menejment asosida boshqaruv xodimlarining g‘oyalarini amalga oshirish ularni takomillashtirish yanada ko‘proq yangiliklarni yaratish mumkin ekan, innovatsiyalarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali yaxshigina bilim va malakaga ega bo‘lish ularni moddiy to‘ldirib borish ham talab qilinar ekan. Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak inson hech qachon bir joyda to‘xtab qolmasdan doimo harakatda bo‘lishi, o‘z yangi g‘oyalarini yaratib borishi jamiyat tarraqiyoti, yuksalishi uchun izlanishda bo‘lishi darkor. Odamlarda bo‘sh vaqtning ko‘p bo‘lishi, zerikish, ma’naviy bo‘shliqning paydo bo‘lishi, tushkunlikka tushib qolish, rivojlanishdan orqada qolib ketish ham streeslarning paydo bo‘lishi uchun imkon yaratadi. Yangiliklarga moyil bo‘lish, innovatsiyalarni, turli foydali usullar orqali bo‘sh vaqtni to‘g‘ri tashkil qilish orqali yaxshi natijalarga erishsa bo‘ladi.

Xulosa. Innovatsion menejment ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari o‘rtasida stressni boshqarish va yengish ko‘nikmalarini oshirishning kuchli vositasidir. Bu nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish va ta’lim jarayonlarini takomillashtirishga yordam beradi, balki yetakchilik qobiliyatini, hissiy intellektni va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Boshqaruvga innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi menejerlarga nafaqat dolzarb muammolarni yanada

samarali hal qilish, balki kelajakka ishonchni his qilish, ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanishi uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бобровникова Е.Р. Научно-методическое сопровождение деятельности современного педагога. – 2018. – № 2. – С. 49-53.

2. Inaqov Q.Q. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv-uslubiy ishlarni tashkil qilishda innovatsion boshqaruv. «Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to‘plami. 25-may. – Toshkent: O‘zMU, 2023.

3. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси. Социология фанлари (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1.

4. Surin A. B., Molchanova O.P. Innovatsion boshqaruv. 2008

5.Sariboyev N. Possibilities to manage and eliminate the stress of managers on the basis of innovative management. Modern Science And Research, *3*(1). 2024. – P. 1111-1116.

6.Sariboyev N. B. Basic concepts of “Innovation Management”. Best Journal Of Innovation In Science, Research And Development 3.2, 2024. – P. 203-206.

VOLEYBOL O‘YINING JISMONIY TARBIYA TIZIMIDAGI O‘RNI

Azizov Muxammadjon A’zamovich-Qo‘qon davlat universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Voleybol o‘yini jismoniy tarbiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu sport turi yosh avlodni jismonan chiniqtirish, ularning harakat faolligini oshirish, irodaviy sifatlarini shakllantirish hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida voleybolni dars mashg’ulotlariga kiritish orqali o‘quvchilarda sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish, sog’lom turmush tarziga rioya qilishni targ’ib qilish mumkin. Shuningdek, voleybol orqali koordinatsiya, tezkorlik, chaqqonlik va muvozanat kabi jismoniy sifatlar samarali rivojlanadi. Mazkur maqolada voleybol o‘yinining jismoniy tarbiya tizimidagi o‘rni, uning pedagogik va sog’lomlashtiruvchi funksiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy voleybol, mashg’ulot, jismoniy yuklama, sog’lomlashtirish, vosita, to‘pn, qabul qilish.

	o‘g‘li	bolalar rivojlanishidagi uslublar to‘qnashuvi	
90.	*Abdusalomov Doniyor Rustam o‘g‘li, Madaminova Nilufar Nuriddinjon qizi*	Voleybol sport turining shaxs rivojlanishidagi ahamiyati	359
91.	*Yo‘ldasheva Gulasal*	Odam anatomiyasi fanining jismoniy tarbiya yo‘nalishiga afzallilik tomonlari	362
92.	*Sh.T.Saribayev, Abdukarimova Xurshida*	Sport tibbiyoti va uning kishilar sog‘ligini saqlashdagi ahamiyati	364
93.	*Tursaotov Ali Eshmo‘minovich, Nabijonova Joziba*	Jismoniy tarbiyaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati	367
94.	*Rajabaliyev Shodiyorbek Shavkat o‘g‘li*	Kuch va chidamlilikni milliy sport turlari orqali rivojlantirish	369
95.	*B.I.Xo‘janiyozov, Babadjanova Dilnura Jamol qizi, Hasanov Behruz Olimjon o‘g‘li, Jumaboyev Shohzod Hamro o‘g‘li*	Ma’naviy qadriyatimiz kurash	375
96.	*M.M. Ulug‘bekova*	O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari	382
97.	*M.M. Ulug‘bekova*	I- iv- sinf o‘quvchilariga mos harakatli o‘yinlar	386
98.	*Bolbekov Elyor Abdimumin o‘g‘li*	11-12 yoshli maktab o‘quvchilarining tennis sport turi orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirish	391
99.	*Galayev Kaxxar Karimovich*	Jismoniy tarbiyaning mazmuni va vazifalari	393
100.	*Bolbekov Abduqalik Suyundikovich*	Voleybol sport turini rivojlantirish	396
101.	*Abdusalomov Doniyor Rustam o‘g‘li, Xusanboyeva Feruza Ergash qizi*	Boshlang‘ich sinflarda harakatli o‘yinlarning gigiyenik va sog‘lomlashtirish ahamiyati	399
102.	*Abdusalomov Doniyor Rustam o‘g‘li, Madaminova Nilufar Nuriddinjon qizi*	Voleybol sport turining shaxs rivojlanishidagi ahamiyati	403
103.	*T.U. Ismoilov, D.K. Zaynobidinov, M.T. Po‘latov*	Sog‘lom turmush tarzini amalga oshirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati	406
104.	*Yo‘ldashev Otabek Muzaffar o‘g‘li, Ziyodullayev Diyorbek Jo‘rabek o‘g‘li*	Yosh avlodning ma’naviy shakllanishida xalq va harakatli o‘yinlarning ahamiyati	409

“Jismoniy tarbiya va sport sohasida ta’lim samaradorligini oshirishning ilmiy-uslibiy asoslari: muammo va yechimlar”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2025-yil 26-27-aprel

Mas’ul muharrir: Karimov Fazliddin Jamoliddin o‘g‘li
Musahhih: S.Yuldasheva
Texnik muharrir: B.Yakubov
Sahifalovchi-dizayner: Sh.Muqumova

“Ziyo nashr-matbaa” nashriyoti
Manzil: 120100 Guliston sh., O‘zbekiston ko‘chasi 8-uy.
Tel: +99897-565-71-21

Nashriyot tasdiqnoma raqami №5485. 14.08.2020-yil.
Bosishga ruxsat etildi 23.04.2025-yil. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.
Ofset qog‘ozi. Hisob nashriyoti tabog‘i 41,5.
Shartli bosma tabog‘i 41,25. Adadi 100. Buyurtma №103

“Sirdaryo Print” mas’uliyati cheklangan jamiyatida chop etildi.
Manzil: Sirdaryo sh., O‘zbekiston ko‘chasi, 92-uy.